bring sb sth	Fe'ning vositalidan so'ng vositasiz to'ldiruvchi bilan kelishi	<i>Could you bring us the bill?</i>

SYMBOLS
(BELGILAR)

BELGI	TA'RIFI	BELGI	TA'RIFI
@	at (in email address)	-	dash
%	per cent	_	underscore e.g. sardor_hafizov@mail.ru
" "	quotation marks	()	round brackets
&	ampersand	[]	square brackets
*	asterisk	{ }	curly brackets
™	trademark	!	exclamation mark
©	copyright	?	question mark
®	registered sign	§	section sign
0°	degree	<	less-than sign
£	pound	>	greater-than sign
€	euro sign	x ²	superscript two
\$	dollar sign	x ³	superscript three
¢	cent sign	:	colon
#	number sign	;	semicolon
\	back slash	=	equals sign
/	forward slash	≠	does not equal sign
'	apostrophe	×	multiplication sign
x	cross	÷	division sign
✓	tick	-	minus sign
.	full stop (in grammar); dot (in email address)	+	plus sign
,	comma	√	square root sign
∞	infinity sign	♂	male sign
±	plus-minus sign	♀	female sign

VERB
(FE'L)

➤ Qoida 1:

Ish-harakat va holatni ifodalab, *nima qilmoq?*, *nima bo'lmoq?* so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarga *fe'l* deyiladi.
Masalan: *to talk, to watch, to work, to play, to write, to listen, to read, etc.*

➤ Qoida 2:

Fe'llar ish-harakat va holatni ifodalashiga ko'ra ikkiga - *harakat* va *holat* fe'llariga bo'linadi.

1. Biror-bir ish-harakatning bajarilishini ifodalaydigan fe'llarga *harakat fe'llari* deyiladi.

Masalan: *to go, to play, to swim, to walk, to do, to finish, to start, to work, etc.*

2. Holat va his-tuyg'uni ifodalaydigan fe'llarga *holat fe'llari* deyiladi.

Masalan: *to think, to sleep, to love, to hate, to believe, to know, etc.*

➤ Qoida 3:

Fe'llar shakliga ko'ra to'rtga bo'linadi:

V ₁ (INFINITIVE)	V ₂ (PAST SIMPLE)	V ₃ (PAST PARTICIPLE)	V ₄ (PRESENT PARTICIPLE)
<i>go</i>	<i>went</i>	<i>gone</i>	<i>going</i>
<i>play</i>	<i>played</i>	<i>played</i>	<i>playing</i>
<i>swim</i>	<i>swam</i>	<i>swum</i>	<i>swimming</i>
<i>work</i>	<i>worked</i>	<i>worked</i>	<i>working</i>

➤ Qoida 4:

Fe'llar ikkinchi va uchinchi shakllari hosil qilinishiga ko'ra ikkiga - *to'g'ri* va *noto'g'ri* fe'llarga bo'linadi.

1. To'g'ri fe'llarning ikkinchi va uchinchi shakllari "*-ed*" qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilinadi.

Masalan: *work-worked-worked, play-played-played, watch-watched-watched, etc.*

➤ Izoh:

a) agar fe'l "*e*" harfi bilan tugasa, bunda faqat "*-d*" qo'shiladi.

Masalan: *smile-smiled-smiled, dance-danced-danced, confuse-confused-confused, etc.*

b) agar fe'l undoshdan keyin kelgan "*y*" harfi bilan tugasa, bunda "*y*" harfi "*i*" harfiga o'zgaradi.

Masalan: *hurry-hurried-hurried, study-studied-studied, try-tried-tried, etc.*

c) agar fe'l unidan keyin kelgan "*y*" harfi bilan tugasa, bunda hech qanday o'zgarish ro'y bermaydi.

Masalan: *enjoy-enjoyed-enjoyed, play-played-played, stay-stayed-stayed, etc.*

d) agar fe'l qisqa unidan keyin kelgan undosh harf bilan tugasa, bunda oxirgi undosh harf ikkilantiriladi.

Masalan: *stop-stopped-stopped, plan-planned-planned, rub-rubbed-rubbed, etc.*

2. Noto'g'ri fe'llarning ikkinchi va uchinchi shakllari "*-ed*" qo'shimchasini olmasdan boshqa usullar bilan hosil qilinadi.

Masalan: *blow-blew-blown, eat-ate-eaten, see-saw-seen, etc.*

➤ Izoh:

a) ayrim noto'g'ri fe'llarning birinchi va ikkinchi shakllari bir xil bo'ladi.

Masalan: *beat-beat-beaten, etc.*

b) aksariyat noto'g'ri fe'llarning ikkinchi va uchinchi shakllari bir xil bo'ladi.

Masalan: *build-built-built, catch-caught-caught, shoot-shot-shot, etc.*

c) ayrim noto'g'ri fe'llarning birinchi va uchinchi shakllari bir xil bo'ladi.

Masalan: *come-came-come, run-ran-run, become-became-become, etc.*

d) ayrim noto'g'ri fe'llarning uchala shakli ham bir xil bo'ladi.

Masalan: *cost-cost-cost, hit-hit-hit, let-let-let, etc.*

➤ Qoida 5:

1. Ingliz tilida ikki xil - *vositali* (*Indirect object*) va *vositasiz* (*Direct object*) to'ldiruvchilar mavjud bo'lib, vositasiz to'ldiruvchi deb, fe'l o'zidan keyin hech qanday predlogni olmasdan qabul qiladigan to'ldiruvchiga aytiladi.

Masalan: *I like books. He opened the door. They received the letter.*

2. Vositali to'ldiruvchi deb, predloglar bilan kelgan to'ldiruvchiga aytiladi.

Masalan: *I know about this book. He shouted at me. It depends on you.*

➤ Qoida 6:

1. Ingliz tilida ba'zi fe'llar o'zidan keyin vositasiz to'ldiruvchi talab qiladi. Bunday holatda fe'ldagi ish-harakat birorta shaxs yoki buyum - obyektga o'tadi. Bunday fe'llarga o'timli fe'llar deyiladi.

Masalan: *He invited me to the concert. I read newspapers in the evening.*

2. O'zidan keyin vositasiz to'ldiruvchi talab qilmaydigan fe'llarga o'timsiz fe'llar deyiladi.

Masalan: *My father arrived yesterday. They live in Sariasia.*

➤ Qoida 7:

Ingliz tilida ba'zi fe'llar ham o'timli, ham o'timsiz bo'lib keladi.

Masalan:

to open	o'timli (ochmoq) - He opened the door.
	o'timsiz (ochilmoq) - The library opened at 8 o'clock.
to begin	o'timli (boshlamoq) - I begin work at 9 o'clock.
	o'timsiz (boshlanmoq) - Our English lessons begin at 8 o'clock.
to drop	o'timli (tushirib yubormoq) - He dropped his pencil.
	o'timsiz (tushmoq) - The apple dropped to the ground.
to grow	o'timli (o'stirmoq) - We grow colourful flowers.
	o'timsiz (o'smoq) - Colourful flowers grow in the garden.

➤ Qoida 8:

1. Ingliz tilida ba'zi o'timli fe'llarga o'zbek tilida o'timsiz fe'llar to'g'ri keladi.

Masalan:

To follow (kuzatmoq, ergashmoq)

Please, follow me (iltimos, mening orqamdan yuring).

To approach (yaqinlashmoq)

He approached the house (U uyga yaqinlashdi).

2. Ingliz tilida ba'zi o'timsiz fe'llarga o'zbek tilida o'timli fe'llar to'g'ri keladi.

Masalan:

To listen to (tinglamoq)

Listen to me, please (iltimos, meni tinglang).

To wait for (kutmoq)

She's waiting for her brother (U akasini kutyapti).

➤ Izoh:

Demak, yuqoridagi qoidalardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, ingliz tilida o'timli fe'llar ham aniq nisbatda, ham majhul nisbatda ishlatiladi. O'timsiz fe'llar esa asosan aniq nisbatda ishlatiladi.

➤ Qoida 9:

Ingliz tilida ba'zi fe'llar o'zidan keyin ikkita to'ldiruvchi qabul qiladi va quyidagicha ishlatiladi:

S + V	Object 1 (vositasiz to'ldiruvchi)	+ Object 2 (vositali to'ldiruvchi)
-------	-----------------------------------	------------------------------------

Masalan: *I will give this book to my friend tomorrow. He told a story to us. John asked money from his father.*

➤ Izoh:

1. Agar "object 1" va "object 2" larning o'rni almasha, vositali to'ldiruvchining vositasi (predlogi) ham tushib qoladi.

Masalan: *I will give my friend this book tomorrow. He told us a story. John asked his father money.*

2. Quyidagi fe'llar o'zidan keyin "for" predlogi yordamida ikkita to'ldiruvchi qabul qiladi:

book (buyurtma bermoq)	catch (tutmoq)	find (topmoq)	order (buyurtma bermoq)	save (saqlamoq)
build (qurmoq)	choose (tanlamoq)	get (olmoq)	peel (archmoq)	...
buy (sotib olmoq)	cook (pishirmoq)	make (qilmoq)	pour (quymoq)	...

Masalan: *He poured a drink for me./He poured me a drink. I peeled an orange for her./I peeled her an orange.*

3. Quyidagi fe'llar o'zidan keyin "to" predlogi yordamida ikkita to'ldiruvchi qabul qiladi:

award (taqdirlamoq)	hand (uzatib yubormoq)	owe (qarz bo'lmoq)	pass (uzatmoq)	throw (uloqtirmoq)
give (bermoq)	lend (qarz bermoq)	tell (aytmoq)	show (ko'rsatmoq)	...
grant (taqdim qilmoq)	offer (taklif qilmoq)	promise (va'da bermoq)	teach (o'rgatmoq)	...

Masalan: *He lent his pen to me./He lent me his pen. I handed a four-page form to him./I handed him a four-page form.*

4. Quyidagi fe'llar o'zidan keyin yo "to" yoki "for" predlogi yordamida ikkita to'ldiruvchi qabul qiladi:

<i>bring</i> (olib kelmoq)	<i>pay</i> (to'lamoq)	<i>post</i> (jo'natmoq)	<i>send</i> (jo'natmoq)	<i>take</i> (olib bermoq)
<i>leave</i> (goldirmoq)	<i>play</i> (chalmoq)	<i>read</i> (o'qib bermoq)	<i>sing</i> (kuylab bermoq)	<i>write</i> (yozmoq)

Masalan: (Ba'zida bir xil ma'no beradi) *I haven't got my glasses. Will you read the letter out to me?/Will you read the letter out for me?/Will you read me the letter?* (Ba'zida turli xil ma'no beradi) *Will you post it to me? Will you post it for me?*

5. Quyidagi fe'llar o'zidan keyin predlogsiz ikkita to'ldiruvchi qabul qiladi:

<i>allow</i> (ruxsat bermoq)	<i>cost</i> (narx turmoq)	<i>envy</i> (hasad qilmoq)	<i>permit</i> (ijozat bermoq)
<i>ask</i> (so'ramoq)	<i>deny</i> (rad etmoq)	<i>forgive</i> (kechirmoq)	<i>refuse</i> (rad etmoq)

Masalan: *It cost a lot of money to them./It cost them a lot of money.*

ACTIVE VOICE
(ANIQ NISBAT)

➤ Qoida 1:

Aniq nisbatdagi fe'llar harakatning ma'lum shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishini bildiradi, ya'ni bu fe'llar ifodalagan harakat-holatning bajaruvchisi aniq bo'ladi.

Masalan: *Nick cleans the room every day. Popov invented the radio in the 19th century.*

➤ Qoida 2:

Ingliz tilida fe'lning uchta zamoni mavjud bo'lib, har bir zamonning yana to'rttadan shakli bor.

PRESENT (HOZIRGI ZAMON)	Present Simple (<i>Hozirgi oddiy</i>)
	Present Continuous (<i>Hozirgi davomli</i>)
	Present Perfect (<i>Hozirgi tugallangan</i>)
	Present Perfect Continuous (<i>Hozirgi tugallangan davomli</i>)
PAST (O'TGAN ZAMON)	Past Simple (<i>O'tgan oddiy</i>)
	Past Continuous (<i>O'tgan davomli</i>)
	Past Perfect (<i>O'tgan tugallangan</i>)
	Past Perfect Continuous (<i>O'tgan tugallangan davomli</i>)
FUTURE (KELASI ZAMON)	Future Simple (<i>Kelasi oddiy</i>)
	Future Continuous (<i>Kelasi davomli</i>)
	Future Perfect (<i>Kelasi tugallangan</i>)
	Future Perfect Continuous (<i>Kelasi tugallangan davomli</i>)

➤ Izoh:

Ba'zi grammatik qo'llanmalarda fe'lning o'tgan zamondagi kelasi zamon shakllari *Future in the Past* ham alohida zamonlar sifatida beriladi. Shu bois, ular haqida mufassal ma'lumot berib, aniq farqlarini ko'rsatish uchun ushbu qo'llanmada ham alohida zamon sifatida tushuntiriladi.

FUTURE IN THE PAST (O'TGAN ZAMONDAGI KELASI ZAMON)	Future Simple in the Past (<i>O'tgan zamondagi kelasi oddiy zamon</i>)
	Future Continuous in the Past (<i>O'tgan zamondagi kelasi davomli zamon</i>)
	Future Perfect in the Past (<i>O'tgan zamondagi kelasi tugallangan zamon</i>)
	Present Perfect Continuous in the Past (<i>O'tgan zamondagi kelasi tugallangan davomli zamon</i>)

PRESENT SIMPLE
(HOZIRGI ODDIY ZAMON)

➤ Qoida 1:

Hozirgi oddiy - *Present Simple* zamonida gaplar kesimi qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra ikkiga: *ot-kesimli* va *fe'l-kesimli* gaplarga bo'linadi.

OT-KESIMLI GAPLAR

➤ Qoida 1:

Ot-kesimli gaplarning kesimi fe'ldan boshqa so'z turkumlari: ot, sifat, son, ravish va olmosh bilan ifodalanadi. Bunday gaplarda bog'lovchi fe'l sifatida "to be" fe'lining hozirgi zamon shakllari "am"/"is"/"are" ishlatiladi.

TO BE
(BO'LMOQ)

➤ **Qoida 1:**

Asl ma'nosi "bo'lmoq" bo'lgan "to be" fe'li hozirgi zamonda uchta "am/is/are" shaklga ega. U biror-bir shaxs yoki narsa haqida gapirilib, uning kimligi, nimaligi, qandayligi, yoshi, rangi, millati va shu kabi xususiyatlariga ta'rif berilganda ishlatiladi. Bunda "to be" fe'ldan keyin fe'ldan tashqari barcha so'z turkumlari ishlatiladi. Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
$S+am/is/are+adj/noun/...^1$	$S+am/is/are+not+adj/noun/...$	$Am/Is/Are+S+adj/noun/...?$	$Wh^2+am/is/are+S?$

Masalan: *I am a student. She is beautiful. Tom is an engineer. Jack is 18. They are clever people. I am not Russian. I am Uzbek. Jane is not rude. She is kind. Tom and Bob are not friends. Is she beautiful? Are they engineers? What is it? Who are they? Where is your brother? What kind of person is Jane? Why aren't Tom and Bob friends? How are your children?*

FE'L KESIMLI GAPLAR

➤ **Qoida 1:**

Fe'l-kesimli gaplarning kesimi fe'l bilan ifodalanadi va ish-harakatning bajarilishini bildiradi. Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
$S+V_1$	$S+do/does+not+V_1$	$Do/Does+S+V_1?$	$Wh+do/does+S+V_1?$

Masalan: *I play football every day in the morning. They don't visit their friends very often. Do you usually go to the cinema? Why do you want to learn English? She speaks four languages. He rarely buys a newspaper. Does she watch TV? How many legs does a table have? Where does he go every morning?*

➤ **Izoh:**

Gapning egasi uchinchi shaxs birlikdagi ot yoki olmosh (*he, she, it*) bilan ifodalanganda:

a) kesimga "-s" yoki (*s, ss, sh, ch, o, x*) harflari bilan tugagan fe'llarga "-es" qo'shimchasi qo'shiladi. So'roq va bo'lishsiz gaplar "does" va "does not" yordamida hosil qilinadi.

Masalan: *I work in a bank. He works in a bank. You do not watch TV. She does not watch TV. Do they clean their room? Does Jane clean her room? We go to school every day. Tom goes to school every day.*

b) fe'l undoshdan keyin kelgan "y" harfi bilan tugasa, "-s" qo'shimchasi qo'shilganda "y" harfi "ie" ga o'zgaradi. Masalan: *We tidy our rooms. She tidies her room. I study English. Tom studies French.*

c) fe'l unidan keyin kelgan "y" harfi bilan tugasa, "-s" qo'shimchasi qo'shilganda hech qanday o'zgarish ro'y bermaydi. Masalan: *You play football. Jack plays basketball.*

➤ **Qoida 2:**

"Who" so'roq olmoshi ega vazifasida "kim", to'ldiruvchi vazifasida "kimni", "kimga", "kim bilan", "kim uchun", "kimdan", "kim haqida" ma'nolarini anglatadi. "Who" so'roq olmoshining gapda ega yoki to'ldiruvchi ekanligi gapning tuzilishiga qarab aniqlanadi.

1. Egaga savol berishda "who" uchinchi shaxs birlik (*he, she, it*) ga tenglashadi va undan keyin darhol kesim keladi.

$Who + V_1(-s/-es)?$

Masalan: *Who has a dictionary? Who knows English well? Who wants to go with me?*

2. To'ldiruvchiga savol berishda "who" dan keyin yordamchi fe'l - "do" yoki "does" keladi. Agar fe'l predlogli bo'lsa, predlog gapning oxirida yoki boshida kelishi mumkin.

a)

$Who + do/does + S + V_1 + preposition?$

Masalan: *Who do you usually go to school with? Who do you want to buy these flowers for?*

b)

$Preposition + whom + do/does + S + V_1?$

Masalan: *With whom do you usually go to school? For whom do you want to buy these flowers?*

3. To'ldiruvchiga savol berishda kesim predlogsiz fe'l bilan ifodalangan bo'lsa, quyidagicha holatda bo'ladi:

$Who/whom + do/does + S + V_1?$

Masalan: *Who do you usually meet at school? Who does she love? Whom do they usually call at night? Whom does he send to do the shopping? Who do Tom and Jane respect most?*

¹ "Verb" (fe'l) dan boshqa so'z turkumlari: "adjective" (sifat), "noun" (ot), "numeral" (son), "pronoun" (olmosh), "adverb" (ravish) kabilar ishlatiladi.

² "Wh" belgisi "what" (nima), "where" (qayer), "when" (qachon), "whom" (kimga), "whose" (kimning), "which" (qaysi), "why" (nima uchun), "who" (kim), "how" (qanday), "how long" (qancha muddat/masofa), "how often" (har qancha muddat), "how far" (qanchalik uzoq), "how much" (qancha), "how many" (nechta), "how well" (qanchalik yaxshi) va shu kabi so'roq so'zlar yoki so'zlar guruhi ekanligini ifodalaydi.

➤ Signal soʻzlari:

a)

<i>always</i> (har doim)	<i>mainly</i> (asosan)	<i>from time to time</i> (vaqti-vaqti bilan)
<i>regularly</i> (muntazam)	<i>in general</i> (umuman)	<i>seldom</i> (gohida)
<i>usually</i> (odatda)	<i>generally</i> (umuman)	<i>rarely</i> (kamdan kam)
<i>normally</i> (odatda)	<i>often</i> (tez-tez)	<i>never</i> (hech qachon)
<i>as a rule</i> (odatdagidek)	<i>frequently</i> (tez-tez)	<i>at weekends</i> (dam olish kunlarida)
<i>as usual</i> (odatdagidek)	<i>sometimes</i> (baʼzan)	<i>in the evenings</i> (oqshomlari)
<i>traditionally</i> (anʼanaga koʻra)	<i>now and then</i> (vaqti-vaqti bilan)	<i>on Sundays</i> (yakshanba kunlari)
<i>occasionally</i> (ahyon-ahyonda)	<i>on a daily/weekly/... basis</i> (har kuni/hafta)	...

b)


<i>every</i>	<i>day</i>	-har	<i>kuni</i>
	<i>week</i>		<i>hafta</i>
	<i>month</i>		<i>oy</i>
	<i>year</i>		<i>yili</i>
	<i>morning, etc.</i>		<i>tong va hkz.</i>
	<i>Monday, etc.</i>		<i>dushanba va hkz.</i>
	<i>January, etc.</i>		<i>yanvar oyida va hkz.</i>
	<i>spring, etc.</i>		<i>bahorda va hkz.</i>

c)

<i>once</i> <i>twice</i> <i>three times</i> <i>etc.</i>	<i>a day</i>	-kunda	<i>bir marta</i> <i>ikki marta</i> <i>uch marta</i> <i>va hkz.</i>
	<i>a week</i>	-haftada	
	<i>a month</i>	-oyda	
	<i>a year</i>	-yilda	

➤ Qoida 3:

Odatiy, har doim takrorlanadigan oʻzgarmas ish-harakatlar *Present Simple* zamonida beriladi.



Masalan: *He gets up at 9 every morning. He doesn't get up at 9 every morning. Does he get up at 9 every morning? What time does he get up every morning? Nick always goes to school at 8. We often visit our grandparents. He usually works with paint and brushes. How often do you go to the dentist? My parents own a restaurant. How long does it take you to do your homework? He phones me once a week. From time to time Nick buys a newspaper. In general Nick doesn't like animals. In summer Nick plays tennis once or twice a week. My parents watch TV in the evenings. I go to the market on Sundays. Nurses look after patients in hospitals. I come from Canada. Where do you come from? What does this word mean? I'll go home as soon as our lesson finishes. As soon as our lesson finishes, I'll go home.*

➤ Qoida 4:

Doimiy faktlar yoki umuman rost deb qaraladigan fikrlar *Present Simple* zamonida beriladi.

Masalan: *The Sun rises in the East. The Earth goes round the Sun. Carpenters make things from wood. Oak trees grow slowly. Rice doesn't grow in cold climate. Water boils at 100^o Celsius. Students don't have much money. Dogs don't like vegetables.*

➤ Qoida 5:

Yoʻl-yoʻriq koʻrsatishda ham *Present Simple* zamonidan foydalanamiz.

Masalan: *You go down to the traffic lights, then you turn left. To start the programme, first you click on the icon on the desktop.*

➤ Qoida 6:

Hikoyalar aytishda, kitob, asar va filmlar haqida gapirilganda *Present Simple* zamonidan foydalanamiz.

Masalan: *In the film, the tea lady falls in love with the Prime Minister.*

➤ Qoida 7:

Hozirgi zamon darak va buyruq gaplarida kesimga alohida urg'u berish uchun "do" fe'lidan foydalanamiz.

Masalan: *Do come tonight. Do write me a few lines. Do be reasonable.*

A: *You don't know my brother.*

B: *But I do know him.*

➤ Qoida 8:

Quyidagilar ko'p hollarda gap boshida kelib, faqat *Present Simple* zamonda ishlatiladi:

<i>I apologise</i> (uzr so'rayman)	<i>I agree</i> (roziman)	<i>I refuse</i> (rad etaman)
<i>I advise</i> (maslahat beraman)	<i>I promise</i> (va'da beraman)	<i>I think</i> (o'ylayman)
<i>I insist</i> (talab qilaman)	<i>I suggest</i> (taklif qilaman)	...

Masalan: *I promise I won't be late. What do you suggest I do? I absolutely refuse to take part in anything illegal.*

➤ Qoida 9:

Kelasi zamondagi jadval, e'lon, kalendar bo'yicha bo'ladigan harakatlar *Present Simple* bilan beriladi. Bunda ko'pincha quyidagi fe'llar ishtirok etishi mumkin:

<i>begin</i> (boshlamog)	<i>finish</i> (tugatmog)	<i>end</i> (tugamoq)	<i>sail</i> (suzmog)	<i>fly</i> (uchmog)
<i>start</i> (boshlamog)	<i>leave</i> (jo'nab ketmog)	<i>open</i> (ochmog)	<i>be</i> (bo'lmoq)	...
<i>close</i> (yopmog)	<i>arrive</i> (yetib kelmog)	<i>return</i> (qaytib kelmog)	<i>have</i> (bor bo'lmoq)	...

Masalan: *The plane arrives tomorrow. The train leaves at 9 next morning. My yoga class begins at 10 tomorrow. Our holiday is on March 26. The concert starts next Friday. The cafe opens at 7.30 in the morning.*

➤ Qoida 10:

Quyidagilar shart va payt ergashtiruvchi bog'lovchilari bo'lib, ulardan keyin kelasi zamon ma'nosida doim *Present* zamonlari ishlatiladi. Ma'no kelasi zamonda bo'lsa ham "shall", "will", "would", "should" ishlatilmaydi.

<i>if</i> (agar)	+ <i>Present Tenses</i> (kelasi zamon ma'nosida)
<i>unless</i> (agar...masa)	
<i>on condition that</i> (sharti bilan)	
<i>providing that</i> (sharti bilan)	
<i>provided that</i> (sharti bilan)	
<i>in case</i> (har ehtimolga qarshi)	
<i>when</i> (qachonki)	
<i>while</i> (vaqtda)	
<i>before</i> (oldin)	
<i>after</i> (keyin)	
<i>as soon as</i> (bilanoq)	
<i>as long as</i> (modomiki)	
<i>so long as</i> (modomiki)	
<i>by the time</i> (-guncha)	
<i>until/till</i> (-gacha)	
<i>the next time</i> (keyingi safar)	

Masalan: *If you work hard, you will pass your exam next year. When I go shopping tomorrow, I shall buy some food. We shall phone you as soon as we get home. By the time I come home, anybody will have gone to bed. She will arrive before I come. You won't enter the university unless you study hard. I will visit my relatives when I am in London next year. Call me back as soon as you get to the destination. You can take my car providing that you drive it carefully. The next time you leave the house don't forget to lock the door. After you finish your homework, check once again before you submit it. I always take my umbrella in case it rains.*

PRESENT CONTINUOUS
(HOZIRGI DAVOMLI ZAMON)

➤ Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
<i>S+am/is/are+V_{ing}</i>	<i>S+am/is/are+not+V_{ing}</i>	<i>Am/Is/Are+S+V_{ing}?</i>	<i>Wh+am/is/are+S+V_{ing}?</i>

Masalan: *I'm studying* really hard for my exams. My cousin *isn't living* in Thailand at the moment. *Are you waiting* for your friends? *What are you doing* here? *She is learning* English nowadays. *They are staying* at the Park Hotel at present. *She is looking* for a better job. *She's always interrupting* me. *The Browns are visiting* us tonight. *His English is getting* better. *She is working* in Paris this week. *He's always asking* stupid questions. *The baby isn't sleeping* at the moment.

➤ **Signal soʻzlari:**


<i>now</i> (hozir)	<i>currently</i> (hozirda)	<i>nowadays</i> (shu kunlarda)
<i>right now</i> (ayni vaqtda)	<i>at present</i> (hozirda)	<i>today</i> (bugun)
<i>at the moment</i> (ayni vaqtda)	<i>for the time being</i> (hozirgi vaqtda)	<i>this week/month/...</i> (shu hafta/oy/...)
<i>right away</i> (ayni vaqtda)	<i>these days</i> (shu kunlarda)	<i>still</i> (hanuz)

➤ **Buyruq iboralar:**

<i>Don't disturb me!</i> (Bezovta qilmang!)	<i>Listen!</i> (Tinglang!)	<i>Shsh!</i> (Shsh!)
<i>Don't talk!</i> (Gaplasmang!)	<i>Look!</i> (Qarang!)	<i>Don't make a noise!</i> (Shovqin qilmang!)
<i>Stop!</i> (To'xtang!)	<i>Don't speak!</i> (Gaplasmang!)	

➤ **Qoida 1:**

Ayni vaqtda sodir boʻlayotgan ish-harakatlarni *Present Continuous* zamoni ifodalaydi.



Masalan: *Nick is reading a book now. Bob is still working in the garden. Stop! What are you doing, Mary? Please, don't disturb me! I'm working. Let's go out. It isn't raining any more. Are you enjoying the party? The weather forecast was good, but it is raining. Listen to those people. What languages are they speaking? My dog barks a lot, it is not barking right now.*

➤ **Qoida 2:**

Aynan hozirning oʻzida davom etayotgan harakatlarni koʻrsatishdan tashqari, *Present Continuous* hozirgi davrda boʻlayotgan ish-harakatlarni ham ifodalaydi.

Masalan: *We are learning English nowadays. My father is building a new house at present. We are preparing for the entrance exams. John wants to live in Italy, that's why he is learning Italian. I'm reading detective stories these days.*

➤ **Qoida 3:**

"Today", "tonight", "this week", "this month", "this year", "these days" kabi vaqtlar oraligʻidagi vaqtinchalik harakatlarni *Present Continuous* zamoni koʻrsatadi.

Masalan: *You are working hard today. I usually go to school through the centre but I am going through the park this week. Beckham usually plays well, but he is playing badly this season. They're staying at a hotel until they find a house.*

➤ **Qoida 4:**

"Always" (doim), "forever" (doim), "continually" (davomiy ravishda), "constantly" (muntazam) kabi soʻzlar bilan jahl, norozilik, tanbeh, shikoyat va hasadni ifodalashda *Present Continuous* zamoni ishlatiladi.

Masalan: *Nick likes sleeping. He is always coming late to school (Noroziqlik). You are always losing your key (Tanbeh). Nick and Tom are forever arguing (Shikoyat). My mum is always saying I don't help enough (Shikoyat)! Tom is constantly complaining about his neighbour (Shikoyat). He is always visiting exciting places (Hasad)!*

➤ **Qoida 5:**

Vaziyatning oʻzgarayotganligini koʻrsatish uchun *Present Continuous* zamoni ishlatiladi. Bunda asosan, quyidagi feʻllar qoʻllanilishi mumkin:

<i>get</i> (boʻlmoq)	<i>change</i> (oʻzgarmoq)	<i>become</i> (boʻlmoq)	<i>increase</i> (oʻsmoq)	<i>start</i> (boshlamoq)
<i>fall</i> (pasaymoq)	<i>grow</i> (oʻsmoq)	<i>improve</i> (rivojlanmoq)	<i>begin</i> (boshlamoq)	<i>rise</i> (oʻsmoq)

Masalan: *The population of the world is increasing. The economy of the country is getting better. My English is improving. The plants in the garden are growing very fast. Bob is starting to recover. The situation is changing.*

➤ **Qoida 6:**

Kelasi zamonda qilinishi rejalashtirilgan ish-harakatlarni *Present Continuous* zamoni ifodalaydi.

Masalan: *Is Nick coming tonight? We are visiting our grandfather next week. They're staying at a hotel when they're in London.*

A: *Can we meet on Monday?*

B: *No, I'm playing tennis with my friends.*

A: *What about Tuesday?*

B: *On Tuesday I'm going to the market with my mother.*

A: *What about Wednesday then?*

B: *On Wednesday I'm preparing for the exams.*

SIMPLE	CONTINUOUS		
<p>7. "Have" -bor, mavjud, egalik qilmoq I have a dog. Do you have a cat?</p>	7. "Have" -yordamchi fe'l vazifasida		
	have +	a sleep	-uxlamoq
		a party	-bazm qilmoq
		a shower	-dush qabul qilmoq
		a bath	-vanna qabul qilmoq
		a good/nice time	-yaxshi vaqt o'tkazmoq
		a quarrel	-janjallashmoq
		a rest	-dam olmoq
		a meal	-ovqatlanmoq
		breakfast	-nonushta qilmoq
		lunch	-tushlik qilmoq
dinner	-kechki ovqat yemoq		
etc.	va hkz.		
We are having dinner. She isn't having a shower.			
<p>8. "Look" -ko'rinmoq, tuyulmoq You look happy. She looks nice.</p> <p>* "look like" -o'xshamoq She looks like her mother.</p>	8. Look + preposition		
	look +	at	-qaramoq
		for	-qidirmoq
		up	-lug'atdan qidirmoq
		forward to	-intizorlik bilan kutmoq
		into	-tekshirmoq
		after	-g'amxo'rlik qilmoq
etc.		va hkz.	
He is looking at me. I am looking for my book. She is looking after her child. We are looking forward to hearing you soon. Police are looking into the disappearance of two children.			
<p>9. "See" -ko'rmoq I see you well. Can you see that man over there?</p>	<p>9. See-uchrashmoq, shifokorga ko'rinmoq I am seeing my friend tomorrow. She is seeing her doctor next Monday.</p>		
<p>10. "Smell", "taste", "sound" sth smell-hid taratmoq sth sound-ovoz chiqarmoq sth taste-ta'm bermoq The rose smells good. The music sounds nice. The soup tastes delicious.</p>	<p>10. "Smell", "taste", "sound" sb smell-hidlamoq sb sound-ovoz bermoq sb taste-tatib ko'rmoq He is smelling the rose. He is sounding angrily. He is tasting the soup.</p>		
<p>11. "Weigh" -og'irlikka ega bo'lmoq, vazn bosmoq I weigh 70 kilos.</p>	<p>11. "Weigh" -og'irlikni o'lchamoq I'm weighing myself</p>		

PRESENT PERFECT
(HOZIRGI TUGALLANGAN ZAMON)

➤ Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
S+have/has+V ₃	S+have/has+not+V ₃	Have/Has+S+V ₃ ?	Wh+have/has+S+V ₃ ?


Masalan: I have cut the grass. Mrs Jones has been a secretary for ten years. She has tried windsurfing. We have read three novels this week. She hasn't finished her job yet. Have you found your key? Where have they gone? She has tidied her room. They have written three letters this morning. She has spoken to two clients since 12 o'clock.

➤ Barcha Perfect signal so'zlari:

just (hozirgina)	yet (hali ham)	never (hech qachon)	since (...dan beri)	earlier (avvalroq)
already (allaqachon)	ever (hech qachon marta)	for (...davomida)	before (avval, ilgari)	...

> Qoida 1:

Asli o'tgan zamonda sodir bo'lgan, lekin sodir bo'lish vaqti ko'rsatilmagan va natijasi hozirga taalluqli bo'lgan ish-harakatlarni *Present Perfect* zamoni ifodalaydi. Bunda asosiy e'tibor harakatning sodir bo'lish vaqtiga emas, balki uning natijasiga qaratiladi.



Masalan: *Tom is looking for his key. He can't find it. He has lost it. I have forgotten your name. Is Sally here? No, she has gone out. I can't find my toy. Have you seen it? Have you done your task? Has the secretary come? The secretary hasn't come. Ow! I've cut my finger. The road is closed. There has been an accident. I have washed my hands, so I can help you.*

> Izoh:

Agar bo'lib o'tgan ish-harakatning vaqti ko'rsatilgan bo'lsa, *Past Simple* zamoni ishlatiladi.

Masalan: *I wasted a lot of time last week. (I have wasted a lot of time last week.)*

> Qoida 2:

Barcha *Perfect* signal so'zlarining gapda ishlatilishi:

1. "Just" -hozirgina

Masalan: *I've just seen Nick. Nick says he has just bought a car. It is evening. People have just returned home. He informs me that his brother has just won much money in the lottery. Jack and Bob have just had a quarrel.*

2. "Already" -allaqachon

Masalan: *He has already arrived home. It is evening. Nick has already returned.*

A: *Don't forget to send the letter.*

B: *Don't worry. I've already sent it.*

3. "Yet" -hali, hali ham, hozirgacha, haligacha (so'roq va inkor gaplarda ishlatiladi)

Masalan: *She hasn't eaten her soup yet. Has Jack arrived yet? They say that they haven't received any letter from their family yet. It's 8 o'clock. The secretary hasn't come yet.*

4. "Somebody/something have yet to do something" birikmasi haligacha bajarilmagan harakatni ifodalashda ishlatiladi.

Masalan: *I have yet to hear Ray's version of what happened. The bank has yet to respond to our letter.*

5. "Ever" -biror marta (hayoti davomida, so'roq gaplarda ishlatiladi)

Masalan: *Have you ever smoked? Has Nick ever driven a car? Have you ever visited France?*

> Izoh:

Darak gaplarda sifatning orttirma darajasi bilan ishtirok etishi mumkin.

Masalan: *He is the most famous person I have ever met. She is the most beautiful girl I have ever seen.*

6. "Never" -hech qachon

Masalan: *I've never smoked. She has never visited France. Nick says he has never drunk alcohol.*

7. Gap oxirida "before" yoki "earlier" kelsa, *Present Perfect* zamoni ishlatiladi.

Masalan: *I have never smoked before. Jack says that he hasn't read this book before.*

A: *Have you ever participated in any competitions?*

B: *Yes, of course. I have participated in many competitions earlier.*

> Qoida 3:

Agar yuqorida keltirilgan barcha *Perfect* signal so'zlari gapda biror boshqa zamon signal so'zi yoki fe'li bilan kelsa, o'sha *Perfect* zamoni ishlatiladi.

Masalan: *Nick says he has just bought a car. Nick said he had just bought a car.*

It is evening. People have already returned home. It was evening. People had already returned home.

> Qoida 4:

<i>This/It is the</i>	<i>first time</i>	+ Present Perfect
	<i>second time</i>	
	<i>third time</i>	
	<i>etc.</i>	

Masalan: *This is the first time I have visited France. It's the second time I have seen this film. Is this the third time you have driven a car? It is the second time they have visited our country. Is it the fourth time she has lied to us?*

➤ Qoida 5:

“For” biror-bir ish-harakatning qancha muddatdan beri sodir bo‘layotganligini ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

Birikmalari:

<i>for</i>	<i>2 minutes</i>	<i>-2 daqiqa</i>	<i>-dan beri</i>
	<i>3 hours</i>	<i>-3 soat</i>	
	<i>4 days</i>	<i>-4 kun</i>	
	<i>5 weeks</i>	<i>-5 hafta</i>	
	<i>6 months</i>	<i>-6 oy</i>	
	<i>7 years</i>	<i>-7 yil</i>	
	<i>8 centuries</i>	<i>-8 asr</i>	
	<i>ages</i>	<i>-ko‘p yillar</i>	
	<i>a long time</i>	<i>-uzoq vaqt</i>	

Masalan: *I have had this car for 4 months. She has lived here for 2 years. We have worked at this school for 10 years.*

➤ Izoh:

1. “For” darak gaplarda tushirib qoldirilishi ham mumkin. Ammo inkor gaplarda tushirib qoldirilmaydi.

Masalan: *They have been married (for) ten years. They haven‘t had a holiday for ten years.*

2. Inkor gaplarda “for” ning o‘rniga “in” dan foydalanishimiz mumkin.

Masalan: *They haven‘t had a holiday in ten years.*

➤ Qoida 6:

“Since” biror-bir ish-harakatning boshlangan nuqtasini ifodalab, qachondan beri bo‘layotganligini bildiradi.

Birikmalari:

<i>since</i>	<i>2 o‘clock</i>	<i>-soat 2</i>	<i>-dan beri</i>
	<i>morning/...</i>	<i>-ertalab/...</i>	
	<i>yesterday/...</i>	<i>-kecha/...</i>	
	<i>Monday/...</i>	<i>-dushanba/... kuni</i>	
	<i>last week/month/...</i>	<i>-o‘tgan hafta/oy/...</i>	
	<i>April/...</i>	<i>-aprel/... oyi</i>	
	<i>spring/...</i>	<i>-bahor/...</i>	
	<i>2015/...</i>	<i>-2015/...yil</i>	
	<i>19th century</i>	<i>-XIX asr</i>	
	<i>Navruz/Eid/...</i>	<i>-Navro‘z/Hayit/...</i>	
	<i>my childhood</i>	<i>-bolaligim</i>	
	<i>then</i>	<i>-o‘sha(n)</i>	
	<i>that time</i>	<i>-o‘sha vaqt</i>	
	<i>S + V₂</i>	<i>-biror kishi biror narsa qilgani</i>	

Masalan: *It is October. I haven‘t seen Jack since March. She has lived here since last year. Abdulla hasn‘t written to me since Navruz. They haven‘t studied English since 1990. I haven‘t smoked since my childhood.*

➤ Qoida 7:

<i>Present Perfect (Continuous)</i>	<i>+ since</i>	<i>+ Past Simple</i>
-------------------------------------	----------------	----------------------

Masalan: *I have not seen you since you arrived in Tashkent. They have not quarreled since they married.*

➤ Qoida 8:

<i>It is/has been</i>	<i>+ time words</i>	<i>+ since</i>	<i>+ Past Simple</i>
-----------------------	---------------------	----------------	----------------------

Masalan: *It is two years since I last saw Joe. It has been two years since I last saw Joe. It’s been ages since we went to the cinema. How long is it since Mrs Hill died? It’s six years since I smoked. It’s been five months since I attended English courses.*

➤ Qoida 9:

<i>Present Perfect (Continuous)</i>	<i>in the</i>	<i>last/past</i>	<i>2 days</i>	<i>-o‘tgan...davomida</i>
	<i>over the</i>		<i>3 weeks</i>	
	<i>during the</i>		<i>4 months</i>	
	<i>for the</i>		<i>5 years</i>	

Masalan: *I haven‘t seen Nick in the past 2 months. She hasn‘t come to school for the last 2 weeks. I have been waiting for Nick over the past 20 minutes. Anvar has been learning English during the last 2 months.*

> Qoida 10:

“Recently”-yaqinda

Masalan: *I have recently seen Nick. Tom says that Nick has recently bought a car.*

> Istisno:

Agar gap egasidan keyin darhol “recently” ravishi kelsa, bunday gapning kesimi *Past Simple* zamonda beriladi.

S	+ recently	+ Past Simple
---	------------	---------------

Masalan: *I recently bought a new car. They recently finished building the supermarket.*

> Qoida 11:

“Lately”-oxirgi paytlarda

Masalan: *Have you seen a new film lately? I haven't seen Nick lately. John says that he has smoked much lately.*

> Qoida 12:

“So far” -shu vaqtgacha, hozirgacha

Masalan: *Haven't you been to Italy so far? I have read two books so far. Nick says he hasn't finished his book so far.*

> Izoh:

Garchi “until now” ham “shu vaqtgacha”, “hozirgacha” deb tarjima qilinsa ham, “so far” bilan farqi mavjud. “So far” hozirgacha o'zgarib davom etib kelgan ish-harakatga nisbatan ishlatilsa, “until now” hozirgina tugagan yoki o'zgargan ish-harakatga nisbatan ishlatiladi.

Masalan: *Until now I had no one to tell things to (=I now have someone to tell things to). So far no one has claimed responsibility for the bombs.*

> Qoida 13:

Present Perfect +	up to now	- hozirgacha
	up till now	
	by now	

Masalan: *I have read two books up to now. We haven't seen her by now. She has visited a lot of countries up till now.*

> Qoida 14:

1. “...been to” -borib kelgan, bo'lgan

Masalan: *Jack is at home now. He has been to the library. Sarah is back now. She has been to Italy.*

2. “...gone to” -ketgan (lekin hali qaytmagan)

Masalan: *Jack is away now. He has gone to Italy. Sarah isn't at home. She has gone to the market.*

3. “...been in” -...da, biror yerda (ma'lum vaqtdan beri)

Masalan: *She has been in Moscow for a week.*

> Qoida 15:

“Today”, “this morning”, “this week”, “this month”, “this year”, “this season” kabi payt ravishlari *Present Perfect* zamonida ham ishlatilishi mumkin. Bunda ko'rsatilgan vaqt muddati tugallanmaganligi va bajarilgan ish-harakatning natijasi hali o'zgarishi mumkinligi nazarda tutiladi.

Masalan: *I have written a rough plan this morning (hali ham ertalab). Jack hasn't phoned me this week (hafta hali tugamagan). I have eaten three sandwiches today (kun hali tugamagan va yana yeyishi mumkin).*

> Qoida 16:

Harakatlar necha marta yoki qancha miqdorda bajarilganligini ko'rsatish uchun *Present Perfect* zamoni ishlatiladi.

1. Necha marta: *once, twice, three times, four times, many times...*

Masalan: *I have read this book twice. She has won the championship three times.*

2. Qancha miqdorda:

Masalan: *I have read six books. She has won three cups.*

HAVE (GOT)
(BOR)

> Qoida 1:

“Have” yoki “have got” birikmasi “bor bo'lmoq”, “ega bo'lmoq” ma'nolarini anglatadi. Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
S+have/has got+noun	S+have/has+not+got+noun	Have/Has+S+got+noun?	Wh+have/has+S+got?

Masalan: *They have got a new car. I haven't got any money. Have you got good friends? What have they got in their bags?*

> Izoh:

“Has got” uchinchi shaxs birlik “he/she/it” bilan ishlatiladi.

Masalan: *Our house has got a small garden. Lisa hasn't got a brother. Has your father got a car? What has she got in her bag?*

➤ Qoida 10:

“Recently”-yaqinda

Masalan: *I have recently seen Nick. Tom says that Nick has recently bought a car.*

➤ Istisno:

Agar gap egasidan keyin darhol “recently” ravishi kelsa, bunday gapning kesimi *Past Simple* zamonda beriladi.

S	+ recently	+ <i>Past Simple</i>
---	------------	----------------------

Masalan: *I recently bought a new car. They recently finished building the supermarket.*

➤ Qoida 11:

“Lately”-oxirgi paytlarda

Masalan: *Have you seen a new film lately? I haven't seen Nick lately. John says that he has smoked much lately.*

➤ Qoida 12:

“So far” -shu vaqtgacha, hozirgacha

Masalan: *Haven't you been to Italy so far? I have read two books so far. Nick says he hasn't finished his book so far.*

➤ Izoh:

Garchi “until now” ham “shu vaqtgacha”, “hozirgacha” deb tarjima qilinsa ham, “so far” bilan farqi mavjud. “So far” hozirgacha o‘zgarib davom etib kelgan ish-harakatga nisbatan ishlatilsa, “until now” hozirgina tugagan yoki o‘zgarib ish-harakatga nisbatan ishlatiladi.

Masalan: *Until now I had no one to tell things to (=I now have someone to tell things to). So far no one has claimed responsibility for the bombs.*

➤ Qoida 13:

<i>Present Perfect +</i>	<i>up to now</i>	- hozirgacha
	<i>up till now</i>	
	<i>by now</i>	

Masalan: *I have read two books up to now. We haven't seen her by now. She has visited a lot of countries up till now.*

➤ Qoida 14:

1. “...been to” -borib kelgan, bo‘lgan

Masalan: *Jack is at home now. He has been to the library. Sarah is back now. She has been to Italy.*

2. “...gone to” -ketgan (lekin hali qaytmagan)

Masalan: *Jack is away now. He has gone to Italy. Sarah isn't at home. She has gone to the market.*

3. “...been in” -...da, biror yerda (ma’lum vaqtdan beri)

Masalan: *She has been in Moscow for a week.*

➤ Qoida 15:

“Today”, “this morning”, “this week”, “this month”, “this year”, “this season” kabi payt ravishlari *Present Perfect* zamonida ham ishlatilishi mumkin. Bunda ko‘rsatilgan vaqt muddati tugallanmaganligi va bajarilgan ish-harakatning natijasi hali o‘zgarishi mumkinligi nazarda tutiladi.

Masalan: *I have written a rough plan this morning (hali ham ertalab). Jack hasn't phoned me this week (hafta hali tugamagan). I have eaten three sandwiches today (kun hali tugamagan va yana yeyishi mumkin).*

➤ Qoida 16:

Harakatlar necha marta yoki qancha miqdorda bajarilganligini ko‘rsatish uchun *Present Perfect* zamoni ishlatiladi.

1. Necha marta: *once, twice, three times, four times, many times...*

Masalan: *I have read this book twice. She has won the championship three times.*

2. Qancha miqdorda:

Masalan: *I have read six books. She has won three cups.*

HAVE (GOT)
(BOR)

➤ Qoida 1:

“Have” yoki “have got” birikmasi “bor bo‘lmoq”, “ega bo‘lmoq” ma’nolarini anglatadi. Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
<i>S+have/has got+noun</i>	<i>S+have/has+not+got+noun</i>	<i>Have/Has+S+got+noun?</i>	<i>Wh+have/has+S+got?</i>

Masalan: *They have got a new car. I haven't got any money. Have you got good friends? What have they got in their bags?*

➤ Izoh:

“Has got” uchinchi shaxs birlik “he/she/it” bilan ishlatiladi.

Masalan: *Our house has got a small garden. Lisa hasn't got a brother. Has your father got a car? What has she got in her bag?*

➤ Qoida 2:

“*Bor bo‘lmoq*”, “*ega bo‘lmoq*” ma’nolarida “*have*”/“*has*” ning o‘zi ham ishlatilishi mumkin. Faqat bunda so‘roq va inkor shakllari yasalishida farq bo‘ladi. Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
<i>S+have/has+noun</i>	<i>S+don't/doesn't+have+noun</i>	<i>Do/Does+S+have+noun?</i>	<i>Wh+do/does+S+have?</i>

Masalan: *They have a new car. She doesn't have any money. Do you have good friends? What does she have in her pocket?*

➤ Izoh:

Inkor shakli “*have/has + no + noun*” strukturasi asosida ham berilishi mumkin.

Masalan: *I have no friend. She has no money in her pocket. The garden has no trees at all.*

➤ Qoida 3:

O‘tgan zamonda “*bor edi*”, “*ega edi*” ma’nosida “*had*” ishlatiladi. Lekin norasmiy uslubda “*had got*” ham ishlatilishi mumkin. Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
<i>S+had+noun</i>	<i>S+didn't+have+noun</i>	<i>Did+S+have+noun?</i>	<i>Wh+did+S+have?</i>

Masalan: *When I was young, I had a beautiful red car. Did you have any friends when you lived in Paris? I didn't have my phone with me, so I couldn't call you. Lisa had long hair, didn't she? What did you have in your pocket when he asked?*

➤ Izoh:

Inkor shakli “*had + no + noun*” strukturasi asosida ham berilishi mumkin.

Masalan: *Tom had no friends when he started attending school. The garden had no trees at all.*

➤ Qoida 4:

Kelasi zamonda “*bor bo‘lmoq*”, “*ega bo‘lmoq*” ma’nosida “*will have*” ishlatiladi. Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
<i>S+will+have+noun</i>	<i>S+will+not+have+noun</i>	<i>Will+S+have+noun?</i>	<i>Wh+will+S+have?</i>

Masalan: *When I become adult, I will have a beautiful red car. Will you have any friends when you are in Paris?*

➤ Izoh:

Inkor shakli “*will + have + no + noun*” strukturasi asosida ham berilishi mumkin.

Masalan: *Jack will have no friends at all if his relationship with his friends continues to drift apart.*

➤ Qoida 5:

“*Have*” yordamchi fe‘l sifatida quyidagi so‘zlar bilan birikma hosil qilishi ham mumkin:

<i>have +</i>	<i>breakfast</i> (nonushta qilmoq)/ <i>dinner/supper</i> (kechki ovqat yemoq)/ <i>lunch</i> (tushlik qilmoq)/ <i>a cup of tea</i> (bir piyola choy ichmoq)/ <i>something to eat</i> (biror nima yemoq)/ <i>a meal</i> (ovqatlanmoq)/ <i>a drink</i> (ichimlik ichmoq)/ <i>a sandwich</i> (sendvich yemoq)/ <i>an ice cream</i> (muzqaymoq yemoq)/ <i>some cheese</i> (pishloq yemoq)/ etc.
	<i>a bath</i> (vanna qabul qilmoq)/ <i>a shower</i> (dush qabul qilmoq)/ <i>a swim</i> (suzmoq)/ <i>a sauna</i> (sauna qilmoq)/ <i>a break</i> (tanaffus qilmoq)/ <i>a rest</i> (dam olmoq)/ <i>a party</i> (bazzm qilmoq)/ <i>a holiday</i> (ta‘til olmoq)/ <i>an accident</i> (halokatga uchramoq)/ <i>an experience</i> (tajriba qilmoq)/ <i>a dream</i> (tush ko‘rmoq)/ <i>a competition</i> (musobaqada qatnashmoq)/ <i>a meeting</i> (majlisda qatnashmoq)/ <i>a game</i> (o‘ynamoq)/ etc.
	<i>a look at</i> (qaramoq)/ <i>a go</i> (haydab/minib ko‘rmoq)/ <i>a journey</i> (sayohat qilmoq)/ etc.
	<i>a word</i> (bir og‘iz gaplashmoq)/ <i>a chat</i> (suhbatlashmoq)/ <i>a discussion</i> (munozara qilmoq)/ <i>a conversation</i> (suhbatlashmoq)/ <i>a talk</i> (gaplashmoq)/ <i>a quarrel</i> (janjallashmoq)/ <i>a moment</i> (bir daqiqa vaqti bo‘lmoq)/ <i>a good time</i> (yaxshi vaqt o‘tkazmoq)/ <i>the time</i> (vaqti bo‘lmoq)/ etc.
	<i>trouble</i> (muammoga uchramoq)/ <i>difficulty</i> (qiyinchilikka uchramoq)/ <i>fun</i> (vaqtichog‘lik qilmoq)/ etc.
	<i>a baby</i> (tug‘moq)/ etc.
	<i>a lesson</i> (darsi bo‘lmoq)/ <i>an exam</i> (imtihon topshirmoq)/ <i>homework</i> (uyga vazifani qilmoq)/ <i>an appointment</i> (uchrashuvi bo‘lmoq)/ <i>a course</i> (kursga bormoq)/ etc.

Masalan: *Sometimes I have a sandwich for my lunch. Mike is having a shower at the moment. I don't usually have a big breakfast. What time does Chris have lunch? Did you have trouble finding a place to live?*

PRESENT PERFECT CONTINUOUS
(HOZIRGI TUGALLANGAN DAVOMLI ZAMON)

➤ Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
<i>S+have/has+been+V_{ing}</i>	<i>S+have/has+not+been+V_{ing}</i>	<i>Have/Has+S+been+V_{ing}?</i>	<i>Wh+have/has+S+been+V_{ing}?</i>

Masalan: *I have been writing a letter for two hours. Her eyes are red and wet. She has been crying. Who has been using my hairbrush? They have been speaking in the office for the last hour. He has been washing his bike for an hour. He has been fighting. That's why he has got a black eye. Someone has been using my laptop. She has been waiting since 4 o'clock.*

> Signal soʻzlari:

a)


for (...dan beri)	since (...dan beri)	how long (qancha muddat/masofa)	since when (qachondan beri)
-------------------	---------------------	---------------------------------	-----------------------------

b)

all day	+ (long)	-butun	kun davomida
all week			hafta davomida
all month			oy davomida
all year			yil davomida
all my life			hayotim davomida

> Qoida 1:

Oʻtgan zamonda boshlangan ish-harakat davom etib kelib, hozirgina tugaganligini *Present Perfect Continuous* zamoni koʻrsatadi. Bunda asosan, hozirgina toʻxtatilgan ish-harakat taʼsiri natijasida qoldirilgan qandaydir belgi va ishora aytib oʻtiladi yoki nazarda tutiladi.



Masalan: *You look tired. Have you been walking? You are out of breath. Have you been running? My hands are dirty. I have been repairing my car. Your shoes are dirty. Have you been walking in the forest? The ground is wet now. It has been raining. He has been fighting. That's why he has got a black eye. Her eyes are red and wet. She has been crying.*

> Qoida 2:

Oʻtgan zamonda boshlangan harakat davom etib kelib, hozir ham davom etayotganligini *Present Perfect Continuous* zamoni koʻrsatadi. Ahamiyatlisi harakat qachon boshlanganligi yoki qanchadan buyon davom etayotganligidir.

Masalan: *How long have you been learning English? She has been working for 2 hours. They have been travelling in Europe since October. He has been painting his house all summer. I have been learning English for 4 years. It is evening. It has been raining for 2 hours. Tom has been watching TV all day long. Jane is a good tennis player. She has been playing tennis since she was 8. Have you been waiting long? Since when have you been driving a car?*

> Qoida 3:

Oʻtgan zamonda boshlanib hozirga qadar davom etib kelayotgan va kishining jahl, norozilik va tanqidiga sabab boʻladigan gaplar ham asosan *Present Perfect Continuous*da beriladi.

Masalan: *Who has been using my hairbrush? Someone has been using my laptop.*

> Qoida 4:

Continuous zamonlarida ishlatilmaydigan feʼllar (*Present Continuous* 8-qoida) bilan *Present Perfect Continuous* oʻrniga *Present Perfect* zamoni ishlatiladi.

Masalan: *I have wanted to travel in Europe since my childhood. How long have you known Bob? I haven't seen him for 2 days.*

> Qoida 5:

a)

<i>Present Perfect (Continuous)</i>	+ since	+ Past Simple
-------------------------------------	---------	---------------

Masalan: *I have been working here since I came to the town. They haven't quarreled since they married last year.*

b)

Since	+ Past Simple	+ Present Perfect (Continuous)
-------	---------------	--------------------------------

Masalan: *Since I came to the town, I have been working here. Since they married last year, they haven't quarreled.*

> Qoida 6:

Present Continuous va *Present Perfect Continuous* zamonlarining farqi:

PRESENT CONTINUOUS	PRESENT PERFECT CONTINUOUS
<i>I'm writing a letter now.</i>	<i>I have been writing the letter for 2 hours.</i>
<i>Tom is a pilot. He is working in British Airways.</i>	<i>He has been working in British Airways since 1996.</i>

PAST SIMPLE
(O'TGAN ODDIY ZAMON)

➤ **Qoida 1:**

O'tgan oddiy - *Past Simple* zamonda ham gaplar kesimi qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra ikkiga - *ot-kesimli* va *fe'l-kesimli* gaplarga bo'linadi.

OT-KESIMLI GAPLAR

➤ **Qoida 2:**

Ot-kesimli gaplarning kesimi fe'ldan boshqa so'z turkumlari: ot, sifat, son, ravish va olmosh bilan ifodalanadi. Bunday gaplarda bog'lovchi fe'l sifatida "to be" fe'lining o'tgan zamon shakllari "was"/"were" ishlatiladi. Ular birov-bir shaxs yoki narsa haqida uning kimligi, nimaligi, qandayligi, yoshi, rangi, millati va shu kabi xususiyatlariga ta'rif berilganda ishlatiladi. Bu holatda "to be" fe'ldan keyin fe'ldan tashqari barcha so'z turkumlari ishlatiladi. Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
<i>S+was/were+adj/noun/...</i>	<i>S+was/were+not+adj/noun/...</i>	<i>Was/Were+S+adj/noun/...?</i>	<i>Wh+was/were+S?</i>

Masalan: *I was a student. She was beautiful. Tom was an engineer. Jack was 18. They were clever people. Jane was not rude. She was kind. Tom and Bob were not friends. Was she beautiful? Were they engineers? What was that? Who were they? Where was your brother? What kind of person was Jane? Why weren't Tom and Bob friends?*

FE'L-KESIMLI GAPLAR

➤ **Qoida 1:**

Fe'l-kesimli gaplarning kesimi fe'l bilan ifodalanadi va ish-harakatning bajarilishini bildiradi. Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
<i>S+V₂</i>	<i>S+did+not+V₁</i>	<i>Did+S+V₁?</i>	<i>Wh+did+S+V₁?</i>

Masalan: *I work in a travel agency now. Before that I worked in a department store. We invited them to our party, but they decided not to come. The police stopped me on my way home last night. Laura passed her examination last month.*

➤ **Qoida 2:**

1. "Who" so'roq olmoshi ega vazifasida "kim", to'ldiruvchi vazifasida "kimni", "kinga", "kim bilan", "kim uchun", "kimdan", "kim haqida" ma'nolarini anglatadi. "Who" so'roq olmoshining gapda ega yoki to'ldiruvchi ekanligi gapning tuzilishiga qarab aniqlanadi.

2. Egaga savol berishda "who" dan keyin darhol kesim keladi.

Who + V₂?

Masalan: *Who had a dictionary? Who knew his phone number? Who wanted to go with me? Who opened the door? Who phoned last night? Who came to the concert yesterday? Who sent the letter yesterday?*

3. To'ldiruvchiga savol berishda "who" dan keyin yordamchi fe'l "did" keladi. Agar fe'l predlogli bo'lsa, predlog gapning oxirida yoki boshida kelishi mumkin.

a)

Who + did + S + V₁ + preposition?

Masalan: *Who did you go to school with? Who did you want to buy these flowers for?*

b)

Preposition + whom + did + S + V₁?

Masalan: *With whom did you go to school? For whom did you want to buy these flowers?*

4. To'ldiruvchiga savol berishda kesim predlogsiz fe'l bilan ifodalangan bo'lsa, quyidagicha holatda bo'ladi:

Who/whom + did + S + V₁?


Masalan: *Who did you meet at school? Whom did they call at night? Whom did he send to do the shopping?*

➤ **Signal so'zlari:**

<i>just now (hozirgina)</i>	<i>that time (o'sha vaqtda)</i>	<i>in March (mart oyida)</i>
<i>yesterday (kecha)</i>	<i>that day (o'sha kuni)</i>	<i>in 1990 (1990-yilda)</i>
<i>ago (avval)</i>	<i>once (bir paytlar)</i>	<i>from 1990 to 1995 (1990-yildan 1995-yilgacha)</i>
<i>then (o'shanda)</i>	<i>at 5 today (bugun soat 5 da)</i>	<i>during the war (urush paytida)</i>
<i>the other day (o'tgan kuni)</i>	<i>on Monday (dushanba kuni)</i>	<i>last week/month/year/... (o'tgan hafta/oy/yil...)</i>

> Qoida 3:

O'tgan zamonda aniq bir vaqtda sodir bo'lib, tugallangan harakat va holatni *Past Simple* zamoni ifodalaydi. Odatda bir martalik ish-harakat ifodalanadi va vaqt ko'rsatiladi.



Masalan: *She had a headache yesterday. She did the task last night. I didn't have time to visit the Eiffel Tower then. Did you have a bike when you were a child? I saw Nick the other day. Benjamin lived in Paris from 1990 to 1994. John Cabot sailed to the USA in 1498. Mr Tompson died last year. She sent me a letter 6 days ago. Did you go out last night or were you tired?*

> Qoida 4:

O'tgan zamonda sodir bo'lganligi so'zlovchi va tinglovchiga allaqachon ma'lum bo'lgan gaplarda vaqt ko'rsatilmasa ham bo'ladi va *Past Simple* zamoni ishlatiladi.

Masalan: *How did the burglar break in without anybody hearing him? Popov invented the radio. Did Shakespeare write many plays? Jack London wrote many novels. The Chinese invented printing. She forgot to invite her friends to her wedding.*

> Qoida 5:

O'tgan zamonda ketma-ket sodir bo'lgan ish-harakatlarni *Past Simple* zamoni ko'rsatadi va ko'pincha "next" (keyin), "then" (keyin) kabi so'zlar ishlatiladi.

Masalan: *The burglar came in through the front door, picked up the woman's handbag, emptied it out and stole her purse. Then, the burglar went into the front room, opened all the cupboards and took a valuable collection of CDs.*

> Qoida 6:

O'tgan zamonda odatiy, takroriy harakatni va shuningdek ortiq rost bo'lmagan harakatlarni *Past Simple* ko'rsatadi.

Masalan: *Last year I bought newspapers each morning. Nick smoked much ten years ago. When her son got older, he often went out to visit his friends after school. Explorers at that time believed that the world was flat.*

> Qoida 7:

O'tgan zamonda kesimga alohida urg'u berish uchun "did" fe'lidan foydalaniladi.

Masalan:

A: *Why didn't you clean the room yesterday?*

B: *But I did clean it.*

> Qoida 8:

Present Perfect va *Past Simple* zamonlarining farqi:

1.

PRESENT PERFECT	PAST SIMPLE
(Tugagan, vaqti ko'rsatilmagan va natijasi hozir ko'rinib turgan harakat)	(Tugagan, vaqti ko'rsatilgan va natijasi hozirga bog'liq bo'lmagan harakat)
<i>John is looking for his key. He can't find it. He has lost his key. (Jonda hozir kalit yo'q.)</i>	<i>(Ten minutes later) Now John has found his key. He has it now. Has he lost his key? No, he has found it. Did he lose his key? Yes, he did. He lost his key but now he has found it.</i>
(Yaqinda sodir bo'lgan ish-harakatlar uchun) <i>"I've repaired the washing machine. It's working OK now." "Oh, that's good." "Sally has had a baby. It's a boy." "That's great news." Tom has lost his key. He can't get into the house.</i>	(Ancha oldin sodir bo'lgan ish-harakatlar uchun) <i>Mozart was a composer. He wrote more than 600 pieces of music. My mother grew up in Italy. Tom lost his key yesterday. He couldn't get into the house.</i>
(Hozirga qadar davom etayotgan vaqt oralig'ida sodir bo'ladigan ish-harakatlar uchun) <i>I have done a lot of work today. Have you seen Ann this morning? (Hali ham ertalab) We've been waiting for an hour. (Hali ham kutyapti) Jack lives in Los Angeles. He has lived there for seven years.</i>	(O'tib ketgan vaqt oralig'ida sodir bo'ladigan ish-harakatlar uchun) <i>I did a lot of work yesterday. Did you see Ann this morning? (Ertalab o'tib ketdi) We waited for an hour. (Ortiq kutmayapti) Jack lived in New York for ten years. Now he lives in Paris.</i>
(Ta'tilning so'nggi kunida) <i>It's been really good holiday. I've really enjoyed it.</i>	(Ta'tildan kelgandan so'ng) <i>It was a really good holiday. I really enjoyed it.</i>

2. "When", "what time" bilan so'roq berilganda *Past Simple* zamoni ishlatiladi.

Masalan: *When did you come? When did Mr Tompson die? What time did you get there?*

3. Vaqti ko'rsatilmagan tugagan harakat haqida birinchi marta gapirilsa, *Present Perfect*, agar fikr davom etsa *Past Simple* zamoni ishlatiladi.

Masalan:

A: *Oh! I've burnt myself.*

B: *How did you do it?*

A: *I picked up a hot dish.*

4. *Present Perfect* va *Past Simple* da "for" ning ishlatilishi:

PRESENT PERFECT	PAST SIMPLE
<i>Bill Murphy has worked for the police force for over seventeen years. (Hali ham ishlaydi)</i>	<i>Bill Murphy worked for the police force for over seventeen years. (Ilgari ishlagan)</i>
<i>I have lived in Tashkent for 3 years. (Hali ham yashaydi)</i>	<i>I lived in Tashkent for 3 years. (Ilgari yashagan)</i>

USED TO (QILARDI)

➤ Qoida 1:

O'tgan zamonda odatiy, takroriy ravishda bo'lgan, lekin hozir bo'lmaydigan ish-harakatni "used to + V₁" ko'rsatib, "qilar edi" ma'nosini beradi. Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE
<i>S+used to+V₁</i>	<i>S+didn't+use to+V₁</i>	<i>Did+S+use to+V₁?</i>

Masalan: *used to smoke (chekar edi), used to go (borar edi), used to swim (cho'milar edi), etc. I used to go to work by car, but this week I'm going by bike. I used to play tennis a lot, but I don't have enough time now.*

A: *Do you like to play tennis?*

B: *I used to when I lived in Manchester, but now I don't.*

➤ Izoh:

Inkor shakli "used not to + V₁" holatida ham yasalishi mumkin.

Masalan: *I used not to like him./I didn't use to like him.*

➤ Qoida 2:

"Used to" harakat qancha davom etganligi ko'rsatilgan gaplarda ishlatilmaydi. Uning o'rniga *Past Simple* ishlatiladi.

Masalan: *Bill Murphy worked (used to work) for the police force for over seventeen years.*

➤ Qoida 3:

"Used to" ning o'rniga ba'zida "would" ham ishlatilishi mumkin. Lekin ular orasida quyidagicha farq mavjud:

1. "Used to" o'tgan zamonda odatiy, takroriy ravishda sodir bo'lgan, lekin hozirda ortiq sodir bo'lmaydigan harakatlarni ifodalashda ishlatilsa, "would" ko'pincha o'tgan zamondagi voqea-hodisalar hikoya qilib aytilganda ishlatiladi.

Masalan: *Bill Murphy used to work for the police force. But he doesn't now. I used to eat much meat, but now I am a vegetarian. Nick used to be rich, but now he is poor. She would (used to) leave the door unlocked whenever she was at home. We used to live next to a railway line. Every time the train went past, the whole house would shake.*

2. "Would" inkor va so'roq gaplarda ishlatilmaydi. Uning o'rniga "used to" ishlatiladi.

Masalan: *I didn't use to smoke but I can't help smoking now. (I wouldn't smoke but I can't help smoking now.) Did you use to work hard when you were a student? (Would you work hard when you were a student?)*

3. "Would" holat fe'llari (*Present Continuous 8-qoida*) bilan ishlatilmaydi.

Masalan: *I used to love her but I don't any more. (I would love her but ...)*

BE/GET USED TO (ODATLANIB QOLMOQ)

➤ Qoida 1:

"Be/get used to" birikmasi biror narsaga "o'rganib qolmoq", "ko'nikib qolmoq", "odatlanib qolmoq" ma'nolarini anglatadi. Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE
<i>S+am/is/are+used to+noun</i>	<i>S+am/is/are+not+used to+noun</i>	<i>Am/Is/Are+S+used to+noun?</i>
<i>S+get+used to+noun</i>	<i>S+do/does+not+get+used to+noun</i>	<i>Do/Does+S+get+used to+noun?</i>

Masalan: *I am used to the weather in this country. Jack isn't used to cigarettes. I bought new shoes last week. At first, they seemed strange because I wasn't used to them. After some time I got used to them. Jack lives alone. He is used to this.*

➤ Qoida 2:

“Be/get used to doing” birikmasi biror harakatni qilishga “o‘rganib qolmoq”, “ko‘nikib qolmoq”, “odatlanib qolmoq” ma‘nolarini anglatadi. Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE
S+am/is/are+used to+V _{ing}	S+am/is/are+not+used to+V _{ing}	Am/Is/Are+S+used to+V _{ing} ?
S+get+used to+V _{ing}	S+do/does+not+get+used to+V _{ing}	Do/Does+S+get+used to+V _{ing} ?

Masalan: Many people are getting used to playing computer games nowadays. I'm not used to driving on the right. When Nick came to London, he wasn't used to driving on the right, but after some practice, he got used to driving on the right.

PAST CONTINUOUS
(O‘TGAN DAVOMLI ZAMON)

➤ Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
S+was/were+V _{ing}	S+was/were+not+V _{ing}	Was/Were+S+V _{ing} ?	Wh+was/were+S+V _{ing} ?


Masalan: At 1 o'clock this afternoon they were having coffee. I was playing football when I broke my ankle. She wasn't cooking while he was sleeping. Was he playing tennis at 4.30 yesterday? While I was getting dressed, the bell rang.

➤ Signal so‘zlari:

at 5 yesterday (kecha soat 5 da)	this time last week/... (o‘tgan hafta shu vaqtda)	at that moment (ayni o‘sha vaqtda)
at that time (o‘sha vaqtda)	still at 6 (soat 6 da hali ham)	...

➤ Qoida 1:

O‘tgan zamonda aniq bir paytda davom etayotgan harakatni ko‘rsatadi.



Masalan: We were playing tennis at 5 o'clock yesterday. This time last year I was living in Brazil. It was morning. The sun was shining and the birds were singing. What were you doing at 9 o'clock last night?

➤ Izoh:

Agar kesim uyushib kelsa, “to be” tushib qolishi mumkin.

Masalan: I saw you in the park yesterday. You were sitting on the grass and reading a book.

➤ Qoida 2:

Continuous zamonlarida ishlatilmaydigan fe‘llar (Present Continuous 8-qoida) bilan Past Continuous o‘rniga Past Simple zamoni ishlatiladi.

Masalan: We were good friends. We knew each other very well. Tom was enjoying the party but I wanted to go home.

➤ Qoida 3:

O‘tgan zamonda bir ish-harakat sodir bo‘lgan yoki bo‘layotgan paytda, boshqa bir harakat sodir bo‘lgan yoki bo‘layotganligini ko‘rsatishda “when”, “while”, “as” (-ganda, paytda) payt ergash gap bog‘lovchilaridan foydalaniladi.

1. O‘tgan zamonda bir ish-harakat sodir bo‘lgan paytda, boshqa bir ish-harakat sodir bo‘lish holati:

When	+ Past Simple	,	+ Past Simple
------	---------------	---	---------------

Masalan: When the family came here from Russia, they were penniless. I opened the door when someone knocked on it.

2. O‘tgan zamonda bir ish-harakat sodir bo‘lgan paytda, boshqa bir ish-harakat sodir bo‘layotganlik holati:

When	+ Past Simple	,	+ Past Continuous
------	---------------	---	-------------------

Masalan: When it started to rain, we were playing football. I was having a beautiful dream when the alarm clock rang. They were waiting for the bus when the accident happened. When the fire started, we were watching TV.

3. O‘tgan zamonda bir ish-harakat sodir bo‘layotgan paytda, boshqa bir ish-harakat sodir bo‘lish holati:

When/While	+ Past Continuous	,	+ Past Simple
------------	-------------------	---	---------------

Masalan: When I was going to work this morning, I bumped into my old friend. I hurt my back as I was working in the garden. While Caroline was skiing, she broke her leg. Tom burnt his hand as he was cooking. While I was painting the ceiling, I fell off the ladder. They arrived while we were having dinner.

4. O'tgan zamonda bir ish-harakat sodir bo'layotgan paytda, boshqa bir ish-harakat sodir bo'layotganligi holatini ifodalashda asosan "while" yoki "as" bog'lovchilaridan foydalaniladi. Chunki, *Past Continuous* zamonining asosan "while" yoki "as" payt ergashtiruvchi bog'lovchilaridan keyin ishlatilish holati afzalroq bo'lib, bu kabi gaplarda asosan ikkita shaxs ishtirok etadi:

<i>While</i>	+ <i>Past Continuous</i>	,	+ <i>Past Continuous</i>
--------------	--------------------------	---	--------------------------

Masalan: *While Nick was sleeping, I was talking on the phone. Bob was questioning his teacher while she was explaining the subject. While Tom was painting the wall of the room, his sister was cleaning the floor.*

➤ Izoh:

a) agar bunday gaplarning har ikkala qismida bitta shaxs ishtirok etsa, o'sha shaxs bir vaqtda sodir bo'layotgan har ikki ish-harakatni bir vaqtda bajarishga qodir bo'lishi shart.

Masalan: *While Bob was coming home from work, he was talking on the phone* ("Bob ishdan uyga kelayotganda telefonda gaplashayotgan edi" - bu holatda Bob har ikki ish-harakat - "kelmoq" va "gaplashmoq" ni bir vaqtda bajarishi mumkin). *The man was thinking about his wife while he was driving his lorry. He was being rude while he was speaking to me.*

b) o'tgan zamonda bir vaqtda sodir bo'layotgan ikki ish-harakatni bir shaxs bir vaqtda bajarishga qodir bo'lsa, bunda "while" payt ergashtiruvchi bog'lovchisining o'rniga "and" teng bog'lovchisi ham ishlatilishi mumkin.

Masalan: *He was listening to music and working on his computer.*

c) ba'zi hollarda bir shaxs bir vaqtda sodir bo'layotgan har ikki ish-harakatni bir vaqtda bajarishga qodir bo'la olmaydi.

Masalan: *While Tom was painting the wall of the room, he was cleaning the floor* ("Tom xonasining devorini bo'yayotganda uning polini artayotgan edi" - bu holatda Tom har ikki ish-harakat - "bo'yamoq" va "artmoq" ni bir vaqtda bajarishga jismonan qodir bo'la olmaydi. Shuning uchun bu kabi gaplar ma'no jihatdan noto'g'ri hisoblanadi va "While Tom was painting the wall of the room, his sister was cleaning the floor" kabi tuzilishi ma'noga ega bo'ladi). *While Nick was sleeping, I was talking on the phone.*

PAST PERFECT (O'TGAN TUGALLANGAN ZAMON)

➤ Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
$S+had+V_3$	$S+had+not+V_3$	$Had+S+V_3?$	$Wh+had+S+V_3?$


Masalan: *He had left by the time I got there. She was sad because she hadn't passed the test. He couldn't find his watch. Had he lost it? Why had she already cooked dinner when her husband came home? There was no pudding left. He had eaten it all.*

➤ Signal so'zlari:

<i>by +</i>	<i>yesterday</i>	-kecha	-ga qadar
	<i>last week</i>	-o'tgan hafta	
	<i>Monday</i>	-dushanba	
	<i>May</i>	-may oyi	
	<i>1990</i>	-1990-yil	
	<i>the end of the year</i>	-yilning oxiri	
	<i>then</i>	-o'sha(n)	
	<i>that day</i>	-o'sha kun	

➤ Qoida 1:

O'tgan zamon - *Past Simple* dagi biror-bir ish-harakatdan oldin sodir bo'lib o'tgan ish-harakatni *Past Perfect* ifodalaydi.



Masalan: *Nick was tired because he hadn't slept well. Nick said that he had seen Jack recently. Dad didn't want to go to the cinema with us because he had seen the film earlier. I understood that I had made a mistake.*

➤ Qoida 2:

<i>Past Perfect</i>	+ <i>by</i>	+ <i>Past time</i>	-gacha, -ga qadar
---------------------	-------------	--------------------	-------------------

Masalan: *Nick hadn't come by yesterday. I had returned from France by 2003. Jack hadn't written to me by Monday.*

> Qoida 3:

<i>by the time (vaqtga qadar)</i>	+ Past Simple	+ Past Perfect
<i>before (oldin)</i>		
<i>until (-ga qadar)</i>		
<i>when (-ganda)</i>		

Masalan: *By the time he arrived yesterday, I had finished my work. Nick had left his room before I came. John hadn't eaten pizza until he visited Spain. Had you studied English before you entered the university? When I came home, everybody had gone to sleep. By the time it rained, everybody had finished their job.*

> Qoida 4:

<i>after (keyin)</i>	+ Past Perfect	+ Past Simple
<i>as soon as (zahotiyog, bilanoq)</i>		

Masalan: *After I had finished my work, I went out. He arrived after I had phoned him. As soon as John had told me about it, I got more information.*

> Qoida 5:

<i>That/It was the</i>	<i>first time</i>	+ Past Perfect
	<i>second time</i>	
	<i>third time</i>	
	<i>etc.</i>	

Masalan: *That was the first time they had visited our country. It was the second time I had seen that film.*

> Qoida 6:

Present Perfect va Past Perfect zamonlarining farqi:

PRESENT	PAST
<i>Who is that woman? I have never seen her before.</i>	<i>I didn't know who she was. I had never seen her before.</i>
<i>We aren't hungry. We have just had lunch.</i>	<i>We weren't hungry. We had just had lunch.</i>
<i>The house is dirty. They haven't cleaned it for ages.</i>	<i>The house was dirty. They hadn't cleaned it for ages.</i>

> Qoida 7:

<i>hardly (zo'rg'a)</i>	+ Past Perfect
<i>scarcely (zo'rg'a)</i>	
<i>barely (bazo'r)</i>	
<i>no sooner (ulgurmay)</i>	

Masalan: *He had barely arrived home when I phoned. No sooner had he come home than he fell ill.*

> Izoh:

“No sooner” boshqa zamonlarda ham ishlatilishi mumkin. Agar gap “no sooner” bilan boshlansa, ikkinchi gap “than” bog'lovchisi bilan bog'lanadi. Bunda “no sooner” ishlatilgan gapda inversiya (yordamchi fe'lining egadan oldinga o'tishi) sodir bo'ladi. Inversiya “scarcely”, “barely” kabi so'zlar bilan ham sodir bo'lishi mumkin.

<i>No sooner</i>	+ auxiliary verb	S + V	+ than	S + V
------------------	------------------	-------	--------	-------

Masalan: *No sooner had we started out for California, than it started to rain. No sooner had she entered the building, than she felt the presence of somebody else. Scarcely had I sat down to eat when the phone rang.*

PAST PERFECT CONTINUOUS (O'TGAN TUGALEANGAN DAVOMLI ZAMON)

> Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
<i>S+had+been+V_{ing}</i>	<i>S+hadn't+been+V_{ing}</i>	<i>Had+S+been+V_{ing}?</i>	<i>Wh+had+S+been+V_{ing}?</i>


Masalan: *She had been working as a clerk for 13 years before she resigned. They were wet because they had been walking in the rain. She went to the doctor. Because her leg had been aching for 2 days. She had been trying to get a visa for months before she gave up. His fingers ached because he had been playing the guitar all day.*

> Signal so'zlari:

Past Perfect Continuous zamonining signal so'zlari Present Perfect Continuous signal so'zlari bilan bir xil. Yagona farqi shundaki, Past Perfect Continuous zamonidagi harakat o'tgan zamonda bo'ladi.

➤ Qoida 1:

O'tgan zamondan oldin boshlanib, o'tgan zamondagi ma'lum bir vaqtgacha davom etib kelib tugagan va natijasi o'sha paytda ko'rinib turgan ish-harakatlarni *Past Perfect Continuous* ifodalaydi.



Masalan: *I was out of breath. I had been running. She looked tired. She had been working in the garden all day long. Her clothes were dirty. She had been painting. The ground was wet but the sun was shining. It had been raining.*

➤ Qoida 2:

O'tgan zamondan oldin boshlanib, o'tgan zamondagi ma'lum bir vaqtgacha davom etgan va o'shanda hali ham davom etayotgan ish-harakatlarni ham *Past Perfect Continuous* ifodalaydi.

Masalan: *We had been trying to open the door for several hours when Tom found his key. It had been raining for a long time and the streets were wet. She said that she had been gardening all afternoon. I had been living in Berlin for 16 years when the war broke out. It was evening. I had been waiting for you since I arrived. When he came, we had been watching TV for 2 hours.*

➤ Qoida 3:

Past Continuous va *Past Perfect Continuous* zamonlarining farqi:

PAST CONTINUOUS	PAST PERFECT CONTINUOUS
(O'tgan zamondagi aniq bir vaqtda bir ish-harakatning davom etganligini ifodalaydi)	(O'tgan zamondagi aniq bir vaqtda bir ish-harakatning qancha muddat davom etganligini ifodalaydi)
<i>I was sleeping when you came yesterday.</i>	<i>I had been sleeping for 2 hours when you came yesterday.</i>

➤ Qoida 4:

Continuous zamonlarida ishlatilmaydigan fe'llar bilan *Past Perfect Continuous* o'rniga *Past Perfect* zamoni ishlatiladi.

Masalan: *We were good friends. We had known each other for a long time.*

FUTURE SIMPLE
(KELASI ODDIY ZAMON)

➤ Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
<i>S+shall/will+V₁</i>	<i>S+shall/will+not+V₁</i>	<i>Shall/Will+S+V₁?</i>	<i>Wh+shall/will+S+V₁?</i>

Masalan: *It's getting dark. I will turn on the light. I hope he will like his birthday present. Will the baby be born in the new year? Maybe I will not buy a car. I am afraid I will not be on time. She will probably go shopping on Tuesday.*

➤ Signal so'zlari:

a)

<i>later (keyinroq)</i>	<i>in 2050 (2050 yilda)</i>	<i>soon (tezda, yaqinda)</i>	<i>tomorrow (ertaga)</i>
-------------------------	-----------------------------	------------------------------	--------------------------

b)

<i>next</i>	<i>day</i>	<i>-keyingi/kelasi</i>	<i>kuni</i>
	<i>Monday</i>		<i>dushanbada</i>
	<i>week</i>		<i>haftada</i>
	<i>month</i>		<i>oy</i>
	<i>March</i>		<i>mart oyida</i>
	<i>year</i>		<i>yil</i>

c)


<i>in</i>	<i>2 minutes (time)</i>	<i>-2 daqiqa</i>	<i>dan keyin</i>
	<i>3 hours (time)</i>	<i>-3 soat</i>	
	<i>4 weeks (time)</i>	<i>-4 hafta</i>	
	<i>5 month (time)</i>	<i>-5 oy</i>	
	<i>6 years (time)</i>	<i>-6 yil</i>	

➤ **Izoh:**

“*Shall*”/“*shall not*” (*shan't*) faqat “*I*” yoki “*we*” olmoshlari bilan asosan so‘roq, taklif yoki maslahat so‘rashda ishlatiladi. “*Will*”/“*will not*” (*won't*) esa barcha olmoshlar (*I, we, he, she, it, you, they*) bilan ishlatiladi.

➤ **Qoida 1:**

Umuman kelasi zamondagi ish-harakat haqida gapirish uchun *Future Simple* zamonidan foydalanamiz.



Masalan: *Nick will retire in 2050. Jack will come later. I shall come and help you tomorrow. Will John return in 2 hours? Jack won't phone me next week. I shall be at home in 2 hours. When I go shopping tomorrow, I will buy some fish.*

➤ **Qoida 2:**

Oldindan rejalashtirilmagan, bajarish haqida to‘satdan qarorga kelingan kelasi zamondagi ish-harakatlar, orzu-umidlar, va‘dalar, do‘q-po‘pisalarni *Future Simple* zamoni ifodalaydi. Oldindan qaror qilsak “*be going to*” strukturasi ishlatiladi.

Masalan:

FUTURE SIMPLE	BE GOING TO
A: <i>Garry phoned while you were out.</i> B: <i>OK. I'll call him back.</i>	A: <i>Garry phoned while you were out</i> B: <i>Yes I know. I'm going to call him back.</i>
A: <i>I have left my money at home.</i> B: <i>It doesn't matter. I'll pay for you.</i>	A: <i>I have left my money at home.</i> B: <i>I know. I'm going to pay for you.</i>
Sue: <i>Let's have a party next week.</i> Tom: <i>That's a good idea. We shall invite lots of guests.</i>	(<i>Later that day</i>) Tom: <i>Sue and I have decided to have a party. We are going to invite lots of guests.</i>
A: <i>Ann is ill in hospital.</i> B: <i>Oh, really? I shall visit her tomorrow.</i>	A: <i>Ann is ill in hospital.</i> B: <i>I know. I am going to visit her tomorrow.</i>

➤ **Qoida 3:**

Kelajak haqida shunchaki taxmin qilishda *Future Simple* zamoni ishlatiladi.

Masalan: *It will rain tomorrow. She will like my present.*

➤ **Izoh:**

Vaziyatga qarab taxmin qilishda “*be going to*” strukturasi ishlatiladi.

Masalan: *Look at those black clouds. It's going to rain tomorrow. What a nice present. She is going to like it.*

➤ **Qoida 4:**

<i>after (keyin)</i>	+ <i>Present Perfect</i>	+ <i>Future Simple</i>
<i>as soon as (zahotiyog, bilanoq)</i>		

Masalan: *After I have eaten my meal tomorrow, I shall phone you. Nick will help me as soon as he has finished his work.*

➤ **Qoida 5:**

“*Shall*” so‘roq gaplarda “*I*” va “*we*” bilan ishlatilib, taklif ma‘nosini ifodalaydi.

Masalan: *Shall I help you? Shall I open the window? Shall we eat out tonight? Shall I answer the phone?*

➤ **Qoida 6:**

“*Shall*” rasmiy uslubda hozirgi zamonda modal ma‘noda ham ishlatilishi mumkin.

Masalan: *The state shall express the will of the people and serve their interests. State bodies and officials shall be accountable to the society and the citizens. (Article 2, the Constitution of the Republic of Uzbekistan)*

➤ **Qoida 7:**

“*Will*” so‘roq gaplarda “*you*” bilan ishlatilib, taklif yoki iltimos ma‘nosini ifodalaydi.

Masalan: *Will you help me? Will you answer the question? Will you have a cigarette?*

➤ **Qoida 8:**

Quyidagi iboralardan keyin odatda *Future Simple* zamoni ishlatiladi:

<i>I think (o'ylashimcha)</i>	<i>I don't think (o'ylamayman)</i>	<i>I hope (umid qilmanan)</i>	<i>possibly (ehtimol)</i>
<i>I expect (kutaman)</i>	<i>I don't expect (kutmayman)</i>	<i>perhaps (ehtimol)</i>	...
<i>I suppose (taxminimcha)</i>	<i>maybe (ehtimol)</i>	<i>probably (balki)</i>	...

Masalan: *I think Tom won't come. I suppose they will sell their house. Perhaps we will find him at the hotel.*

➤ Qoida 9:

Shart va payt ergash gapli bog'lovchilaridan keyin *Future Simple* ishlatilmaydi (*Present Simple* 8-qoida). Uning o'rniga *Present Simple* zamon ishlatiladi.

Masalan: *If she needs (if she will) a radio, I'll buy it for her. When Nick phones (when Nick will phone) me, I'll tell him about it. I'll take my children to the zoo as soon as they come (as soon as they will come) from school.*

BE GOING TO
(-MOQCHI)

➤ Qoida 1:

"Be going to" (-moqchi) birikmasi oldindan rejalashtirilgan, qaror qilib qo'yilgan kelasi zamonda bo'luvchi ish-harakatlarni ifodalaydi. Xuddi shu ma'noda *Present Continuous* ham ishlatilishi mumkin, faqat *Present Continuous* kelasi zamon uchun ishlatilganda, harakatning amalga oshish ehtimoli "be going to" ga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
S+am/is/are+going to+ V ₁	S+am/is/are+not+going to+V ₁	Am/Is/Are+S+going to+V ₁	Wh+am/is/are+S+going to+V ₁ ?

Masalan:

A: *Why are you filling the bucket with water?*

B: *I'm going to wash my car.*

A: *Why have you bought all these vegetables?*

B: *I'm going to make a salad.*

A: *You have won much money. What are you going to do with it?*

B: *I'm going to buy a car.*

A: *There is a good film on TV tonight. Are you going to watch it?*

B: *No, I'm going to study for my exams.*

➤ Qoida 2:

Vaziyatga qarab kelajakni taxmin qilishda "be going to" strukturasi ishlatiladi.

Masalan: *Look at those black clouds. It's going to rain. That man doesn't see where he is going. He is going to fall in the hole. She knows politics well. She is going to be a good politician.*

➤ Qoida 3:

"Be going to" birikmasining o'tgan zamon shakli tuzilishi quyidagicha bo'lib, u o'zgargan reja yoki fikrni ifodalashda hozirgi va kelasi zamon payt ko'rsatkichlari bilan ham ishlatilishi mumkin:

was/were	+ going to + V ₁	-moqchi edi (lekin bo'lmadi)
----------	-----------------------------	------------------------------

Masalan: *We were going to travel by train, but we decided to travel by car. She was going to phone me, but she forgot. He wasn't going to send the letter, but he did it. I was going to see you tomorrow, but now I find I can't. He was going to buy a car next week, but he has lost his money.*

BE ABOUT TO
(ARAFASIDA)

➤ Qoida 1:

"Be about to" (arafasida) birikmasi yaqin kelajakda amalga oshishi kutilayotgan ish-harakatlarni ifodalaydi. Uning hozirgi va kelasi zamon shakli tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
S+am/is/are+about to+V ₁	S+am/is/are+not+about to+V ₁	Am/Is/Are+S+about to+V ₁	Wh+am/is/are+S+about to+V ₁ ?

Masalan: *Nick is about to leave for school. I am about to go to the meeting. Can we talk later? The plane is just about to fly. They are aware that something momentous is about to happen. The train isn't about to leave yet. We are just about to set off for a walk. Do you want to come with us? I'm about to have my dinner. Can I phone you back later?*

➤ Qoida 2:

"Be about to" birikmasining o'tgan zamon shakli tuzilishi quyidagicha:

S +	+	+	-qilish arafasida edi (lekin qilinmadi, "when" li qism bilan to'xtatiladi)
	was/were	(just) about	+ to infinitive

Masalan: *I was about to go out when Nick phoned. She was about to phone Tom when he came in. Jack was just about to watch TV when there was a fault in electrical wiring. We arrived just as the ceremony was about to begin. I was about to be promoted when the new boss took over. We were just about to leave when Jerry arrived.*

➤ Izoh:

Ba'zi adabiyotlarda "be going to" bilan "be about to" birikmalari ma'no jihatdan deyarli bir xil ekanligi aytilgan bo'lsa, boshqa adabiyotlarda ular orasida biroz farq borligi qayd etiladi. Farq shundan iboratki, "be going to" rejalashtirilgan, qaror qilib qo'yilgan kelajakdagi ish-harakatlarni ifodalasa, "be about to" yaqin kelajakda, juda tez fursatda sodir bo'ladigan ish-harakatlarni ifodalaydi.

Masalan: *I am going to buy a house* ("Men uy sotib olmoqchiman" - kelajakda shu ish-harakatni faqatgina bajarish niyati borligi, lekin aynan qachonligi aniq emas). *I am about to buy a house* ("Men uy sotib olish arafasidaman" - kelajakda qilish niyati borligidan tashqari, shu ish-harakat juda tez kunda sodir bo'lishi mumkinligi va shu harakat jarayoni boshlanganligini ifodalaydi, masalan, uyni rasmiylashtirish).

FUTURE CONTINUOUS
(KELASIDAVOMLI ZAMON)

➤ Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
S+shall/will+be+V _{ing}	S+shall/will+not+be+V _{ing}	Shall/Will+S+be+V _{ing} ?	Wh+shall/will+S+be+V _{ing} ?


Masalan: *He will be sunbathing in Hawaii this time next week. Will you be going to the supermarket? Can you buy me some tea? I will be playing golf on Friday. Will you be driving into town this afternoon? I will be seeing John tomorrow. She will not be cleaning her room tomorrow evening. Will you be using your bike at 6 evening?*

➤ Signal so'zlari:

at 6 tomorrow (ertaga soat 6 da)	still (hali ham)
this time tomorrow (ertaga shu vaqtda)	from 5 till 7 tomorrow (ertaga soat 5 dan 7 gacha)
this time next week (kelasi hafta shu vaqtda)	the whole day tomorrow (ertaga butun kun bo'yi)

➤ Qoida 1:

Kelasi zamonda aniq bir paytda davom etadigan ish-harakatlarni *Future Continuous* zamoni ifodalaydi.



Masalan: *I shall be sleeping at 5 o'clock tomorrow. Nick will be travelling in Japan this time next year. John will be reading a book from 5 till 8 tomorrow. I shall be gardening the whole day next week. When you come tomorrow, Bob will still be sleeping. Will you be watching TV at 9 tomorrow evening?*

➤ Qoida 2:

Kishilarga biror xizmat aytishdan oldin ularning kelajakdagi plan va rejarini muloyimlik bilan so'rashda ishlatiladi.

Masalan: *Will you be going to the supermarket? Can you buy me some tea? Will you be driving into town this afternoon? Can you give me a lift, please?*

➤ Qoida 3:

Future Continuous zamoni *Present Continuous* zamonidagi kabi kishilarning kelajakdagi shaxsiy rejasini ifodalash uchun ham ishlatiladi. Biroq *Present Continuous*dagi ish-harakat qat'iyroq bo'ladi.

Masalan:

A: *Can we meet on Monday?*

B: *No, I shall be preparing for my exams.*

A: *Jane, will you go to the cinema with us tomorrow evening?*

B: *Unfortunately, I will be cleaning my room.*

➤ Qoida 4:

Past Continuous, *Present Continuous* va *Future Continuous* zamonlarini taqqoslash:

PAST CONTINUOUS	PRESENT CONTINUOUS	FUTURE CONTINUOUS
<i>It was 8 o'clock. John was in his office. He was working.</i>	<i>It is 8 o'clock. John is in his office. He is working.</i>	<i>At 8 o'clock tomorrow John will be in his office. He will be working.</i>

➤ Qoida 5:

Kelasi zamonda biror-bir ish-harakat sodir bo'layotgan paytda, boshqa bir ish-harakat sodir bo'lishi yoki bo'layotganligini ko'rsatishda biz "while", (-ganda, paytda) payt ergash gap bog'lovchilaridan foydalanamiz.

1. Kelasi zamonda bir ish-harakat sodir bo'layotgan paytda, boshqa bir ish-harakat sodir bo'lish holati:

While	+ Present Continuous	,	+ Future Simple
-------	----------------------	---	-----------------

Masalan: *While John is working, he will pay more attention to the people he is working with. They will arrive while we are having dinner.*

2. Kelasi zamonda bir ish-harakat sodir bo'layotgan paytda, boshqa bir ish-harakat sodir bo'layotganlik holati. Bunday gaplarda asosan ikkita shaxs ishtirok etadi:

While	+ Present Continuous	,	+ Future Continuous
-------	----------------------	---	---------------------

Masalan: *While Bob is working in the garden at 5 o'clock tomorrow, John will be sleeping. While Nick is sleeping, I will be talking on the phone. While Tom is painting the wall of the room, his sister will be cleaning the floor.*

➤ Izoh:

a) agar bunday gaplarning har ikkala qismida bitta shaxs ishtirok etsa, o'sha shaxs bir vaqtda sodir bo'layotgan har ikki ish-harakatni bir vaqtda bajarishga qodir bo'lishi shart.

Masalan: *While Bob is coming home from work, he will be talking on the phone* ("Bob ishdan uyga kelayotganda telefonda gaplashayotgan bo'ladi" – bu holatda Bob har ikki ish-harakat – "kelmoq" va "gaplashmoq" ni bir vaqtda bajarishi mumkin). *The man will be thinking about his wife while he is driving his lorry.*

b) kelasi zamonda bir vaqtda sodir bo'layotgan ikki ish-harakatni bir shaxs bir vaqtda bajarishga qodir bo'lsa, bunda "while" payt ergashtiruvchi bog'lovchisining o'rniga "and" teng bog'lovchisi ham ishlatilishi mumkin.

Masalan: *He will be listening to music and working on his computer. Nick will be lying on the floor and blowing his whistle. They will be crying and peeling onions in the kitchen.*

c) ba'zi hollarda bir shaxs bir vaqtda sodir bo'layotgan har ikki ish-harakatni bir vaqtda bajarishga qodir bo'la olmaydi.

Masalan: *While Tom is painting the wall of the room, he will be cleaning the floor* ("Tom xonasining devorini bo'yayotganda uning polini artayotgan bo'ladi" - bu holatda Tom har ikki ish-harakat - "bo'yamoq" va "artmoq" ni bir vaqtda bajarishga jismonan qodir bo'la olmaydi. Shuning uchun bu kabi gaplar ma'no jihatdan noto'g'ri hisoblanadi va "While Tom is painting the wall of the room, his sister will be cleaning the floor" kabi tuzilishi ma'noga ega bo'ladi).

FUTURE PERFECT
(KELASI TUGALLANGAN ZAMON)

➤ Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
S+shall/will+have+V ₃	S+shall/will+not+have+V ₃	Shall/Will+S+have+V ₃ ?	Wh+shall/will+S+have+V ₃ ?


Masalan: *She will have come back by the end of July. They will not have finished building their house by May. Will you have translated the article by next week? How will they have repaired the car by Monday? He said that he would have met his old friend at the conference by Sunday. They will not have reached their home by the end of the month. Will the government have constructed a new school by the end of the year? Where will you have reached by taxi by 3 o'clock afternoon? He will not have completed the project by next January.*

➤ Signal so'zlari:

Barcha Perfect signal so'zlari

➤ Qoida 1:

Kelasi zamondagi ma'lum bir vaqtga qadar tugallanadigan ish-harakatlarni Future Perfect zamoni ifodalaydi.



Masalan: *When I come to Nick's tomorrow, he will already have left. When my brother comes to Tashkent to study, I will already have graduated from university. The designer will have finished the project when the orderer phones him tomorrow. The children will not have had their breakfast by 7 o'clock morning. By the time I get home, Jane will have cooked dinner for both of us. The robbers will have taken all the money by the time anyone arrives. How many books will you have read by the end of the year? When you leave the city, she will not have informed the police about the robbery you committed.*

➤ Qoida 2:

<i>Future Perfect</i>	+ <i>by/till/until</i>	+ <i>Future time</i>
-----------------------	------------------------	----------------------

Masalan: *by tomorrow, by 5 o'clock tomorrow, by next week (month, year...), by 2020, etc. I shall have arrived by tomorrow. He will have finished school by summer. John will have graduated from university by 2025. By this time next year, we will have been married for 30 years. By tomorrow, their life will have changed completely. We are on vacation. So by the time we get back, we will have rested and relaxed.*

➤ Izoh:

“Till” va “until” so‘zlari *Future Perfect* zamonida, asosan, inkor gaplarda ishlatiladi.

Masalan: *She will have finished her work by 8 o'clock. She will not have finished her work until 8 o'clock.*

➤ Qoida 3:

<i>by the time (vaqtga qadar)</i>	+ <i>Present Simple</i>	+ <i>Future Perfect</i>
<i>before (oldin)</i>		
<i>till/until (-ga qadar)</i>		
<i>when (-ganda)</i>		

Masalan: *By the time I arrive tomorrow, he will have left my house. She will have prepared all the meals before guests come to her tonight. When you finish college, I will have already left Uzbekistan. They will not have even started translating the text till you come back.*

➤ Qoida 4:

<i>after (keyin)</i>	+ <i>Present Perfect</i> (<i>Future Perfect</i> ma'nosida)	+ <i>Future Simple</i>
<i>as soon as (zahotiyog, bilanog)</i>		

Masalan: *After I have eaten my meal tomorrow, I shall phone you. Nick will help me as soon as he has finished his work. After she has cleaned her room, she will go to the kitchen to cook dinner. As soon as pilots have land the plane, they will allow passengers to get off.*

FUTURE PERFECT CONTINUOUS (KELASI TUGALLANGAN DAVOMLI ZAMON)

➤ Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
<i>S+shall/will+have+been+V_{ing}</i>	<i>S+shall/will+not+have+been+V_{ing}</i>	<i>Shall/Will+S+have+been+V_{ing}?</i>	<i>Wh+shall/will+S+have+been+V_{ing}?</i>


Masalan: *By the end of this year, Sally will have been working here for two years. By Monday next week you will not have been attending English classes for a week. Will she have been watering the flowers for 2 hours by 6 o'clock evening? How long will you have been studying at university after two years at this time? We will have been driving for an hour by the time he gets home. How long will you have been studying when you get your degree? You will have been waiting for over two hours when the train finally arrives.*

➤ Signal so‘zlari:

Barcha *Perfect* signal so‘zlari

➤ Qoida 1:

Kelasi zamonda aniq bir vaqtdan oldin boshlanib, o‘sha vaqtda ham davom etayotgan ish-harakatlarni *Future Perfect Continuous* ifodalaydi. Ahamiyatlisi, kelasi aniq bir vaqtda ish-harakatning ma’lum vaqtdan beri davom etayotganligidir.



Masalan: *At 5 o'clock tomorrow I shall have been working for 9 hours. Nick will have been travelling in France for 2 months this time next week. My uncle says that he will have been living in Paris for ten years in 2025. Tom will have been learning English for 2 years this time next month. This time tomorrow, he will have been carrying the bags of potatoes on his back all day long. They will win that contest because they will have been practicing for months. They will be tired when they get home because they will have been working late.*

FUTURE SIMPLE IN THE PAST
(O'TGAN ZAMONDAGI KELASI ODDIY ZAMON)


➤ Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
$S+would+V_1$	$S+would+not+V_1$	$Would+S+V_1?$	$Wh+would+S+V_1?$

Masalan: *He knew (that) he would become a great politician one day. He asked them whether they would take part in that work. We didn't have to go to bed early because we wouldn't have a visit tomorrow morning. I knew (that) you would help me. He had not believed her when she said (that) they would meet only once. She was sure (that) Nick would never come back, that he had gone out of her sight completely. We thought (that) they would tell us the truth.*

➤ Qoida 1:

Kelajakda bo'ladigan ish-harakat haqida o'tgan zamonda turib gapirsak *Future Simple in the Past* zamoni ishlatiladi. Uning qoida va signallari yuqorida keltirilgan *Future Simple* zamon qoidalari va signallari bilan bir xil. Asosiy farqi tuzilishida hamda o'tgan zamon bilan bog'liqligida. Unda "shall"/"will" o'rniga "would"/"should" ishlatamiz.



Masalan: *Bob promised (that) he would send a postcard from Egypt. They rang to say (that) they would not be with us. She hoped (that) she would meet Jim at the party. He said (that) he would go to France the following year. Tom asked me what I would do in that situation. We believed (that) we would manage to repair the car by ourselves. I told my brother (that) I would start looking for a new job the next week. Didn't I tell you (that) I would go shopping today?*

FUTURE CONTINUOUS IN THE PAST
(O'TGAN ZAMONDAGI KELASI DAVOMLI ZAMON)

➤ Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
$S+would+be+V_{ing}$	$S+would+not+be+V_{ing}$	$Would+S+be+V_{ing}?$	$Wh+would+S+be+V_{ing}?$

Masalan: *They said (that) they would be working the whole day. He thought (that) he would be driving all night long. She said (that) she wouldn't be sleeping the whole morning. Did they know (that) they would be working? We didn't expect (that) they would be having a party at this time.*

➤ Qoida 1:

Kelajakda ma'lum bir vaqtda davom etayotgan ish-harakat haqida o'tgan zamonda turib gapirsak *Future Continuous in the Past* zamoni ishlatiladi. Uning qoida va signallari yuqorida keltirilgan *Future Continuous* zamoni qoidalari va signallari bilan bir xil. Asosiy farqi tuzilishida hamda o'tgan zamon bilan bog'liqligida. Unda "shall"/"will" o'rniga "would"/"should" ishlatamiz.



Masalan: *He said (that) he would be sleeping the whole day on Monday. I said (that) I would be going there the next day. She informed us (that) she would be teaching English at 6 o'clock. He thought (that) I would not be working all day. Would you be learning English if you had a better teacher? Tom said (that) he would be studying in the USA the next year. They knew (that) no one would be taking part in the competition without a prize.*

FUTURE PERFECT IN THE PAST
(O' TGAN ZAMONDAGI KELASI TUGALLANGAN ZAMON)


➤ Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
$S+would+have+V_3$	$S+would+not+have+V_3$	$Would+S+have+V_3?$	$Wh+would+S+have+V_3?$

Masalan: *I said (that) I would have copied the text by 5 o'clock. He said (that) he would have finished his work by evening. We hoped (that) we would have reached the station. They thought (that) they would have moved to a new flat by the next week. He said (that) he would have read the book by Monday. She said (that) she wouldn't have cooked dinner by 4 o'clock evening. Did they think (that) they would have translated the article by evening?*

➤ Qoida 1:

Kelajakda ma'lum bir vaqtga qadar bajarib bo'lingan ish-harakat haqida o'tgan zamonda turib gapirsak *Future Perfect in the Past* zamoni ishlatiladi. Uning qoida va signallari yuqorida keltirilgan *Future Perfect* zamoni qoidalari va signallari bilan bir xil. Asosiy farqi tuzilishida hamda o'tgan zamon bilan bog'liqligida. Unda "shall"/"will" o'rniga "would"/"should" ishlatamiz.



Masalan: *He promised (that) he would have sent me a postcard from Egypt by the next Saturday. Did she say (that) she would have finished the report by the next week? They said (that) they would have finished building the house by the next year. We believed (that) the architect would have prepared some new projects of the bridge by the end of March. He said (that) he would have taken his examination by the first of May. Bob believed (that) the train wouldn't have left by 6 o'clock evening. Everyone in the group thought (that) the monitor would have found the answer to the question given till the end of the lesson.*

FUTURE PERFECT CONTINUOUS IN THE PAST
(O' TGAN ZAMONDAGI KELASI TUGALLANGAN DAVOMLI ZAMON)


➤ Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
$S+would+have+been+V_{ing}$	$S+would+not+have+been+V_{ing}$	$Would+S+have+been+V_{ing}?$	$Wh+would+S+have+been+V_{ing}?$

Masalan: *Bob said (that) by the end of the year he would have been working there for two years. The teacher said (that) by six o'clock evening the examination would have been lasting for three hours. He knew (that) his wife wouldn't have making dinner for two hours when he came home. Would you have been dancing for 2 hours by 9 o'clock evening?*

➤ Qoida 1:

Kelajakda ma'lum bir vaqtdan buyon davom etadigan ish-harakat haqida o'tgan zamonda turib gapirsak *Future Perfect Continuous in the Past* zamoni ishlatiladi. Uning qoida va signallari yuqorida keltirilgan *Future Perfect Continuous* zamon qoidalari va signallari bilan bir xil. Asosiy farqi tuzilishida hamda o'tgan zamon bilan bog'liqligida. Unda "shall"/"will" o'rniga "would"/"should" ishlatamiz.



Masalan: *He said (that) he would have been working there for 13 years by 2025. She said (that) by 9 o'clock evening she would have been dancing for an hour. I thought (that) I would not have been learning English for 6 months by the end of the year. They knew (that) the students wouldn't have been studying at their university for many years unless they had provided high-quality education.*

PASSIVE VOICE
(MAJHUL NISBAT)

➤ **Qoida 1:**

Majhul nisbatdagi fe'llar ish-harakatning aniq bajaruvchisini ko'rsatmaydi yoki ish-harakat bajaruvchisi "by" (tomonidan) so'zi bilan gap oxirida kelishi mumkin. Majhul nisbatdagi zamonlar "to be + V₃" strukturasi asosida yaratiladi va bunda aksariyat hollarda "be" o'rniga "get", "being" o'rniga "getting", "been" o'rniga "got" ishlatilishi mumkin bo'ladi. Majhul nisbatda 10 ta zamon shakli mavjud bo'lib, ular aniq nisbatdagilari bilan signal so'zlari bir xil bo'ladi, qoidalari va zamon moslashuviga to'la amal qiladi. Asosiy farqi tuzilishida va ega harakatni bajaran olmasligida, ya'ni harakat ega nisbatan bajarilishidir.

PRESENT (HOZIRGI ZAMON)	Present Simple (Hozirgi oddiy)
	Present Continuous (Hozirgi davomli)
	Present Perfect (Hozirgi tugallangan)
	Present Perfect Continuous (Hozirgi tugallangan davomli)
PAST (O'TGAN ZAMON)	Past Simple (O'tgan oddiy)
	Past Continuous (O'tgan davomli)
	Past Perfect (O'tgan tugallangan)
	Past Perfect Continuous (O'tgan tugallangan davomli)
FUTURE (KELASI ZAMON)	Future Simple (Kelasi oddiy)
	Future Continuous (Kelasi davomli)
	Future Perfect (Kelasi tugallangan)
	Future Perfect Continuous (Kelasi tugallangan davomli)

Masalan: *The room is cleaned by Nick every day. The radio was invented by Popov in the 19th century.*

➤ **Izoh:**

Ba'zi grammatik qo'llanmalarda fe'llning o'tgan zamondagi kelasi zamon shakllari - *Future in the Past* ham alohida zamonlar sifatida beriladi. Shu bois, ular haqida mufassal ma'lumot berib, aniq farqlarini ko'rsatish uchun ushbu qo'llanmada ham alohida zamon sifatida tushuntiriladi.

FUTURE IN THE PAST (O'TGAN ZAMONDAGI KELASI ZAMON)	Future Simple in the Past (O'tgan zamondagi kelasi oddiy zamon)
	Future Continuous in the Past (O'tgan zamondagi kelasi davomli zamon)
	Future Perfect in the Past (O'tgan zamondagi kelasi tugallangan zamon)
	Present Perfect Continuous in the Past (O'tgan zamondagi kelasi tugallangan davomli zamon)

Masalan: *I thought the room would be cleaned the next day. They hoped the article would have been translated by Monday.*

➤ **Qoida 2:**

1. "Get" fe'li asosan biror kishi yoki narsaga kutilmaganda to'satdan biror hodisa sodir bo'lishini ifodalashda (asosan norasmiy holatlarda va majhul nisbatli gaplarda) "be" fe'llining o'rnida ishlatiladi.

Masalan: *There was a fight at the party but nobody got hurt (...was hurt). If you don't stop talking about her, she will get angry (...be angry). The dog got run over by a car (...was run over...).*

2. "Get" majhul nisbatda asosan, harakat fe'llari bilan ishlatiladi. Holat fe'llari bilan "get" ishlatilmaydi, balki, "be" fe'llining o'zi ishlatiladi.

Masalan: *Their car got stolen in front of their house last night (...was stolen...). Jerry got fired because he was always late for work (...was fired...). Nothing gets known about the thief. Nothing is known about the thief.*

3. "Get" fe'lidan keyin o'zlik olmoshlarining ishlatilishi harakat bajaruvchining o'zi sodir bo'lgan voqea-hodisaga taqozo etilgani yoki unga mas'ul ekanligini ko'rsatadi.

Masalan:

*Nick got injured while playing football (Ko'ngilsiz voqea, tasodif, Nikning aybi yo'q).
Nick got himself injured while trying bike stunts (Qisman Nikning o'zining aybi bilan).*

4. "Get" fe'li bilan ishlatiladigan ba'zi qotib qolgan iboralar:

<i>get dressed</i> (kiyinmoq)	<i>get washed</i> (yuvinmoq)	<i>get engaged</i> (unashtirilmoq)	<i>get married</i> (turmush qurmoq)
<i>get divorced</i> (ajrashmoq)	<i>get lost</i> (adashmoq)	<i>get mixed up</i> (chalkashmoq)	<i>get started</i> (boshlamoq)

Masalan: *I took a shower and got dressed. When did they get married? Have you ever got lost while travelling? Susan and Tom wanted to get divorced but their parents didn't let them do that. While answering the question given by his teacher, Bob got mixed up in front of many students.*

PRESENT SIMPLE
(HOZIRGI ODDIY ZAMON)

➤ **Tuzilishi quyidagicha:**

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
$S+am/is/are+V_3$	$S+am/is/are+not+V_3$	$Am/Is/Are+S+V_3?$	$Wh+am/is/are+S+V_3?$

Masalan: *The room is cleaned every day. Cars are not repaired in this street. Are you invited to parties very often? How often are these rooms cleaned? Oranges are imported into Britain. Butter is made from milk. I am never invited to parties. Who is this book written by? Where are red flowers taken from? You won't enter the university unless this grammar book is learnt by hard. In summer every year Egypt is visited by millions of tourists. Rice is not grown in cold climate.*

➤ **Izoh:**

Majhul nisbatli Present Simple zamonidagi gaplarda "am/is/are" o'rniga "get" ishlatilishi mumkin (Passive voice 2-qoida).

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
$S+get(s)+V_3$	$S+do/does+not+get+V_3$	$Do/Does+S+get+V_3?$	$Wh+do/does+S+get+V_3?$

Masalan: *The room gets cleaned every day. Cars do not get repaired in this street. Do you get invited to parties very often? How often do these rooms get cleaned? Oranges get imported into Britain. Butter gets made from milk. I never get invited to parties. If you get paid well, you will be able to supply your family. When the roads in the village get paved, it will be easy to drive on it. By the time the present gets delivered, anybody will have gone to bed. Paint and brushes usually get used in painting.*

➤ **Qoida 1:**

Egaga savol berishda "who" va "what" so'roq olmoshlari uchinchi shaxs birlik (*he, she, it*) ga tenglashadi va ketidan darhol "to be" fe'lining faqat "is" shakli yoki "gets" keladi hamda yuqorida keltirilgan gap qurilishining maxsus so'roq gap shaklida gapning egasi, ya'ni "S" (subject) bo'lmaydi. "Get" bilan berilgan qismida esa ega bilan birga "do/does" yordamchi fe'llari ham bo'lmaydi. Tuzilishi quyidagicha:

$Wh + is/gets + V_3?$

Masalan: *What is cleaned every day? Who is invited to parties very often? What is repaired in this street?*

➤ **Izoh:**

Egadan boshqa gap bo'laklariga savol berishda "wh" so'roq so'zlaridan keyin darhol gapning egasi keladi. Agar gapning egasi birlikda bo'lsa birlik kesim - "is" yoki "gets", ko'plikda bo'lsa "are" yoki "get" ishlatiladi.

Masalan: *Which room is cleaned every day? What cars are repaired in this street? How much sugar gets produced every year? How many trees get cut every year all over the world?*

PRESENT CONTINUOUS
(HOZIRGI DAVOMLI ZAMON)

➤ **Tuzilishi quyidagicha:**

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
$S+am/is/are+being+V_3$	$S+am/is/are+not+being+V_3$	$Am/Is/Are+S+being+V_3?$	$Wh+am/is/are+S+being+V_3?$

Masalan: *A new school is being built in our town these days. The letter is not being written right now. Are you being waited by your friends? English is being learnt by us nowadays. Tom's neighbour is constantly being complained by him (Shikoyat). Exciting places are continually being visited by him! (Hasad). A detective stories are being read by the students these days. What languages are being spoken? My book is being looked for. The rose is being smelt.*

➤ **Izoh:**

Majhul nisbatli Present Continuous gaplarda "being" o'rniga "getting" ishlatilishi mumkin (Passive voice 2-qoida).

Masalan: *How are these cars getting manufactured? A new house is getting built by my father at present. The disappearance of two children is getting looked into by the police. The soup is getting tasted. The question is getting answered now. Your key is always getting lost (Tanbeh).*

PRESENT PERFECT
(HOZIRGI TUGALLANGAN ZAMON)

➤ **Tuzilishi quyidagicha:**

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
$S+have/has+been+V_3$	$S+have/has+not+been+V_3$	$Have/Has+S+been+V_3?$	$Wh+have/has+S+been+V_3?$

Masalan: *Tom is looking for his key. He can't find it. It has been lost. The soup hasn't been eaten by her yet. Has your task been done? A new car has just been bought by Nick. He informs me that much money has just been won in the lottery. How has the letter been sent? They say that no letter has been received by them. A rough plan of the construction has been written this morning (Hali ham ertalab). I have not been phoned this week (Hafta hali tugamagan). The championship has been won three times. It is the second time our country has been visited by tourists. Jack says that this book hasn't been read by him before.*

➤ **Izoh:**

Majhul nisbatli *Present Perfect* zamonidagi gaplarda "been" o'rniga "got" ishlatilishi mumkin (*Passive voice 2-qoida*).

Masalan: *France has not got visited by tourists lately. It's the second time this film has got seen by me. Is this the third time a car has got driven by you? You have not got seen since you arrived in Tashkent. The room hasn't got cleaned for the last two weeks. Tom says that his watch has got recently repaired by Nick. They say the detective story hasn't got finished so far.*

PAST SIMPLE
(O'TGAN ODDIY ZAMON)

➤ **Tuzilishi quyidagicha:**

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
$S+was/were+V_3$	$S+was/were+not+V_3$	$Was/Were+S+V_3?$	$Wh+was/were+S+V_3?$

Masalan: *The room was cleaned yesterday. Were you invited to the party last week? How often were these rooms cleaned then? Once oranges were not imported into Britian. Where were red flowers taken from the other day? Patients were looked after by nurses in hospitals during the war. TV was watched by my parents yesterday evening. The letter was sent six days ago.*

➤ **Izoh:**

Majhul nisbatli *Past Simple* zamonidagi gaplarda "was/were" o'rniga "got" ishlatilishi mumkin (*Passive voice 2-qoida*).

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
$S+got+V_3$	$S+did+not+get+V_3$	$Did+S+get+V_3?$	$Wh+did+S+get+V_3?$

Masalan: *I got stopped by the police on my way home last night. They didn't get invited to our party, so they decided not to come. Did the letter get sent? When did your phone number get blocked? How did the house get broken in by a burglar without anybody hearing him? The radio got invented by Popov. The window got broken last night. He didn't get hurt last week. He got invited to the party last month.*

➤ **Qoida 1:**

Egaga savol berishda "who" va "what" so'roq olmoshlari uchinchi shaxs birlik (*he, she, it*) ga tenglashadi va ketidan darhol "to be" fe'lining faqat "was" shakli yoki "got" keladi hamda yuqorida keltirilgan gap qurilishining maxsus so'roq gap shaklida gapning egasi, ya'ni "S" (*subject*) bo'lmaydi. "Get" bilan berilgan qismida esa ega bilan birga "did" yordamchi fe'li ham bo'lmaydi. Tuzilishi quyidagicha:

$Wh + was/got + V_3?$

Masalan: *What was cleaned yesterday? Who got invited to the party last week? What was painted in white then?*

➤ **Izoh:**

Egadan boshqa gap bo'laklariga savol berishda "wh" so'roq so'zlaridan keyin darhol gapning egasi keladi. Agar gapning egasi birlikda bo'lsa, birlik kesim - "was" yoki "got", ko'plikda bo'lsa "were" yoki "got" ishlatiladi.

Masalan: *Which room was cleaned that time? What cars were repaired in this street during the war? How much sugar got produced in our country two years ago? How many trees got cut last year all over the world?*

USED TO
(QILARDI)

➤ **Qoida 1:**

O'tgan zamonda odatiy, takroriy ravishda bo'lgan, lekin hozir bo'lmaydigan ish-harakatni aniq nisbatda "used to + V₁" ko'rsatib, "qilar edi" ma'nosini bersa, bu struktura majhul nisbatda "used to + be + V₃" ga o'zgaradi. Bu birikma aniq nisbatdagisi bilan signal so'zlari bir xil bo'lib, qoidalari va zamon moslashuviga to'la amal qiladi. Asosiy farqi tuzilishida va ega harakatni bajara olmasligida, ya'ni harakat egaga nisbatan baja rilishidadir. Ish-harakat baja ruvchisi gapda "by" (*tomonidan*) so'zi bilan gap oxirida kelishi mumkin. Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE
$S+used\ to+be+V_3$	$S+didn't+use\ to+be+V_3$	$Did+S+use\ to+be+V_3?$

Masalan: *used to be cleaned (tozalana edi), used to be done (qilina edi), used to be sent (jo'natila edi), etc. The room used to be cleaned every hour then. The tasks didn't use to be done by the marketing manager. Did all letters use to be sent by email?*

➤ **Izoh:**

1. Inkor shakli "used not to + be + V₃" holatida ham yasalishi mumkin.

Masalan: *Computers used not to be programmed ten years ago./Computers didn't use to be programmed ten years ago.*

2. Majhul nisbatli "used to + be + V₃" birikmadagi gaplarda "be" o'rniga "get" ishlatilishi mumkin (*Passive voice 2-qoida*).

Masalan: *The room used to get cleaned every hour then. The tasks didn't use to get done by the marketing manager. Did all letters use to get sent by email?*

BE/GET USED TO
(ODATLANIB QOLMOQ)

➤ **Qoida 1:**

Majhul nisbatdagi "be/get + used to + being + V₃" birikmasi aniq nisbatdagisi bilan signal soʻzlari bir xil boʻlib, qoidalari va zamon moslashuviga toʻla amal qiladi. U biror kishi ish-harakatning qilinishiga "oʻrganib qolmoq", "koʻnikib qolmoq", "odatlanib qolmoq" maʼnolarini anglatadi. Asosiy farqi tuzilishida va ega harakatni bajara olmasligida, yaʼni harakat egaga nisbatan bajarilishida dir. Ish-harakat bajaruvchisi gapda "by" (tomonidan) soʻzi bilan gap oxirida kelishi mumkin.

Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE
S+am/is/are+used to+being+V ₃	S+am/is/are+not+used to+being+V ₃	Am/Is/Are+S+used to+being+V ₃ ?
S+get+used to+being+V ₃	S+do/does+not+get+used to+being+V ₃	Do/Does+S+get+used to+being+V ₃ ?

Masalan: *The teacher is used to being asked several questions during the lesson. I'm not used to being waited by my friends. The children get used to being washed twice a week. Does Jack get used to being given tips for the service he does?*

➤ **Izoh:**

Majhul nisbatli "be/get used to + being + V₃" birikmasidagi gaplarda "being" oʻrniga "getting" ishlatilishi mumkin (Passive voice 2-qoida).

Masalan: *The teacher is used to getting asked several questions during the lesson. I'm not used to getting waited by my friends. The children get used to getting washed twice a week. Does Jack get used to getting given tips for the service he does?*

PAST CONTINUOUS
(OʻTGAN DAVOMLI ZAMON)

➤ **Tuzilishi quyidagicha:**

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
S+was/were+being+V ₃	S+was/were+not+being+V ₃	Was/Were+S+being+V ₃ ?	Wh+was/were+S+being+V ₃ ?

Masalan: *The wall of the room was being painted at 5 o'clock yesterday. This time last year the plans of this building were not being made by architects. Was she being waited when she called me? How was the roof of the house being repaired? What was being cleaned at this time yesterday? The bus was being waited when the accident happened. Tom burnt his hand as the meal was being cooked. While the ceiling was being painted, I fell off the ladder.*

➤ **Izoh:**

Majhul nisbatli Past Continuous zamonidagi gaplarda "being" oʻrniga "getting" ishlatilishi mumkin (Passive voice 2-qoida).

Masalan: *The wall of the room was getting painted at 5 o'clock yesterday. This time last year the plans of this building were not getting made by architects. Was she getting waited when she called me? How was the roof of the house getting repaired?*

PAST PERFECT
(OʻTGAN TUGALLANGAN ZAMON)

➤ **Tuzilishi quyidagicha:**

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
S+had+been+V ₃	S+had+not+been+V ₃	Had+S+been+V ₃ ?	Wh+had+S+been+V ₃ ?

Masalan: *Dad didn't want to go to the cinema with us because the film we wanted to see had been seen by him earlier. Nick said that Jack had not been seen recently. I understood that a mistake had been made. Had the letter been written to you by Jack by Monday? How had the window of your room been broken when you came home after work yesterday? By the time he arrived yesterday, my work had been done.*

➤ **Izoh:**

Majhul nisbatli Past Perfect zamonidagi gaplarda "been" oʻrniga "got" ishlatilishi mumkin (Passive voice 2-qoida).

Masalan: *That was the first time our country had got visited. It was the second time that film had got seen. The house was dirty. It had not got cleaned for ages. As soon as I had got told about it, I got more information.*

FUTURE SIMPLE
(KELASI ODDIY ZAMON)

➤ **Tuzilishi quyidagicha:**

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
S+shall/will+be+V ₃	S+shall/will+not+be+V ₃	Shall/Will+S+be+V ₃ ?	Wh+shall/will+S+be+V ₃ ?

Masalan: *You will be told when the time comes. Will the room be painted next week? I will be helped as soon as Nick has finished his work. Where will a new school be built? I suppose their house will be sold. Perhaps he won't be found at the hotel.*

➤ Izoh:

Majhul nisbatli *Future Simple* zamonidagi gaplarda "be" o'rniga "get" ishlatilishi mumkin (*Passive voice 2-qoida*).
 Masalan: *The letter will get sent tomorrow. You will get told when the time comes. Will the room get painted next week? I will get helped as soon as Nick has finished his work. Where will a new school get built? I suppose their house will get sold.*

BE GOING TO
(-MOQCHI)

➤ Qoida 1:

Majhul nisbatdagi "be + going to + be + V₃" (-(in/il)moqchi) birikmasi aniq nisbatdagisi bilan signal so'zlari bir xil bo'lib, qoidalari va zamon moslashuviga to'la amal qiladi. Asosiy farqi tuzilishida va ega harakatni bajora olmasligida, ya'ni harakat egaga nisbatan bajarilishidir. Ish-harakat bajaruvchisi gapda "by" (*tomonidan*) so'zi bilan gap oxirida kelishi mumkin. Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
<i>S+am/is/are+going to+be+V₃</i>	<i>S+am/is/are+not+going to+be+V₃</i>	<i>Am/Is/Are+S+going to+be+V₃</i>	<i>Wh+am/is/are+S+going to+be+V₃?</i>

Masalan: *I am going to be asked about happenings last night. Another plan is not going to be made for the local school. Are the children going to be taken to the kindergarten? When is the wall of the room going to be painted? A new house is going to be built by my brother next year.*

➤ Qoida 2:

"Be going to + be + V₃" birikmasining o'tgan zamon shakli tuzilishi quyidagicha bo'lib, u o'zgargan reja yoki fikrni ifodalashda hozirgi va kelasi zamon payt ko'rsatkichlari bilan ham ishlatilishi mumkin:

S	+ was/were	+ going to + be + V ₃	-(in,il) moqchi edi (lekin bo'lmadi)
---	------------	----------------------------------	--------------------------------------

Masalan: *The letter was going to be sent, but he decided not to send it. The children were going to be taken to the kindergarten, but their parents took them on holiday with themselves. The room was going to be cleaned next week, but he kept postponing.*

➤ Izoh:

Majhul nisbatli "am/is/are/was/were + going to + be + V₃" birikmasidagi gaplarda "be" o'rniga "get" ishlatilishi mumkin (*Passive voice 2-qoida*).

Masalan: *When is the wall of the room going to get painted? A new house is going to get built by my brother next year. The letter was going to get sent but he decided not to send it.*

BE ABOUT TO
(ARAFASIDA)

➤ Qoida 1:

Majhul nisbatdagi "be + about to + be + V₃" (-qilinish arafasida) birikmasi aniq nisbatdagisi bilan signal so'zlari bir xil bo'lib, qoidalari va zamon moslashuviga to'la amal qiladi. Asosiy farqi tuzilishida va ega harakatni bajora olmasligida, ya'ni harakat egaga nisbatan bajarilishidir. Ish-harakat bajaruvchisi gapda "by" (*tomonidan*) so'zi bilan gap oxirida kelishi mumkin. Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
<i>S+am/is/are+about to+be+V₃</i>	<i>S+am/is/are+not+about to+be+V₃</i>	<i>Am/Is/Are+S+about to+be+V₃</i>	<i>Wh+am/is/are+S+about to+be+V₃?</i>

Masalan: *A new poem is just about to be written. The flowers are not about to be watered by the gardener. Are you about to be invited to the party tonight? Where is a new modern school about to be built?*

➤ Qoida 2:

"Be about to + be + V₃" birikmasining o'tgan zamon shakli tuzilishi quyidagicha:

S	+ was/were	+ (just) about to	+ be + V ₃	-qilinish arafasida edi (lekin qilinmadi, "when" li qism bilan to'xtatiladi)
---	------------	-------------------	-----------------------	--

Masalan: *A letter was just about to be written to George when he unexpectedly entered the office. All rooms of the house were about to be cleaned when the masters said there was some decorating work left.*

➤ Izoh:

Majhul nisbatli "am/is/are/was/were + about to + be + V₃" birikmasidagi gaplarda "be" o'rniga "get" ishlatilishi mumkin (*Passive voice 2-qoida*).

Masalan: *A letter was just about to get written to George when he unexpectedly entered the office. All rooms of the house were about to get cleaned when the masters said there was some decorating work left.*

FUTURE PERFECT
(KELASI TUGALLANGAN ZAMON)

➤ Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
$S+shall/will+have+been+V_3$	$S+shall/will+not+have+been+V_3$	$Shall/Will+S+have+been+V_3?$	$Wh+shall/will+S+have+been+V_3?$

Masalan: *When I come to Nick's tomorrow, the flowers in his garden will have been watered by him. The project will not have been finished when the orderer phones him tomorrow. Will all the meals have been prepared by tomorrow before guests come. How will everything have been done by Tuesday?*

➤ Izoh:

Majhul nisbatli *Future Perfect* zamonidagi gaplarda "been" o'rniga "got" ishlatilishi mumkin (*Passive voice 2-qoida*).

Masalan: *When I come to Nick's tomorrow, the flowers in his garden will have got watered by him. The project will not have got finished when the orderer phones him tomorrow. Will all the meals have got prepared by tomorrow before guests come?*

FUTURE SIMPLE IN THE PAST
(O'TGAN ZAMONDAGI KELASI ODDIY ZAMON)

➤ Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
$S+would+be+V_3$	$S+would+not+be+V_3$	$Would+S+be+V_3?$	$Wh+would+S+be+V_3?$

Masalan: *I knew that some money would be sent to support them financially. He informed that the task would not be done at the agreed time. Would the grass in the garden be mowed if she didn't stop her husband? What colour would this wall be painted in if we didn't paint it in green?*

➤ Izoh:

Majhul nisbatli *Future Simple in the Past* zamonidagi gaplarda "be" o'rniga "get" ishlatilishi mumkin (*Passive voice 2-qoida*).

Masalan: *I knew that some money would get sent to support them financially. He informed that the task would not get done at the agreed time. Would the grass in the garden get mowed if she didn't stop her husband? What colour would this wall get painted in if we didn't paint it in green?*

FUTURE PERFECT IN THE PAST
(O'TGAN ZAMONDAGI KELASI TUGALLANGAN ZAMON)

➤ Tuzilishi quyidagicha:

AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
$S+would+have+been+V_3$	$S+would+not+have+been+V_3$	$Would+S+have+been+V_3?$	$Wh+would+S+have+been+V_3?$

Masalan: *He promised that the postcard would have been sent to me from Egypt by the next Saturday. The trial judge made everyone believe that the criminals would not have been let off until they had confessed their crime. Would the hotel have been renovated and redecorated by the last Ramadan Holiday if we had started doing it two years ago? Where would the goods have been delivered by the next day if the order hadn't been cancelled?*

➤ Izoh:

Majhul nisbatli *Future Perfect in the Past* zamonidagi gaplarda "been" o'rniga "got" ishlatilishi mumkin (*Passive voice 2-qoida*).

Masalan: *He promised that the postcard would have got sent to me from Egypt by the next Saturday. The trial judge made everyone believe that the criminals would not have got let off until they had confessed their crime. Would the hotel have got renovated and redecorated by the last Ramadan Holiday if we had started doing it two years ago? Where would the goods have got delivered by the next day if the order hadn't been cancelled?*

CONCLUSION TO PASSIVE VOICE
(MAJHUL NISBATLI GAPLARGA XULOSA)

➤ **Qoida 1:**

Aniq nisbatdagi gapning to'ldiruvchisi majhul nisbatdagi gapning egasiga aylanadi.

Masalan: *Popov invented the radio in the 19th century. The radio was invented by Popov in the 19th century.*

➤ **Qoida 2:**

Majhul nisbatdagi gaplarning harakat bajaruvchisini ko'rsatish uchun "by" (tomonidan) so'zidan foydalanamiz.

Masalan:

Millions of people play football all over the world.

Football is played by millions of people all over the world.

Shakespeare wrote "Hamlet".

"Hamlet" was written by Shakespeare.

The teacher will announce the results at 5 tomorrow.

The results will be announced by the teacher at 5 tomorrow.

The children are answering the question now.

The question is being answered by the children now.

The doctor was examining the patient when I came.

The patient was being examined by the doctor when I came.

My mother has just cooked the meal.

The meal has just been cooked by my mother.

He had finished his work by 5 yesterday.

The work had been finished by him by 5 yesterday.

John will have typed the text by 7 o'clock.

The text will have been typed by John by 7 o'clock.

Bob: "I will finish the task".

Bob said that the task would be finished by him.

Anna: "I will have painted the room by Monday".

Anna said that the room would have been painted by her by Monday.

➤ **Izoh:**

Majhul nisbatda harakat bajaruvchisini ko'rsatmasa ham bo'ladi.

Masalan: *I noticed that the window had been left open. Every year a lot of people are killed on roads. A lot of money was stolen in the robbery yesterday. Is this room cleaned every day? There is somebody looking behind us. I think we are being followed.*

A: Did you go to the party?

B: No, I wasn't invited.

A: Are you going to the party?

B: No, I haven't been invited.

A: Can I help you madam?

B: No, thanks. I am being served.

➤ **Qoida 3:**

"Be born" - tug'ilmoq (o'zi majhul). Ko'pincha majhul nisbatli Past Simple zamoni bilan ishlatiladi. Agar tug'ilish darajasi nazarda tutilib gapirilsa, majhul nisbatli Present Simple ishlatiladi.

Masalan: *I was born in Italy. Where were you born? About 100 babies are born in this hospital every week. How many babies are born in this hospital every week?*

➤ **Qoida 4:**

Aniq nisbatdagi gaplarning kesimi quyidagi fe'llar bilan ifodalangan bo'lsa, bunday gapda ikkita to'ldiruvchi ishtirok etishi mumkin. Shuning uchun bunday gaplardan ikkita majhul nisbatdagi gap hosil qilinishi mumkin.

<i>ask (so'ramoq)</i>	<i>tea^h (o'qitmoq)</i>	<i>lend (qarz bermoq)</i>	<i>show (ko'rsatmoq)</i>	<i>give (bermoq)</i>
<i>offer (taklif qilmoq)</i>	<i>send (jo'natmoq)</i>	<i>pay (to'lamoq)</i>	<i>tell (aytmoq)</i>	...

Masalan:

They pay me \$2000 for my job.

I am paid \$2000 for my job.

\$2000 is paid for my job.

*They gave the police the information.
The police were given the information.
The information was given to the police.*

*He offered me the job, but I refused it.
I was offered the job, but I refused it.
The job was offered to me, but I refused it.*

*She will give me much time to think.
I shall be given much time to think.
Much time will be given to me to think.*

*He has taught mathematics to his children.
His children have been taught mathematics.
Mathematics has been taught to his children.*

➤ **Qoida 5:**

Quyidagi fe'llar majhul nisbatda kelganda aniq nisbat ma'nosini beradi:

<i>interest-qiziqtirmoq</i>	<i>be interested-qiziqmoq</i>
<i>surprise-hayratlantirmoq</i>	<i>be surprised-hayron bo'lmoq</i>
<i>amaze-hayratlantirmoq</i>	<i>be amazed-hayron bo'lmoq</i>
<i>shock-lol qoldirmoq</i>	<i>be shocked-lol qolmoq</i>
<i>delight-zavqlantirmoq</i>	<i>be delighted-zavqlanmoq</i>
<i>bore-zeriktirmoq</i>	<i>be bored-zerikmoq</i>
<i>astonish-hayratlantirmoq</i>	<i>be astonished-hayron bo'lmoq</i>
<i>amuse-zavqlantirmoq</i>	<i>be amused-zavqlanmoq</i>
<i>annoy-joniga tekkizdirmoq</i>	<i>be annoyed-joniga tegmoq</i>
<i>satisfy-qondirmoq</i>	<i>be satisfied-qoniqmoq</i>

Masalan: *Everybody was amazed by his progress. I am surprised at the news. I was shocked to see him. I am not satisfied with my answer. The firm was interested in him and quickly responded to him.*

➤ **Qoida 6:**

Barcha o'timsiz fe'llar majhul nisbatda ishlatila olmaydi. Lekin ularning asl ma'nosini saqlagan holda o'rniga boshqa fe'l yoki birikmalar ishlatilishi mumkin. Quyida keltirilgan fe'llar shular jumlasidandir:

<i>arrive (yetib kelmoq)</i>	<i>happen (sodir bo'lmoq)</i>	<i>run (boshqarmoq)</i>
<i>belong (qarashli bo'lmoq)</i>	<i>lack (yetishmaslik)</i>	<i>resemble (o'xshamoq)</i>
<i>have (ega bo'lmoq)</i>	<i>let (ruxsat bermoq)</i>	<i>sleep (uxlamoq)</i>
<i>suit (mos kelmoq)</i>

➤ **Izoh:**

"Let" fe'lining o'rniga majhul nisbatda "be allowed to + V₁" yoki "be permitted to + V₁" ishlatiladi.

Masalan: *She was allowed to take part in the competition.*

**VERB PREFIXES AND SUFFIXES
(FE'L YASOVCHI SUFFIKSLAR)**

➤ **Qoida 1:**

Ingliz tilida fe'llar asosan ushbu qo'shimchalar orqali hosil qilinadi:

PREFIX/SUFFIX	MISOL	PREFIX/SUFFIX	MISOL
-ate	<i>complicate, dominate, irritate, etc.</i>	-ise	<i>advertise, chastise, etc.</i>
-en	<i>harden, soften, shorten, etc.</i>	-ize	<i>mobilize, industrialize, etc.</i>
-ify	<i>beautify, clarify, identify, etc.</i>	en-	<i>enlarge, enslave, ensure, etc.</i>

TABLE OF ENGLISH TENSES – INGLIZ TILI ZAMONLARI JADVALI

I. ACTIVE VOICE – ANIQ NISBAT				
TYPES OF TENSES	AFFIRMATIVE	NEGATIVE	INTERROGATIVE	SPECIAL INTERROGATIVE
Present Simple	S + am/is/are + adjective/noun/numeral/... V	S + am/is/are + not + adjective/noun/numeral/... V	Am/Is/Are + S + adjective/noun/numeral/... V?	Wh + am/is/are + (S) ?
	S (he, she, it) + V ₁ (-s/-es)	S + do/does + not + V ₁	Do/Does + S + V ₁ ?	Wh + (do/does + S + V ₁)/(V _{1(-s,-es)}) ?
Past Simple	S + was/were + adjective/noun/numeral/... V	S + was/were + not + adjective/noun/numeral/... V	Was/Were + S + adjective/noun/numeral/... V?	Wh + was/were + (S) ?
	S + V ₂	S + did + not + V ₁	Did + S + V ₁ ?	Wh + (did + S + V ₁)/(V ₂) ?
Future Simple	S + will/shall + V ₁	S + will/shall + not + V ₁	Will/Shall + S + V ₁ ?	Wh + will/shall + (S) + V ₁ ?
Present Continuous	S + am/is/are + V _{ing}	S + am/is/are + not + V _{ing}	Am/Is/Are + S + V _{ing} ?	Wh + am/is/are + (S) + V _{ing} ?
Past Continuous	S + was/were + V _{ing}	S + was/were + not + V _{ing}	Was/Were + S + V _{ing} ?	Wh + was/were + (S) + V _{ing} ?
Future Continuous	S + will/shall + be + V _{ing}	S + will/shall + not + be + V _{ing}	Will/Shall + S + be + V _{ing} ?	Wh + will/shall + (S) + be + V _{ing} ?
Present Perfect	S + have/has + V ₃	S + have/has + not + V ₃	Have/Has + S + V ₃ ?	Wh + have/has + (S) + V ₃ ?
Past Perfect	S + had + V ₃	S + had + not + V ₃	Had + S + V ₃ ?	Wh + had + (S) + V ₃ ?
Future Perfect	S + will/shall + have + V ₃	S + will/shall + not + have + V ₃	Will/Shall + S + have + V ₃ ?	Wh + will/shall + (S) + have + V ₃ ?
Present Perfect Continuous	S + have/has + been + V _{ing}	S + have/has + not + been + V _{ing}	Have/Has + S + been + V _{ing} ?	Wh + have/has + (S) + been + V _{ing} ?
Past Perfect Continuous	S + had + been + V _{ing}	S + had + not + been + V _{ing}	Had + S + been + V _{ing} ?	Wh + had + (S) + been + V _{ing} ?
Future Perfect Continuous	S + will/shall + have + been + V _{ing}	S + will/shall + not + have + been + V _{ing}	Will/Shall + S + have + been + V _{ing} ?	Wh + will/shall + (S) + have + been + V _{ing} ?
Future Simple in the Past	S + would/should + V ₁	S + would/should + not + V ₁	Would/Should + S + V ₁ ?	Wh + would/should + (S) + V ₁ ?
Future Continuous in the Past	S + would/should + be + V _{ing}	S + would/should + not + be + V _{ing}	Would/should + S + be + V _{ing} ?	Wh + would/should + (S) + be + V _{ing} ?
Future Perfect in the Past	S + would/should + have + V ₃	S + would/should + not + have + V ₃	Would/Should + S + have + V ₃ ?	Wh + would/should + (S) + have + V ₃ ?
Future Perfect Continuous in the Past	S + would/should + have + been + V _{ing}	S + would/should + not + have + been + V _{ing}	Would/Should + S + have + been + V _{ing} ?	Wh + would/should + (S) + have + been + V _{ing} ?
II. PASSIVE VOICE – MAJHUL NISBAT				
Present Simple	S + am/is/are + V ₃	S + am/is/are + not + V ₃	Am/Is/Are + S + V ₃ ?	Wh + am/is/are + (S) + V ₃ ?
Past Simple	S + was/were + V ₃	S + was/were + not + V ₃	Was/Were + S + V ₃ ?	Wh + was/were + (S) + V ₃ ?
Future Simple	S + will/shall + be + V ₃	S + will/shall + not + be + V ₃	Will/Shall + S + be + V ₃ ?	Wh + will/shall + (S) + be + V ₃ ?
Present Continuous	S + am/is/are + being + V ₃	S + am/is/are + not + being + V ₃	Am/Is/Are + S + being + V ₃ ?	Wh + am/is/are + (S) + being + V ₃ ?
Past Continuous	S + was/were + being + V ₃	S + was/were + not + being + V ₃	Was/Were + S + being + V ₃ ?	Wh + was/were + (S) + being + V ₃ ?
Future Continuous				
Present Perfect	S + have/has + been + V ₃	S + have/has + not + been + V ₃	Have/Has + S + been + V ₃ ?	Wh + have/has + (S) + been + V ₃ ?
Past Perfect	S + had + been + V ₃	S + had + not + been + V ₃	Had + S + been + V ₃ ?	Wh + had + (S) + been + V ₃ ?
Future Perfect	S + will/shall + have + been + V ₃	S + will/shall + not + have + been + V ₃	Will/Shall + S + have + been + V ₃ ?	Wh + will/shall + (S) + have + been + V ₃ ?
Present Perfect Continuous				
Past Perfect Continuous				
Future Perfect Continuous				
Future Simple in the Past	S + would/should + be + V ₃	S + would/should + not + be + V ₃	Would/Should + S + be + V ₃ ?	Wh + would/should + (S) + be + V ₃ ?
Future Continuous in the Past				
Future Perfect in the Past	S + would/should + have + been + V ₃	S + would/should + not + have + been + V ₃	Would/Should + S + have + been + V ₃ ?	Wh + would/should + (S) + have + been + V ₃ ?
Future Perfect Continuous in the Past				

SUBJECT-VERB AGREEMENT
(EGA VA KESIM MOSLASHUVI)

➤ **Qoida 1:**

Ingliz tilida ega va kesim gapda har doim shaxs va sonda moslashishi shart.

Masalan: *She lives in China. More people live in Asia than in any other continent.*

➤ **Qoida 2:**

Murakkab ega qatnashgan gaplarda kesim murakkab ega tarkibidagi asosiy ot bilan shaxs va sonda moslashadi.

Masalan: *Many leading members of the opposition party have tried to justify the decision. The only excuse that he gave for his actions was that he was tired.*

Yuqorida keltirilgan misollarning tagi chizilgan qismi gapning egasi, "members" va "excuse" so'zlari esa asosiy otdir.

➤ **Qoida 3:**

Agar gapning egasi kesimdan keyin kelsa ham, kesim gapning egasiga moslashishi shart.

Masalan: *Among the people invited was the mayor. Displayed on the board were the exam results.*

➤ **Qoida 4:**

Agar gapning egasi fe'ldan boshlansa, bunday gapning kesimi har doim birlikda bo'ladi.

Masalan: *To keep these young people in prison is inhuman. Having overall responsibility for the course means that I have a lot of meetings.*

➤ **Qoida 5:**

Agar gapning egasi "what" li birlikma bilan ifodalangan bo'lsa va asosiy ot birlikda bo'lsa, birlik kesim ishlatiladi.

Masalan: *What worries us is the poor selection process (Bizni xavotirga soladigan narsa - bu yomon saylov jarayoni).*

➤ **Izoh:**

Yuqorida keltirilgan misolning tagi chizilgan qismi gapning egasi, "process" so'zi esa asosiy ot hisoblanadi. Agar gapning egasi "what" li birlikma bilan ifodalangan bo'lsa va asosiy ot ko'plikda bo'lsa, birlik yoki ko'plik kesim ishlatilishi mumkin. Rasmiy holatlarda ko'plik kesim ishlatilishi afzalroqdir.

Masalan: *What is needed are additional resources. (Kerakli narsa - bu qo'shimcha manbaalar).*

Yuqorida keltirilgan misolning tagi chizilgan qismi gapning egasi, "resources" so'zi esa asosiy ot hisoblanadi.

➤ **Qoida 6:**

Barcha "-s" bilan tugagan atoqli otlar birlik kesim talab qiladi.

Masalan: *The United States has a violent history. The Philippines consists of more than seven hundred islands. The Los Angeles Times lists Derek Jones as the fifth richest man in the world.*

➤ **Qoida 7:**

any of	+ plural noun/pronoun	+ singular yoki plural V (singular V afzalroq)
each of		
either of		
neither of		
none of		

Masalan: *I don't think any of them knows/know where the money is hidden. Neither of the athletes has/have won this year.*

➤ **Qoida 8:**

a/the majority of	+ plural noun/pronoun	+ plural V
a number of		
a lot of		
plenty of		
all (of)		
some (of)		

Masalan: *A number of refugees have been turned back at the border.*

➤ **Istisno:**

the number of	+ plural noun/pronoun	+ singular V
---------------	-----------------------	--------------

Masalan: *The number of books in the library has risen to over five million.*

➤ **Qoida 9:**

one of	+ plural noun/pronoun	+ singular V
each of		
every one of		

Masalan: *One of the reasons I took the job was that I could work from home.*

➤ Qoida 10:

<i>one of</i>	+ plural noun/pronoun	+ who	+ singular yoki plural V (plural V afzalroq)
---------------	-----------------------	-------	---

Masalan: He is *one of those teachers who insist/insists on pupils sitting silently in class.*

➤ Qoida 11:

<i>any of</i>	+ uncountable noun	+ singular V
<i>none of</i>		
<i>the majority of</i>		
<i>a lot of</i>		
<i>plenty of</i>		
<i>all (of)</i>		
<i>some (of)</i>		

Masalan: All the furniture was destroyed in the fire. *None of the equipment appears to be damaged.*

➤ Qoida 12:

<i>every</i> <i>each</i>	+	<i>singular noun</i> <i>noun + and + noun</i>	<i>singular V</i>
-----------------------------	---	--	-------------------

Masalan: *Every room looks over the harbour. Every boy and girl takes part in the activity. Each child has drawn a picture.*

➤ Qoida 13:

<i>everyone</i>	+	<i>singular V</i>
<i>everybody</i>		
<i>everything</i>		
<i>any- (anyone, etc.)</i>		
<i>some- (someone, etc.)</i>		
<i>no- (no one, etc.)</i>		

Masalan: *Practically everyone thinks that Phil should be given the job. No one likes being criticized. If anyone sees Lisa, ask her to call me as soon as possible.*

➤ Qoida 14:

Agar gapda "and" bog'lovchisi bilan bog'langan uyushiq ega qatnashgan bo'lsa, bunday turdagi gaplarning kesimi ko'plikda bo'ladi.

Masalan: *Jean and David are moving back to Australia. Painting and listening to music are my enjoyable activities.*

➤ Qoida 15:

<i>Either ... or ... ("or" dan keyingi otga qarab kesim tanlanadi)</i>
--

Masalan: *Either Nick or Tom is coming tonight. Either Nick or his friends are coming tonight.*

➤ Qoida 16:

<i>Neither ... nor ... ("nor" dan keyingi otga qarab kesim tanlanadi)</i>

Masalan: *Neither Nick nor Tom is coming tonight. Neither Nick nor his friends are coming tonight.*

➤ Izoh:

1.

<i>either</i>	+ singular/plural noun	+ or	+ singular noun	+ singular V
<i>neither</i>		+ nor		

Masalan: *Either the teacher or the principal is to blame for the accident. Neither Jack's friends nor his mother is coming to help him move the furniture tonight.*

2.

<i>either</i>	+ singular/plural noun	+ or	+ plural noun	+ plural V
<i>neither</i>		+ nor		

Masalan: *Either the teacher or the principals are to blame for the accident. Neither Jack's friends nor his parents are coming to help him move the furniture tonight.*

➤ Qoida 17:

"There/how/here/where + be/have" oborotida ot ko'plikda kelsa, bunday gapda ko'plik kesim ishlatiladi, agar birlikda kelsa, birlik kesim ishlatiladi.

Masalan: *Over the last few years there have been many improvements in car safety. There is a white car outside the building. How are your mum and dad these days? Here are the tools you asked for. Where are the children?*

➤ Qoida 18:

Quyidagi otlar doim ko'plikda bo'lib, aksariyatining birlik shakli yo'qdir va doim o'zlaridan keyin ko'plik kesim talab qiladi. Ular gapda "they" olmoshiga tenglashadi va ulardan oldin "these", "those" ko'rsatish olmoshlaridan foydalaniladi.

arms (qurol-yarog'lar)	earnings (ishlab topilgan pul)	people (odamlar)	stairs (zinalar)
belongings (narsalar)	steps (yig'iladigan norvon)	police (politsiya)	surroundings (tevarak-atrof)
clothes (kiyim-kechaklar)	overheads (doimiy xarajatlar)	riches (boylik)	thanks (tashakkurlar)
contents (ichidagi narsalar)	outskirts (shahar chetlari)	savings (jamg'armalar)	tropics (tropik maydonlar)
customs (bojxona)	premises (ko'chmas mulk)	staff (ishchilar)	wits (zukkolik)
congratulations (tabriklar)	particulars (to'liq hisobot)	goods (tovarlar)	wages (ish haqi)

Masalan: *The belongings have been stolen. The goods are packed. These thanks are for you. The company's earnings have increased for the last five years.*

➤ Izoh:

1. "People" so'zi "odamlar" ma'nosini ifodalab kelsa faqat ko'plik kesim bilan ishlatiladi. Agar "xalq" ma'nosini ifodalab kelsa birlik kesim bilan ham, ko'plik kesim bilan ham ishlatilishi mumkin.

2. "Whereabouts" so'zi bilan xoh birlik, xoh ko'plik kesim ishlatilishi mumkin.

Masalan: *Police believe that Thomas is in Brazil, although his exact whereabouts are/is unknown.*

➤ Qoida 19:

Barcha "s" harfi bilan tugagan kasallik nomlari sanalmaydigan otlar hisoblanib, birlik kesim talab qiladi.

diabetes (diabet)	shingles (temiratki)	mumps (tepkı)	ricketts (raxit)
rabies (quturish)	bronchitis (bronxit)	measles (qizamiq)	tuberculosis (sil)

Masalan: *Diabetes is dangerous. Rabies is not a curable disease. Tuberculosis is an incurable disease.*

➤ Qoida 20:

Barcha "s" harfi bilan tugaydigan sport turlari sanalmaydigan otlar hisoblanib, birlik kesim talab qiladi.

darts (nayza o'yini)	cards (qarta o'yini)	athletics (atletika)	bowls (boulıng)	gymnastics (gımnastika)
billiards (bilyard)	skittles (kegli)	draughts (shashka)	chess (shaxmat)	...

Masalan: *Billiards is an interesting game. Chess is a very useful game for your brain.*

➤ Qoida 21:

Barcha "ics" harflari bilan tugaydigan fan nomlari sanalmaydigan otlar bo'lib, birlik kesim talab qiladi.

acoustics (akustika)	politics (siyosat)	linguistics (lingvistika)	statistics (statistika)	logistics (logistika)
physics (fizika)	phonetics (fonetika)	mathematics (matematika)	genetics (genetika)	economics (iqtisod)

Masalan: *Physics is my favourite subject. Economics has only recently been recognised as a scientific study.*

➤ Izoh:

1. "Politics" so'zi fan sohasini anglatib kelganda birlik kesim bilan ishlatiladi, "siyosiy qarashlar" ma'nosini anglatib kelganda esa ko'plik kesim bilan ishlatiladi.

Masalan: *Politics is popular at this university. Her politics are bordering on the fascist.*

2. "Statistics" so'zi fan sohasini anglatib kelganda birlik kesim bilan ishlatiladi, "statistik ma'lumotlar" ma'nosini anglatganda esa ko'plik kesim bilan ishlatiladi.

Masalan: *Statistics was always my worst subject. Statistics are able to prove anything you want them to.*

3. "Economics" so'zi fan sohasini anglatib kelganda birlik kesim bilan ishlatiladi, "iqtisodiy tizimlar" ma'nosini anglatganda esa ko'plik kesim bilan ishlatiladi.

Masalan: *Economics has only recently been recognised as a scientific study. The economics behind their policies are unreasonable.*

➤ Qoida 22:

Quyidagi so'zlarning birlik va ko'plik shakllari bir xil:

means-vosita	species-tur	series-seriya
--------------	-------------	---------------

Masalan:

SINGULAR	PLURAL
a means of transport	two means of transport
a species of bird	several species of bird
a series of film	a few series of film

➤ Qoida 23:

Ingliz tilida arifmetik amallar doim birlik kesim talab qiladi.

Masalan: *Two and two is four. Three plus four equals to seven.*

➤ Qoida 24:

Barcha pul, vaqt, masofa, og'irlik, uzunlik o'lchov birliklari shaklan ko'plik bo'lsa ham birlik kesim talab qiladi.

Masalan: *Three hundred dollars (soums, pounds) is not enough. Ten seconds (minutes, hours, days, weeks, months, years) is enough to be loved. Five miles/kilometres is a long way to walk. Ten kilos (tonnes) is heavy.*

➤ Istisno:

Yuqoridagi birliklar "there + be" oborotida ko'plikda bo'lsa ko'plik kesim, birlikda bo'lsa birlik kesim bilan ishlatiladi.

Masalan: *There are five miles between my house and yours. There is one dollar left in my wallet.*

➤ Qoida 25:

Agar "per cent" so'zi birlikdagi ot bilan bog'lanib kelsa birlik kesim, ko'plikdagi ot bilan bog'lanib kelsa ko'plik kesim bilan ishlatiladi.

Masalan: *An inflation rate of 2 per cent makes a big difference to exports. I would say that about 50 per cent of the houses need major repairs.*

➤ Izoh:

"Per cent" so'zi jamlovchi otlar bilan kelganda jamlovchi otlar qoidasiga ko'ra yo birlik, yoki ko'plik kesim bilan ishlatiladi.

Masalan: *Some 80 per cent of the electorate is/are expected to vote.*

➤ Qoida 26:

Quyidagi otlar ikki ajralmas qismdan iborat bo'lib, ularning birlik shakli mavjud bo'lmay, har doim ko'plik kesim talab qiladi. Ular gapda "they" olmoshiga tenglashadi va ulardan oldin "these", "those" ko'rsatish olmoshlaridan foydalaniladi.

<i>scissors (qaychi)</i>	<i>tongs (qisqich)</i>	<i>shorts (shortik)</i>	<i>tights (kolgoiki)</i>	<i>pincers (qisqich)</i>
<i>jeans (jinsi shim)</i>	<i>binoculars (durban)</i>	<i>pants (shim)</i>	<i>trousers (shim)</i>	<i>knickers (pantalyon)</i>
<i>glasses (ko'zoynak)</i>	<i>shears (tokqaychi)</i>	<i>pliers (ombur)</i>	<i>scales (taroz)</i>	<i>pyjamas (pijama)</i>
<i>spectacles (ko'zoynak)</i>	<i>tweezers (qisqich)</i>

Masalan: *The pants are in the drawer. The pliers were on the table. My jeans cost twenty dollars.*

➤ Izoh:

1. Bunday otlarni sanash uchun "pair of" birikmasidan foydalanamiz.

Masalan: *A pair of glasses is ten dollars. Two pairs of trousers were sixty dollars.*

2. "A pair of" birikmasi bilan birlik kesim ishlatiladi. Lekin nisbiy olmoshli bo'laklar (Relative Clause) tarkibida kelganda ko'plik kesim ishlatilishi mumkin.

Masalan: *A pair of shoes was stolen. He wore a pair of shoes that were given to him by his mother.*

➤ Qoida 27:

"Majority" (ko'pchilik) va "minority" (kamchilik) so'zlari quyidagi struktura bo'yicha qo'llaniladi:

<i>majority of</i>	+ plural noun	+ plural V
<i>minority of</i>		

Masalan: *Majority of girls believe Nick. Minority of boys are coming tonight.*

➤ Izoh: -

Agar "majority" va "minority" so'zlari otlashgan holatda gapda ega vazifasida kelsa, ulardan so'ng birlik kesim ishlatiladi:

<i>majority of</i>	+ plural noun	+ singular V
<i>minority of</i>		

Masalan: *Majority believes Nick. Minority is coming tonight.*

➤ Qoida 28:

Butun millat nomi bilan har doim ko'plik kesim ishlatiladi:

<i>The</i>	+ millat nomi	+ plural V
------------	---------------	------------

Masalan:

<i>The English</i>	<i>The Germans</i>	<i>The Danish</i>	<i>The Americans</i>	<i>The Tajiks</i>
<i>The Spanish</i>	<i>The Russians</i>	<i>The Italians</i>	<i>The Uzbeks</i>	<i>The Iraqi</i>

Masalan: *The English drink black tea. The Chinese have many traditions.*

➤ Izoh:

Butun oila nomi bilan ham har doim ko'plik kesim ishlatiladi:

<i>The</i>	+ oila nomi	+ "-s"	+ plural V
------------	-------------	--------	------------

Masalan: *The Browns, The Shukurovs, The Abdullayevs, etc. The Browns are coming to us tonight. The Shukurovs have a dog.*

➤ Qoida 29:

"As well as", "with", "along ...", "together with", "accompanied by" teng bog'lovchilari "...bilan birga" ma'nosini anglatib, ular bilan bog'langan uyushiq egali gaplarning kesimi shu bog'lovchilardan oldinda turgan otga sonda moslashadi.

Masalan: *My dog, as well as my cats, likes cat food. My dogs, together with my cat, like meat. A woman with a baby in her arm was standing at the gate.*

➤ Qoida 30:

1.

<i>both</i>	+ plural noun	+ plural V
-------------	---------------	------------

Masalan: *Both girls are happy. Both restaurants are expensive. Both children were at home.*

2.

<i>both</i>	+ of	<i>the</i>	+ plural noun	+ plural V
		<i>my</i>		
		<i>these/those</i>		
		<i>us/you/them</i>		

Masalan: *Both of the girls are happy. Both of these children were at home. Both of my cars have been stolen.*

3.

<i>both ... and ...</i>	+ plural V	-ham...ham...
-------------------------	------------	---------------

Masalan: *Both Nick and Tom want to come to the party. Both my mother and my sister are at home.*

➤ Qoida 31:

“Both” yolg‘iz ishlatilganda “ikkala(si)” ma’nosini anglatadi.

Masalan:

A: *Which book would you like?*

B: *Both. They are interesting.*

A: *Which of the examples is correct?*

B: *Both are correct.*

➤ Qoida 32:

Agar ega “who”, “what” kabi so‘zlar yasalgan bo‘lsa kesimi birlikda keladi.

Masalan: *Who has done it? What is standing there?*

➤ Qoida 33:

Agar ega “who”, “which”, “that” kabi nisbiy olmoshlardan yasalgan bo‘lsa, kesim o‘sha olmosh tegishli bo‘lgan ot bilan sonda moslashadi.

Masalan: *The boy who is sitting at the window is my brother. The boys who are sitting at the window are my brothers. The books which/that are lying on the table are mine. Anybody who says that is mistaken.*

➤ Qoida 34:

Agar “all” so‘zi “hamma narsa” ma’nosida ega bo‘lib kelsa kesimi birlikda bo‘ladi.

Masalan: *All is understandable.*

➤ Izoh:

Agar “all” so‘zi “hamma” (kishilarga nisbatan) ma’nosida ega bo‘lib kelsa, kesimi ko‘plikda bo‘ladi.

Masalan: *All were of the same opinion.*

➤ Qoida 35:

Agar “there is/are” iborasidan keyin bir nechta ega bo‘lsa, kesim ularning birinchisi bilan moslashadi.

Masalan: *There is a lamp, an inkpot and some pencils on the table. There were two girls and a boy in the room.*

CAUSATIVE
(ORTTIRMA NISBAT)

➤ Qoida 1:

Orttirma nisbatning quyidagi ikki strukturalari gap egasi ma’lum bir ish-harakatni aynan o‘zi emas, balki boshqa bir shaxsga qildirganligini ifodalaydi va u har qanday zamonda ifodalanishi mumkin:

<i>have</i>	+ something	+ V ₃	-qildirmoq
<i>get</i>			
<i>make</i>			

Masalan: *Nick had the room cleaned last week. Jack is getting his car repaired now. Jack has recently had his car repaired. Jack will get the letter typed tomorrow. When are you going to have your room repaired? How often do you have your car serviced? When did you get your hair cut? I think you should get that coat cleaned. When I came home, Jack was having the meal cooked. I had had my room cleaned by 5 o’clock yesterday.*

A: *Did you repair your car?*

B: *No, I got it repaired.*

A: *Did you have your curtains made?*

B: *No, I made them myself.*

➤ Izoh:

Ba'zan yuqoridagi struktura o'zimiz kutmagan yoki xohlamagan holda bizga biro r hodisa sodir bo'lishini ham ifodalaydi. Masalan: *Paul and Karen had their bags stolen while they were travelling. Gary had his nose broken in a fight. Have you ever had your bike stolen?*

➤ Qoida 2:

<i>have</i>	+ <i>somebody</i>	+ <i>V₃</i>	- <i>qildirmoq</i>
-------------	-------------------	------------------------	--------------------

Masalan: *I will have you penalized. The lecturer had the student expelled. She promised to have her enemies killed.*

➤ Qoida 3:

<i>have</i>	+ <i>somebody</i> +	<i>do</i>	+ <i>something</i>	- <i>birovga qildirmoq</i>
<i>get</i>		<i>to do</i>		
<i>make</i>		<i>do</i>		

Masalan: *I am having Nick clean the room. I got Tom to repair my car yesterday. My father made me sleep early last night. They are going to have Susi send the letter. Our teacher always gets us to write all the exercises.*

**DIRECT AND REPORTED SPEECH
(KO'CHIRMA VA O'ZLASHTIRMA GAP)**

➤ Qoida 1:

O'zgalarning hech o'zgarishsiz berilgan gapiga *ko'chirma gap* deyiladi. Ko'chirma gaplar qo'shtirnoq ichida beriladi. Masalan: *She said "I want to go home"*

➤ Qoida 2:

O'zlashtirma gap deb, o'zgalarning shakli o'zgartirilib, mazmuni ifodalangan gapiga aytiladi. Masalan: *She said that she wanted to go home.*

➤ Qoida 3:

Ko'chirma gap ichida uch turdagi gap bo'lishi mumkin:

1. Darak gap	2. So'roq gap	3. Buyruq-istak maylidagi gap
--------------	---------------	-------------------------------

➤ Qoida 4:

Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirishda to'rtta asosiy qoida mavjud:

1. Qo'shtirnoqlar tushirib qoldiriladi.

Masalan: *He says "I will come tomorrow". He says that he will come tomorrow.*

2. Muallif gap kesimi *Present Simple, Present Continuous, Present Perfect* va *Future Simple* zamonlarida bo'lsa, ko'chirma gapdagi zamon o'zlashtirma gapga aylantirilganda o'zgarmaydi.

Masalan: *He says "I will come tomorrow". He says that he will come tomorrow. He has said "My parents know English well". He has said that his parents know English well. She will say "I often watch TV". She will say that she often watches TV.*

3. Muallif gap kesimi *Past* zamonlar (*Past Simple, Past Continuous, Past Perfect, Past Perfect Continuous, etc.*) da bo'lsa, ko'chirma gapdagi zamon bitta zamon orqaga qaytadi:

KO'CHIRMA GAPDA	O'ZLASHTIRMA GAPDA
<i>am/is/are</i>	- <i>was/were</i>
<i>was/were</i>	- <i>had been</i>
<i>Present Simple</i>	- <i>Past Simple</i>
<i>Present Continuous</i>	- <i>Past Continuous</i>
<i>Present Perfect</i>	- <i>Past Perfect</i>
<i>Present Perfect Continuous</i>	- <i>Past Perfect Continuous</i>
<i>Past Simple</i>	- <i>Past Perfect</i>
<i>Past Continuous</i>	- <i>Past Perfect Continuous</i>
<i>Past Perfect</i>	- <i>Past Perfect</i>
<i>Past Perfect Continuous</i>	- <i>Past Perfect Continuous</i>
<i>shall/will</i>	- <i>should/would</i>
<i>should/would</i>	- <i>should/would</i>

KO'CHIRMA GAPDA	O'ZLASHTIRMA GAPDA
MODAL FE'LLAR	
<i>can</i>	<i>-could</i>
<i>could</i>	<i>-could</i>
<i>may</i>	<i>-might</i>
<i>might</i>	<i>-might</i>
<i>should/ought to</i>	<i>-should/ought to</i>
<i>have to/has to</i>	<i>-had to</i>
<i>had to</i>	<i>-had to</i>
<i>must</i>	<i>-had to (ehtiyoj)</i>
<i>must</i>	<i>-must (buyruq "you" ga)</i>

Masalan:

He said "You **must** study hard". He said that I **must** study hard.

He said "I **must** go home". He said that he **had to** go home.

➤ **Izoh:**

Agar ko'chirma gap doimiy faktni ifodalasa, bunday gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirganda zamon o'zgarishi ham, o'zgarishligi ham mumkin.

Masalan:

He said "New York is bigger than London".

He said that New York **is/was** bigger than London.

4. Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirganda olmoshlar doim o'zgaradi, ammo ko'rsatish olmoshlari va o'rin-payt ravishlari faqat muallif gapi o'tgan zamonda bo'lsagina o'zgaradi.

a) o'rin-payt ravishlarining o'zgarishi:

KO'CHIRMA GAPDA	O'ZLASHTIRMA GAPDA
<i>now</i>	<i>-then</i>
<i>immediately</i>	<i>-then</i>
<i>after</i>	<i>-later</i>
Masalan: *Why didn't you invite your friends to the party yesterday? Who can't pay the tuition fee? How long haven't you been paying the bill for electricity?*

➤ **Qoida 3:**

Quyidagi maxsus so'roq gap strukturasi so'raluvchidan biror kishi yoki narsa-predmetning qanday yoki qanaqa ekanligi haqida ma'lumot berishini talab qiladi:

<i>What</i>	+ to be	+ S	+ like?
-------------	---------	-----	---------

Masalan:

A: *What is your new teacher like?*
B: *She is very good. We are learning a lot.*

A: *What is your new house like?*
B: *It's very big and it has lots of rooms.*

➤ Qoida 4:

Quyidagi maxsus so‘roq gap strukturasi so‘raluvchidan birov ish-harakatni bajarishda qancha vaqt ke‘lashini so‘rashda ishlatiladi:

<i>How long</i>	+	<i>does did will</i>	+	<i>it</i>	+	<i>take</i>	+ <i>by taxi/bus/train...</i>	<i>from... (place)... to ... (place)...</i>
							+ <i>to infinitive</i>	
							+ <i>sb</i>	+ <i>to infinitive</i>

Masalan: *How long does it take by train from Tashkent to Surkhandarya? How long did it take to paint the room? How long will it take you to repair my computer?*

➤ Qoida 5:

Quyidagi strukturalar orqali yuqoridagi (4-qoidadagi) maxsus so‘roq gaplarga javob beriladi:

a)

<i>It</i>	+	<i>takes/doesn't take</i>	+ <i>time words</i>	+ <i>by taxi/bus/train...</i>	+ <i>to infinitive</i>
		<i>took/didn't take</i>			
		<i>will take/won't take</i>			

Masalan: *It takes a day by train to get to Surkhandarya region from Tashkent. It took a long time to paint the room. It will take a week to repair your computer.*

b)

<i>It</i>	+	<i>takes/doesn't take</i>	+ <i>object</i>	+ <i>time words</i>	+ <i>to infinitive</i>
		<i>took/didn't take</i>			
		<i>will take/won't take</i>			

Masalan: *It takes him 5 minutes to get to work. It took Ann an hour to do shopping. It'll take me an hour to cook dinner.*

SHORT QUESTIONS
(QISQA SO‘ROQ GAPLAR)

➤ Qoida 1:

Bu turdagi so‘roq gaplar ikki kishining dialogida yuzaga kelib, so‘zlovchi aytgan gapga nisbatan tinglovchining taajjub va hayratini ifodalab, o‘zbek tilida “rostdanmi” ma’nolarini ifodalaydi. So‘zlovchi aytgan gap qaysi zamonda bo‘lsa, tinglovchining savoli ham o‘sha zamonda bo‘ladi.

Masalan:

A: *Nick came late.*

B: *Did he?*

A: *She is good at cooking.*

B: *Is she?*

➤ Qoida 2:

Qisqa so‘roq gaplar ikkiga bo‘linadi:

1.

A: <i>Bo‘lishli gap</i>
B: <i>Bo‘lishli savol</i>

Masalan:

A: <i>Nick came late.</i> B: <i>Did he?</i>	A: <i>I shall help you.</i> B: <i>Oh, will you?</i>
A: <i>John will come soon.</i> B: <i>Will he?</i>	A: <i>We were at the cinema.</i> B: <i>Were you?</i>
A: <i>The children are playing.</i> B: <i>Are they?</i>	A: <i>I must go home.</i> B: <i>Must you?</i>
A: <i>I have to stay at home.</i> B: <i>Do you?</i>	A: <i>John has finished his work.</i> B: <i>Has he?</i>
A: <i>The lady is sleeping.</i> B: <i>Is she?</i>	A: <i>The woman should come.</i> B: <i>Should she?</i>
A: <i>I forgot to bring my book.</i> B: <i>Did you?</i>	A: <i>There is little time.</i> B: <i>Is there?</i>
A: <i>There were many people.</i> B: <i>Were there?</i>	A: <i>The weather is good.</i> B: <i>Is it?</i>
A: <i>She had to come at 5.</i> B: <i>Did she?</i>	A: <i>The workers were working.</i> B: <i>Were they?</i>

2.

A: *Bo'lishsiz gap*
B: *Bo'lishsiz savol*

Masalan:

A: <i>Nick didn't come late.</i> B: <i>Didn't he?</i>	A: <i>I shan't help you.</i> B: <i>Oh, won't you?</i>
A: <i>John will not come soon.</i> B: <i>Won't he?</i>	A: <i>We were not at the cinema.</i> B: <i>Weren't you?</i>
A: <i>The children are not playing.</i> B: <i>Aren't they?</i>	A: <i>I mustn't go home.</i> B: <i>Mustn't you?</i>
A: <i>I don't have to stay at home.</i> B: <i>Don't you?</i>	A: <i>John hasn't finished his work.</i> B: <i>Hasn't he?</i>
A: <i>The lady isn't sleeping.</i> B: <i>Isn't she?</i>	A: <i>The woman shouldn't come.</i> B: <i>Shouldn't she?</i>
A: <i>I didn't forget to bring my book</i> B: <i>Didn't you?</i>	A: <i>I can hardly speak.</i> B: <i>Can't you?</i>
A: <i>They saw nobody.</i> B: <i>Didn't they?</i>	A: <i>I seldom play tennis.</i> B: <i>Don't you?</i>
A: <i>She never goes out.</i> B: <i>Doesn't she?</i>	A: <i>I mustn't be late.</i> B: <i>Mustn't you?</i>

➤ **Izoh:**

a) ba'zan qisqa so'roq gaplarda sinonimik to'ldirish bilan tinglovchi murojaat qilishi mumkin.

Masalan:

A: <i>The weather is awful.</i> B: <i>Yes, it's terrible.</i>	A: <i>It is a bad film.</i> B: <i>Yes, it is horrible.</i>	A: <i>He is happy.</i> B: <i>Yes, he is absolutely lucky.</i>	A: <i>The day is wonderful.</i> B: <i>Yes, it's thrilling.</i>
--	---	--	---

b) shuningdek, "really" (rostdanmi) so'zi bilan ham so'roq berilishi mumkin.

A: ... B: <i>Really?</i>

Masalan:

A: *She is ill.*

B: *Really?*

A: *I don't know him.*

B: *Really?*

➤ **Qoida 3:**

"Who" savoliga qisqa javob:

A: <i>Who came yesterday?</i> B: <i>Tom did.</i>	A: <i>Who has a book?</i> B: <i>I do.</i>	A: <i>Who has to go home?</i> B: <i>We do.</i>
A: <i>Who can speak English?</i> B: <i>Linda can.</i>	A: <i>Who knows Tom?</i> B: <i>Nick does.</i>	A: <i>Who has written this book?</i> B: <i>Jack has.</i>

➤ **Izoh:**

SAVOL	MA'NOSI	JAVOB
<i>Who is she?</i>	<i>Ismi va familiyasi kim?</i>	<i>She is Sarah Brown.</i>
<i>What is she?</i>	<i>Kasbi nima?</i>	<i>She is a teacher.</i>
<i>What is she like?</i>	<i>Ko'rinishi qanday? Fe'l-atvori qanday?</i>	<i>She is tall and beautiful. She is nice.</i>
<i>What does she look like?</i>	<i>Ko'rinishi qanday?</i>	<i>She is tall and beautiful.</i>
<i>Whom is she like?</i>	<i>Kimga o'xshaydi?</i>	<i>She is like her mother.</i>
<i>Whom does she look like?</i>	<i>Kimga o'xshaydi?</i>	<i>She looks like her mother.</i>
<i>Who does she like?</i>	<i>Kimni yoqtiradi?</i>	<i>She likes her mother.</i>
<i>Who does she take after?</i>	<i>Kimga tortgan?</i>	<i>She takes after her mother.</i>

➤ **Qoida 4:**

<i>look like</i>	+ sb	-birovga o'xshamoq
------------------	------	--------------------

Masalan: *She looks like her mother* (U onasiga o'xshaydi).

➤ **Izoh:**

<i>look alike</i>	+ sb	-o'xshash bo'lmoq
<i>be alike</i>		

Masalan: *These two boys look alike. These two boys are alike.*

ALTERNATIVE QUESTIONS
(TANLOV SO'ROQ GAPLAR)

➤ Qoida 1:

Bu turdagi so'roq gaplar ikki kishi yoki narsadan birini tanlash uchun ishlatilib "or" (yoki) bog'lovchisi bilan bog'lanadi.
Masalan:

A: Do you like tea or coffee? B: I like coffee.	A: When will you come? At 5 or at 7? B: I'll come at 5.
--	--

TAG QUESTIONS
(TASDIQ SO'ROQ GAPLAR)

➤ Qoida 1:

Tasdiq so'roq gaplar biror-bir gapga tasdiq so'rash uchun ishlatiladi. Tasdiq so'roq gaplarda gap ikki qismdan iborat bo'ladi: *asosiy qism* va *so'roq qism*. So'roq qismi gap oxirida joylashadi va asosiy qismdan vergul bilan ajratiladi. So'roq qismini hosil qilishda asosiy qism ifodalangan zamonning yordamchi fe'llaridan yoki modal fe'llaridan foydalanamiz. Gapning egasi so'roq qismiga olmosh bo'lib o'tadi. Tasdiq so'roq gaplar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1.

ASOSIY QISM	SO'ROQ QISM
<i>bo'lishli gap</i>	<i>bo'lishsiz so'roq</i>

Masalan: *Bob knows English well, doesn't he? He is sleeping now, isn't he? They played tennis yesterday, didn't they? Fred will fly to Moscow, won't he? She can speak English, can't she? He must go home, mustn't he? The people were swimming, weren't they? You have seen Mary, haven't you? It was a good film, wasn't it? Jim should come tomorrow, shouldn't he?*

➤ Izoh:

Bunday gaplarga javob berishda "yes" (*ha, shunday*), "no" (*yo'q, unday emas*) javoblaridan foydalanamiz. "Yes" so'roq gapning bo'lishli qismiga qo'shilishni bildirsa, "no" inkor yuklamasi bo'lishsiz qismiga qo'shilishni bildiradi.

Masalan:

A: Snow is white, isn't it? (Qor oq, shunday emasmi?) B: Yes, it is (Ha, qor oq)./No, it is not (Yo'q, qor oq emas).	A: The sun rises in the East, doesn't it? B: Yes, it does (Ha)./No, it does not (Yo'q)
A: Snow is black, isn't it? (Qor qora, shunday emasmi?) B: Yes, it is (Ha, qor qora)./No, it is not (Yo'q, qor qora emas).	A: The sun rises in the West, doesn't it? B: Yes, it does (Ha)./No, it does not (Yo'q)

2.

ASOSIY QISM	SO'ROQ QISM
<i>bo'lishsiz gap</i>	<i>bo'lishli so'roq</i>

Masalan: *Bob doesn't know English well, does he? He isn't sleeping now, is he? They didn't play tennis yesterday, did they? Fred won't fly to Moscow, will he? She cannot speak English, can she? He mustn't go home, must he? The people weren't swimming, were they? You haven't seen Mary, have you? It wasn't a good film, was it?*

➤ Izoh:

Bunday gaplarga javob berishda "yes" (*ha, shunday*), "no" (*yo'q, unday emas*) javoblaridan foydalanamiz. "Yes" so'roq gapning bo'lishli qismiga qo'shilishni bildirsa, "no" inkor yuklamasi bo'lishsiz qismiga qo'shilishni bildiradi.

Masalan:

A: Snow isn't white, is it? (Qor oq emas, shundaymi?) B: Yes, it is (Ha, qor oq)./No, it is not (Yo'q, qor oq emas).	A: The sun doesn't rise in the East, does it? B: Yes, it does (Yo'q, quyosh sharqdan chiqadi).
A: Snow isn't black, is it? (Qor qora emas, shundaymi?) B: Yes, it is (Ha, qor qora)./No, it is not (Yo'q, qor qora emas).	A: The sun doesn't rise in the West, does it? B: No, it does not (Ha, quyosh g'arbdan chiqmaydi).

➤ Qoida 2:

1. Agar asosiy qismning kesimi "have"/"has" bilan ifodalangan bo'lsa, so'roq "do"/"does" bilan beriladi.

Masalan: *They have an old car, don't they? She has a new book, doesn't she?*

2. Agar asosiy qismning kesimi "have got"/"has got" bilan ifodalangan bo'lsa, so'roq "have"/"has" bilan beriladi.

Masalan: *They have got an old car, haven't they? She has got a new book, hasn't she?*

3. Agar asosiy qismning kesimi "had" bilan ifodalangan bo'lsa, so'roq "did" bilan beriladi.

Masalan: *She had a nice house, didn't she?*

4. Agar asosiy qismning kesimi "have to"/"has to" bilan ifodalangan bo'lsa, so'roq "do"/"does" bilan beriladi.

Masalan: *They have to come earlier, don't they? She has to go home, doesn't she?*

5. Agar asosiy qismning kesimi "have got to"/"has got to" bilan ifodalangan bo'lsa, so'roq "have"/"has" bilan beriladi.

Masalan: *You have got to invite all your friends to the party, haven't you? She has got to go home, hasn't she?*

6. Agar asosiy qismning kesimi "had to" bilan ifodalangan bo'lsa, so'roq "did" bilan beriladi.

Masalan: *She had to come yesterday, didn't she?*

7. Agar asosiy qismning tarkibida ko'rsatish olmoshlari bo'lsa, tasdiq so'roq gapda ular quyidagicha o'zgaradi:

ASOSIY QISMDA	TASDIQ SO'ROQ QISMDA
<i>this/that/it</i>	<i>it</i>
<i>these/those</i>	<i>they</i>
<i>there</i>	<i>there</i>

Masalan: *This is my book, isn't it? These are my books, aren't they? There is some milk in the cup, isn't there? There weren't many people, were there? It is Jack, isn't it? It isn't Jack, is it?*

8. Agar asosiy qismning kesimi Present Perfect bilan ifodalangan bo'lsa, so'roq "have"/"has" bilan beriladi.

Masalan: *She has finished her work, hasn't she?*

9. Agar asosiy qismning kesimi Past Perfect bilan ifodalangan bo'lsa, so'roq "had" bilan beriladi.

Masalan: *She had come back by 5, hadn't she?*

10. Agar asosiy gapning kesimi "am" bilan ifodalangan bo'lsa, so'roq "aren't" bilan beriladi.

Masalan: *I am ill, aren't I? I am a student, aren't I? I am studying hard, aren't I?*

> Izoh:

a) ba'zan "I am ill, am I not?" ko'rinishidagi gapni ham uchratish mumkin.

b) agar asosiy gapning kesimi bo'lishsiz "am not" bilan ifodalangan bo'lsa, so'roq "am" bilan beriladi.

Masalan: *I am not a student, am I? I am not ill, am I?*

11. Agar asosiy qism "Let's" bilan boshlansa, so'roq "shall we?" bilan beriladi.

Masalan: *Let's play tennis, shall we? Let's go home, shall we?*

12. Asosiy qismi xoh bo'lishli, xoh bo'lishsiz buyruq gap bilan ifodalangan tasdiq so'roq gaplarning so'roq qismi "will you" bilan beriladi.

Masalan: *Open the door, will you? Please, bring some water, will you? Let us help you, will you? Don't play outside, will you?*

13. Agar asosiy gapning kesimi "had better" bilan ifodalangan bo'lsa, so'roq "hadn't" bilan beriladi.

Masalan: *I had better go home, hadn't I? She had better not come at 5, had she?*

> Qoida 3:

Agar asosiy qismning kesimida quyidagi so'zlar ishtirok etsa, so'roq qismi bo'lishli holatda ifodalanadi:

<i>refuse (inkor qilmoq)</i>	<i>barely (zo'rg'a)</i>	<i>seldom (kamdan-kam)</i>	<i>no-one (hech kim)</i>	<i>neither (na...)</i>
<i>hardly (zo'rg'a)</i>	<i>rarely (kamdan kam)</i>	<i>no (yo'q)</i>	<i>nothing (hech narsa)</i>	<i>reject (rad etmoq)</i>
<i>scarcely (bazo'r)</i>	<i>never (hech qachon)</i>	<i>nobody (hech kim)</i>	<i>none (hech nima)</i>	...

Masalan: *She rarely swims in the river, does she? He never went to the stadium, did he? She can hardly read anything, can she? Nobody knows about it, do they? Nothing is known about it, is it? None of the girls are at home, are they?*

**AGREEMENT
(TASDIQ)**

➤ **Qoida 1:**

Tasdiq berishda tinglovchi soʻzlovchining gapiga qarab yordamchi va modal feʼllar bilan uning fikriga qoʻshilish yoki qoʻshilmasligini aytib tasdiq beradi. Tinglovchi tasdiq berishda tasdiq gapining zamonini soʻzlovchining aytgan gap zamoniga moslashi shart boʻladi. Tasdiq gaplar asosan ikki xil boʻladi:

1. Boʻlishli tasdiq	2. Boʻlishsiz tasdiq
---------------------	----------------------

BOʻLISHLI TASDIQ

➤ **Qoida 1:**

Soʻzlovchi gapi boʻlishli boʻlsa, tinglovchi tasdigʻi ham boʻlishli boʻladi. Boʻlishli tasdiqning ikki xil koʻrinishi mavjud:
1.

<i>So + modal/auxiliary verb + S</i>

Masalan:

A: <i>I know Nick well.</i> B: <i>So does John.</i>	A: <i>My parents are away.</i> B: <i>So are mine.</i>
A: <i>John smokes much, and you?</i> B: <i>So do I.</i>	A: <i>I'm ill today.</i> B: <i>So is my brother.</i>
A: <i>My sister came yesterday, and John?</i> B: <i>So did John.</i>	A: <i>She was busy.</i> B: <i>So was Jack.</i>
A: <i>Jane has arrived, and Nick?</i> B: <i>So has Nick.</i>	A: <i>We must do it now.</i> B: <i>So must I.</i>
A: <i>Nick can run fast.</i> B: <i>So can I.</i>	A: <i>I have to go home.</i> B: <i>So does Bob.</i>
A: <i>She has got to go home.</i> B: <i>So has Bob.</i>	A: <i>I have a dog.</i> B: <i>So does John.</i>
A: <i>She had a nice house, and you?</i> B: <i>So did I.</i>	A: <i>Nick should come.</i> B: <i>So should Bob.</i>

2.

<i>S + modal/auxiliary verb + too/also</i>
--

Masalan:

A: <i>I know Nick well.</i> B: <i>John does too/also.</i>	A: <i>My parents are away.</i> B: <i>My parents are away too/also.</i>
A: <i>John smokes much, and you?</i> B: <i>I do too/also.</i>	A: <i>I'm ill today.</i> B: <i>My brother is too/also.</i>
A: <i>My sister came yesterday, and John?</i> B: <i>John did too/also.</i>	A: <i>She was busy.</i> B: <i>Jack was too/also.</i>
A: <i>Jane has arrived, and Nick?</i> B: <i>Nick has too/also.</i>	A: <i>We must do it now.</i> B: <i>I must too/also.</i>
A: <i>Nick can run fast.</i> B: <i>I can too/also.</i>	A: <i>I have to go home.</i> B: <i>Bob does too/also.</i>
A: <i>She has got to go home.</i> B: <i>Bob has too/also.</i>	A: <i>I have a dog.</i> B: <i>John does too/also.</i>
A: <i>She had a nice house, and you?</i> B: <i>I did too/also.</i>	A: <i>Nick should come.</i> B: <i>Bob should too/also.</i>

BO'LISHSIZ TASDIQ

➤ Qoida 1:

Agar so'zlovchi gapi bo'lishsiz bo'lsa, tinglovchi tasdig'i ham bo'lishsiz bo'ladi. Bo'lishsiz tasdiqning ham quyidagi ikki xil ko'rinishi mavjud:

1.

<i>Neither/Nor + modal/auxiliary verb + S</i>	
Masalan:	
<i>A: She is not at home. B: Neither/Nor is Bob.</i>	<i>A: They didn't come yesterday and you? B: Neither/Nor did I.</i>
<i>A: Jack doesn't know English. B: Neither/Nor do I.</i>	<i>A: He shouldn't smoke, and you? B: Neither/Nor should I.</i>
<i>A: He hasn't arrived, and John? B: Neither/Nor has John.</i>	<i>A: Jack won't come. B: Neither/Nor will Nick.</i>
<i>A: He can't sing well. B: Neither/Nor can I.</i>	<i>A: We weren't able to come. B: Neither/Nor were they.</i>

2.

<i>S + modal/auxiliary verb + not + either</i>	
Masalan:	
<i>A: She is not at home. B: Bob isn't either.</i>	<i>A: They didn't come yesterday and you? B: I didn't either.</i>
<i>A: Jack doesn't know English. B: I don't either.</i>	<i>A: He shouldn't smoke, and you? B: I shouldn't either.</i>
<i>A: He hasn't arrived, and John? B: John hasn't either.</i>	<i>A: Jack won't come. B: Nick won't either.</i>
<i>A: He can't sing well. B: I can't either.</i>	<i>A: We weren't able to come. B: They weren't either.</i>

➤ Qoida 2:

Quyidagi bo'lishsizlik so'zlari bilan tasdiq ishlatiladi:

<i>refuse (inkor qilmoq)</i>	<i>barely (zo'rg'a)</i>	<i>seldom (kamdan-kam)</i>	<i>no-one (hech kim)</i>	<i>neither (na...)</i>
<i>hardly (zo'rg'a)</i>	<i>rarely (kamdan-kam)</i>	<i>no (yo'q)</i>	<i>nothing (hech narsa)</i>	<i>reject (rad etmoq)</i>
<i>scarcely (bazo'r)</i>	<i>never (hech qachon)</i>	<i>nobody (hech kim)</i>	<i>none (hech nima)</i>	...

Masalan:

*A: I can hardly speak.
B: Neither/Nor can Bob./Bob can't either.*

*A: I bought nothing.
B: Neither/Nor did Nick./Nick didn't either.*

*A: I seldom smoke.
B: Neither/Nor does Jack./Jack doesn't either.*

➤ Qoida 3:

Ba'zan aytib o'tilgan fikrga qo'shilishda gapni takrorlamaslik uchun "so" so'zi quyidagi birikmalar bilan ishlatiladi:

BO'LISHLI	INKOR
<i>I think so (shunday deb o'ylayman)</i>	<i>I don't think so (unday deb o'ylamayman)</i>
<i>I hope so (shunday deb umid qilaman)</i>	<i>I hope not (unday emas deb umid qilaman)</i>
<i>I am afraid so (shunday deb qo'rqaman)</i>	<i>I am afraid not (unday emas deb qo'rqaman)</i>
<i>I guess so (taxminimcha shunday)</i>	<i>I guess not (taxminimcha unday emas)</i>
<i>I suppose so (shunday deb taxmin qilaman)</i>	<i>I don't suppose so/I suppose not (taxminimcha unday emas)</i>

Masalan:

*A: Is that woman American?
B: I think so./I don't think so.*

*A: Do you think it will rain?
B: I hope so./I hope not. I don't hope so.*

NOUN
(OT)

➤ Qoida 1:

Shaxs va predmetni ifodalab, *kim?*, *nima?* soʻroqlariga javob boʻladigan soʻzlarga *ot* deyiladi.

Masalan: *a student, a table, a dog, a house, water, beauty, truth, etc.*

➤ Qoida 2:

Otlar oldidan odatda artikl va predlog keladi. Ular otlarning asosiy belgisidir.

Masalan: *a table, the table, on the table, etc.*

➤ Qoida 3:

Otlar birlik va koʻplikda kelishi mumkin.

Masalan: *a table-tables, a book-books, a friend-friends, etc.*

➤ Qoida 4:

Otlarda ikkita - *bosh* va *qaratqich* kelishigi mavjud.

Masalan: *worker-worker's, father-father's, manager-manager's, etc.*

➤ Qoida 5:

Otlar gapda quyidagi vazifalarda keladi:

1. Ega vazifasida;

Masalan: *The train leaves at 6 o'clock. The boy played with his friends. The information spread through the village.*

2. Kesim tarkibida;

Masalan: *He is a teacher. This is a laptop. John is an architect.*

3. Toʻldiruvchi vazifasida;

Masalan: *I've received a telegram. We've sent the buyers a letter. I'll speak to the manager.*

4. Aniqlovchi vazifasida;

Masalan: *This is the manager's room. They went on a week holiday yesterday. It is an hour flight from New York to Washington.*

5. Hol vazifasida;

Masalan: *There is a hospital in the village. He makes his breakfast in the morning. He gives a lecture on literature at university.*

➤ Qoida 6:

Otlar besh turga boʻlinadi:

1. Proper nouns (Atoqli otlar)	4. Compound nouns (Qoʻshma otlar)
2. Common nouns (Turdosh otlar)	5. Collective nouns (Jamlovchi otlar)
3. Abstract nouns (Mavhum otlar)	

PROPER NOUNS
(ATOQLI OTLAR)

➤ Qoida 1:

Barcha atab qoʻyilgan otlarga *atoqli otlar* deyiladi. Atoqli otlar doim bosh harfda yoziladi.

Atoqli otlarga quyidagilar kiradi:

1. Ism-familiyalar: <i>Winston Churchill, Merlyn Monroe, Alisher Navoi, etc.</i>
2. Kitob, asar nomlari: <i>War and Peace, Tristan and Isolde, Khamsa, Farkhod and Sherin, etc.</i>
3. Hafta kunlari, oy, bayram nomlari: <i>Friday, January, July, New Year, Eid, Navruz, etc.</i>
4. Barcha geografik joy nomlari: <i>China, Florida, Rome, the Dead Sea, the Alps, Lake Lemon, etc.</i>
5. Koʻcha, park, xiyobon va shunga oʻxshash joy nomlari: <i>Wall Street, Independence Square, etc.</i>
6. Bino nomlari: <i>the Pentagon, the Kremlin, etc.</i>

COMMON NOUNS
(TURDOSH OTLAR)

➤ Qoida 1:

Atab qoʻyilmagan va bir turdagi shaxs, narsa va oʻrin-joy nomlarini bildiruvchi otlarga *turdosh otlar* deyiladi.

Turdosh otlar ikkiga boʻlinadi:

1. Countable nouns (Sanaladigan otlar)	2. Uncountable nouns (Sanalmaydigan otlar)
--	--

COUNTABLE NOUNS
(SANALADIGAN OTLAR)

➤ **Qoida 1:**

Donalab sanaladigan otlarga *sanaladigan otlar* deyiladi. Sanaladigan otlar ikki xil - *birlik va ko'plik* songa ega bo'ladi.

1. Singular (Birlik)

Masalan: *a book, an idea, a desk, an apple, a house, etc.*

➤ **Izoh:**

Egasi birlik sondagi ot bilan ifodalangan gaplarning kesimi doim birlikda keladi.

Masalan: *A girl is playing in the garden. A cat has a black tail. A pupil wants to go out.*

2. Plural (Ko'plik)

Masalan: *books, ideas, desks, apples, houses, etc.*

➤ **Izoh:**

Egasi ko'plik sondagi ot bilan ifodalangan gaplarning kesimi doim ko'plikda keladi.

Masalan: *The girls in the kitchen are eating their meal. The beds in this hotel are not comfortable. The pupils in this classroom want to go out.*

➤ **Qoida 2:**

Birlik otlarni ko'plikka aylantirishda ikki xil holat mavjud:

1. Regular plural (To'g'ri ko'plik)	2. Irregular plural (Noto'g'ri ko'plik)
--	--

REGULAR PLURAL
(TO'G'RI KO'PLIK)

➤ **Qoida 1:**

To'g'ri ko'plik "-s" qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi.

Masalan: *a book-books, a school-schools, a room-rooms, a bag-bags, etc.*

➤ **Izoh:**

1. "y" harfi bilan tugagan birlikdagi otlarni ko'plikka aylantirishda ikki xil holat mavjud:

a) agar ot "y" harfi bilan tugasa va undan oldin undosh harf kelsa, "y" harfi "ie" shakliga o'zgaradi.

Masalan: *a city-cities, a baby-babies, a lady-ladies, etc.*

b) agar ot "y" harfi bilan tugasa va undan oldin unli harf kelsa, "y" harfi o'z holatida qoladi.

Masalan: *a boy-boys, a toy-toys, a guy-guys, a joy-joys, etc.*

2. "o", "ch", "sh", "x", "s", "ss" harflari bilan tugagan birlikdagi otlarni ko'plikka aylantirishda "-es" qo'shimchasi shu harflardan so'ng qo'shiladi.

Masalan: *a potato-potatoes, a church-churches, a brush-brushes, a box-boxes, a bus-buses, a glass-glasses, etc.*

➤ **Istisno:**

Boshqa tillardan kirib kelgan "o" harfi bilan tugagan birlikdagi otlarni ko'plikka aylantirishda "-s" qo'shimchasi shu harfdan so'ng qo'shiladi.

<i>audio-audios (audio)</i>	<i>kimono-kimonos (kiyim turi)</i>	<i>radio-radios (radio)</i>	<i>tattoo-tatoos (tatuirovka)</i>
<i>auto-autos (mashina)</i>	<i>memo-memos (eslatma)</i>	<i>solo-solos (musiqqa turi)</i>	<i>video-videos (video)</i>
<i>kangaroo-kangaroos (kenguru)</i>	<i>photo-photos (rasm)</i>	<i>soprano-sopranos (ovoz)</i>	<i>zoo-zoos (zoopark)</i>
<i>kilo-kilos (kilo)</i>	<i>piano-pianos (pianino)</i>	<i>studio-studios (studiya)</i>	...

➤ **Izoh:**

Ba'zi "o" harfi bilan tugagan birlikdagi otlar ko'plikka aylantirilganda "-s" yoki "-es" qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil qilinishi mumkin.

<i>ghetto-ghettos/ghettoes (xaroba kulba)</i>	<i>mosquito-mosquitos/mosquitoes (chivin)</i>	<i>zero-zeros/zeroes (nol)</i>
<i>memento-mementos/mementoes (esdalik)</i>	<i>tornado-tornados/tornadoes (tornado)</i>	...

3. "f" yoki "fe" harflari bilan tugagan birlikdagi otlarni ko'plikka aylantirishda "-s" qo'shimchasi qo'shiladi.

Masalan: *a cliff-cliffs, a handkerchief-handkerchiefs, a safe-safes, a roof-roofs, etc.*

➤ **Istisno:**

Quyidagi "f" yoki "fe" harflari bilan tugagan birlikdagi otlar ko'plikka aylantirilganda "f" va "fe" harflari "ve" shakliga o'zgaradi:

<i>self-selves (shaxs)</i>	<i>wife-wives (rafiqa)</i>	<i>thief-thieves (o'g'ri)</i>	<i>knife-knives (pichoq)</i>
<i>wolf-wolves (bo'ri)</i>	<i>calf-calves (buzoq)</i>	<i>sheaf-sheaves (bog'lam)</i>	<i>leaf-leaves (barg)</i>
<i>life-lives (hayot)</i>	<i>half-halves (yarim)</i>	<i>elf-elves (elf)</i>	...
<i>shelf-shelves (tokcha)</i>	<i>ourself-ourselves (o'zimiz)</i>	<i>loaf-loaves (buxanka)</i>	...

➤ Istisno:

Ba'zi "f" va "fe" harflari bilan tugaydigan birlikdagi otlarni ko'plikka aylantirganda yuqorida aytib o'tilgan har ikkala holat qo'llanilishi mumkin.

<i>scarf-scarfs/scarves (sharf)</i>	<i>hoof-hoofs/hooves (tuyoq)</i>
<i>wharf-wharfs/wharves (bandargoh)</i>	<i>dwarf-dwarfs/dwarves (gnom)</i>

IRREGULAR PLURAL
(NOTO'G'RI KO'PLIK)

➤ Qoida 1:

Ba'zi birlikdagi otlar ko'plik sonda "-s" qo'shimchasini olmaydi. Ularning ko'pchiligi chet tilidan kirib kelgan so'zlar bo'lib, ba'zilar har ikkala - to'g'ri ("-s" qo'shimchasini qo'shish orqali) va noto'g'ri (boshqa yo'llar orqali) ko'plikda hosil qilinishi va quyidagicha shakliy o'zgarishlarga uchrashi mumkin:

1. "us" harflari bilan tugagan birlikdagi otlar ko'plikka aylanganda "us" harflari "i" shakliga o'zgaradi.

<i>alumnus-alumni (bitiruvchi)</i>	<i>stimulus-stimuli (turki)</i>	<i>cactus-cacti/cactuses (kaktus)</i>
<i>fungus-fungi/funguses (zamburug')</i>	<i>focus-foci/focuses (markaz)</i>	<i>nucleus-nuclei/nucleuses (yadro)</i>
<i>radius- radii/radiuses (radius)</i>	<i>bacillus-bacilli (batsilla bakteriyasi)</i>	<i>octopus-octopi/octopuses (sakkizoyoq)</i>
<i>hippopotamus-hippopotamuses/hippopotami (begemot)</i>		...

➤ Istisno:

Ba'zi "us" yoki "s" harflari bilan tugaydigan birlikdagi otlar ko'plikka aylanganda ularga yo "-es" qo'shimchasi qo'shiladi, yoki o'z birlik shaklini saqlab qoladi.

Masalan: *apparatus-apparatus/apparatuses (tashkilot)*, *rhinoceros-rhinoceros/rhinoceroses (karkidon)*, etc.

2. "is" harflari bilan tugagan birlikdagi otlar ko'plikka aylanganda "is" harflari "es" shakliga o'zgaradi.

<i>axis-axes (o'q)</i>	<i>ellipsis-ellipses (tushirib qoldirilish)</i>	<i>synopsis-synopses (konspekt)</i>
<i>analysis-analyses (tahlil)</i>	<i>hypothesis-hypotheses (faraz)</i>	<i>thesis-theses (tezis)</i>
<i>basis-bases (asos)</i>	<i>oasis-oases (voha)</i>	<i>parenthesis-parentheses (qavs)</i>
<i>crisis-crises (inqiroz)</i>	<i>paralysis-paralyses (falajlik)</i>	...
<i>diagnosis-diagnoses (tashxis)</i>	<i>synthesis-syntheses (aralashma)</i>	...

3. "ix", "ex" harflari bilan tugagan birlikdagi otlar ko'plikka aylanganda "ix", "ex" harflari "ices" shakliga o'zgaradi.

<i>appendix-appendices/appendices (ilova)</i>	<i>index-indeces/indexes (ko'rsatkich)</i>	<i>matrix-matrices/matrices (matritsa)</i>
---	--	--

4. "eau" harflari bilan tugagan birlikdagi otlar ko'plikka aylanganda "eau" harflari "eaux" shakliga o'zgaradi.

<i>beau-beaux/beaus (qalliq)</i>	<i>bureau- bureaux/bureaus (byuro)</i>	<i>tableau-tableaux/tableaus (tablo)</i>
----------------------------------	--	--

5. Ba'zi noto'g'ri ko'plikdagi otlar "en" harflari bilan tugaydi.

<i>child-children (bola)</i>	<i>man-men (erkak)</i>	<i>ox-oxen (ho'kiz)</i>	<i>woman-women (ayol)</i>
------------------------------	------------------------	-------------------------	---------------------------

6. Ba'zi noto'g'ri ko'plikdagi otlar "a" harfi bilan tugaydi.

<i>bacterium-bacteria (bakteriya)</i>	<i>genus-genera (nasl)</i>
<i>corpus-corpora/corpuses (asar to'plami)</i>	<i>phenomenon-phenomena (hodisa)</i>
<i>curriculum-curricula/curriculumums (reja)</i>	<i>medium-media/mediums (vosita)</i>
<i>criterion-criteria (mezon)</i>	<i>stratum-strata (qatlam)</i>
<i>datum-data (ma'lumot)</i>	<i>memorandum-memoranda/memorandumums (eslatma)</i>

7. Birlik otning o'rtasida kelgan "oo" harflari ko'plikka aylantirilganda "ee" shakliga o'zgaradi.

<i>foot-feet (oyoq)</i>	<i>goose-geese (g'oz)</i>	<i>tooth-teeth (tish)</i>
-------------------------	---------------------------	---------------------------

8. "a" harfi bilan tugagan birlikdagi otlar ko'plikka aylanganda "a" harfi "ae" shakliga o'zgaradi.

<i>antenna-antennae/antennas (antenna)</i>	<i>alumna-alumnae (ayol bitiruvchi)</i>
<i>formula-formulae/formulas (formula)</i>	<i>vita-vitae (qisqa avtobiografiya)</i>
<i>nebula-nebulae/nebulas (kosmik bulut)</i>	<i>vertebra-vertebrae (umurtqa)</i>

9. "ouse" harflari bilan tugagan birlikdagi otlar ko'plikka aylanganda "ouse" harflari "ice" shakliga o'zgaradi.

<i>louse-lice (bit)</i>	<i>mouse-mice (sichqon)</i>	...
-------------------------	-----------------------------	-----

10. Quyidagi birlikdagi otlarning ko'plik shakllari yasalganda hech qanday o'zgarish ro'y bermaydi:

<i>mackerel-mackerel</i> (skumbriya baliq'i)	<i>carp-carp</i> (zog'orabaliq)	<i>sheep-sheep</i> (qo'y)
<i>aircraft-aircraft</i> (havo kemasi)	<i>pike-pike</i> (cho'rtanbaliq)	<i>fish-fish</i> (baliq)
<i>swine-swine</i> (cho'chqa)	<i>salmon-salmon</i> (losos baliq'i)	<i>species-species</i> (tur)
<i>offspring-offspring</i> (chaqaloq)	<i>trout-trout</i> (forel baliq'i)	<i>deer-deer</i> (bug'u)
<i>caribou-caribou</i> (kanada bug'usi)	<i>cod-cod</i> (treska baliq'i)	<i>means-means</i> (vosita)
<i>grouse-grouse</i> (chil qushi)	<i>plaice-plaice</i> (qalqon baliq)	<i>moose-moose</i> (los)
<i>elk-elk</i> (los)	<i>series-series</i> (seriya)	...

➤ **Izoh:**

Baliq turlari nazarda tutilganda "fish" ning ko'pligi "fishes" bo'ladi. Shuningdek, quyidagi otlar baliqning ma'lum turini nazarda tutganligi sababli ularning ko'plik shakllari "-s" qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi:

<i>crab-crabs</i> (krab baliq'i)	<i>whale-whales</i> (kit)	<i>shark-sharks</i> (akula)
<i>herring-herrings</i> (seld baliq'i)	<i>eel-eels</i> (ilonbaliq)	<i>dolphin-dolphins</i> (delfin)
<i>sardine-sardines</i> (sardina baliq'i)	<i>lobster-lobsters</i> (omar baliq'i)	...

11. "Person" so'zining ikki xil ko'plik shakli mavjud bo'lib, sanoq son bilan kishilar miqdori ko'rsatilganda har ikkala variant ham ishlatilishi mumkin.

<i>person-people</i> (odamlar)	<i>person-persons</i> (shaxslar)
--------------------------------	----------------------------------

Masalan: *Over the last few years about 300 persons/people have taken IELTS examination.*

➤ **Izoh:**

"People" so'zi "xalq" ma'nosini anglatib kelganda ko'pligi "peoples" shaklini oladi.

Masalan: *All Indian peoples in America were polytheistic, worshipping a multitude of gods.*

12. "Penny" so'zining ikki xil ko'plik shakli mavjud bo'lib, har ikkala variant ham bir ma'noda ishlatilmaydi.

<i>penny-pence</i> (pul birligi)	<i>penny-pennies</i> (tangalar, chaqalar)
----------------------------------	---

Masalan: *The bus fare is 80 pence (pennies). I have only got a few pennies (pence) left.*

UNCOUNTABLE NOUNS
(SANALMAYDIGAN OTLAR)

➤ **Qoida 1:**

Barcha donalab sanab bo'lmaydigan otlarga *sanalmaydigan otlar* deyiladi. Sanalmaydigan otlardan oldin "a" yoki "an" noaniq artikllari ishlatilmaydi. Egasi sanalmaydigan ot bilan ifodalangan gaplarning kesimi doim birlikda keladi. Quyidagilar sanalmaydigan otlarga misol bo'la oladi:

1. **Suyuqliklar**

Masalan: *water* (suv), *tea* (choy), *coffee* (qahva), *milk* (sut), *honey* (asal), *lemonade* (limonad), *soup* (sho'rva), *beer* (pivo), *wine* (vino), *champagne* (shampan), *oil* (neft), *petrol* (benzin), *blood* (qon), *shampoo* (shampun), etc.

2. **Gazlar**

Masalan: *air* (havo), *oxygen* (kislород), *hydrogen* (vodород), *nitrogen* (azot), *carbon monoxide* (karbonat angidrid), *natural gas* (tabiiy gaz), *methane* (metan), *propane* (propan), *smoke* (tutun), *steam* (bug'), etc.

3. **Qattiq moddalar**

Masalan: *bread* (non), *butter* (saryog'), *cheese* (pishloq), *meat* (go'sht), *fruit* (meva), *ice* (muz), *iron* (temir), *steel* (po'lat), *coal* (ko'mir), *glass* (shisha), *wood* (yog'och), *paper* (qog'oz), *rubber* (rezina), *plastic* (plastik), etc.

4. **Kukunlar va granularlar**

Masalan: *sugar* (shakar), *salt* (tuz), *pepper* (murch), *grain* (zarra), *corn* (makkajo'xori), *wheat* (bug'doy), *barley* (arpa), *rice* (guruch), *maize* (suli), *flour* (un), *starch* (kraxmal), *sand* (qum), *cement* (sement), *dust* (chang), etc.

5. **Mavhum otlar**

Masalan: *beauty* (chiroy), *charity* (xayriya), *faith* (iymon), *poverty* (qashshoqlik), *slavery* (qullik), *unemployment* (ishsizlik), *violence* (zulm), *news* (yangilik), *advice* (maslahat), *freedom* (ozodlik), *friendship* (do'stlik), *peace* (tinchlik), etc.

6. **His-tuyg'ular**

Masalan: *admiration* (havas), *anger* (jah), *anxiety* (xavotir), *calmness* (sokinlik), *compassion* (achinish), *confidence* (ishonch), *courage* (jur'at), *curiosity* (qiziquvchanlik), *despair* (tushkunlik), *hatred* (nafrat), *enthusiasm* (ishtiyoq), *love* (sevgi), etc.

7. **Holatni bildiruvchi otlar**

Masalan: *health* (sog'lik), *sleep* (uyqu), *silence* (jimlik), *laughter* (kulgu), *stress* (stress), *sanity* (aqli rasolik), *insanity* (telbalik), *motherhood* (onalik), *childhood* (bolalik), *youth* (yoshlik), *age* (yosh), etc.

8. Turli mashg'ulotlar

Masalan: *reading (o'qish), writing (yozish), studying (o'rganish), walking (sayr qilish), running (yugurish), driving (haydash), travelling (sayohat qilish), gardening (bog'dorchilik), shopping (xarid qilish), dancing (raqs tushish), etc.*

9. Fan sohalari

Masalan: *mathematics (matematika), physics (fizika), chemistry (kimyo), geography (geografiya), biology (biologiya), history (tarix), economics (iqtisod), literature (adabiyot), law (huquq), politics (siyosat), etc.*

10. Til nomlari

Masalan: *English (ingliz tili), Uzbek (o'zbek tili), Tajik (tojik tili), Russian (rus tili), Arabic (arab tili), German (nemis tili), French (fransuz tili), Spanish (ispan tili), Italian (italyan tili), Dutch (golland tili), Finnish (fin tili), Polish (polyak tili), etc.*

11. Sport mashg'ulotlari

Masalan: *basketball (basketbol), football (futbol), baseball (beysbol), volleyball (voleybol), tennis (tennis), gymnastics (gimnastika), athletics (atletika), chess (shaxmat), draughts (shashka), billiards (bilyard), etc.*

12. Tabiat hodisalari

Masalan: *energy (energiya), light (yorug'lik), electricity (elektr quvvati), sunshine (quyosh muri), fire (olov), weather (ob-havo), thunder (momoqaldiroq), lightning (chaqmoq), snow (qor), frost (qirov), dew (shudring), heat (issiqlik), rain (yomg'ir), etc.*

13. Kasallik nomlari

Masalan: *pneumonia (zotiljam), diabetes (diabet), diphtheria (bo'g'ma), tuberculosis (sil), cancer (saraton), sclerosis (skleroz), appendicitis (ko'richak), measles (qizamiq), mumps (teпки), etc.*

14. Boshqa otlar

Masalan: *food (oziq-ovqat), furniture (mebel), equipment (jihoz), transportation (transport), traffic (qatnov), software (dastur), baggage (yuk), mail (pochta), money (pul), clothing (kiyim), jewellery (taqinchoq), hair (soch), grass (o't), etc.*

BA'ZI OTLARGA TEGISHLI MAXSUS HOLATLAR

➤ Qoida 1:

Ba'zi otlar ma'nosiga ko'ra ham sanaladigan, ham sanalmaydigan bo'lishi mumkin. Gapda sanaladigan bo'lib kelgan otlar sanalmaydigan bo'lib kelganidan ma'nosida tubdan farq qilishi mumkin va grammatik ahamiyatga egadir. Quyidagi otlar shular jumlasidandir:

1. Accommodation

a) *"turar joy" ma'nosida sanalmaydi;*

Masalan: *The price for the holiday includes flights and accommodation.*

b) *"kelishuv", "bitim" ma'nosida sanaladi.*

Masalan: *We reached an accommodation between both parties.*

2. Aid

a) *"yordam", "ko'mak" ma'nosida sanalmaydi;*

Masalan: *He has been granted legal aid.*

b) *"yordamchi" ma'nosida sanaladi.*

Masalan: *A video is a useful aid in the classroom.*

3. Art

a) *"san'at" ma'nosida sanalmaydi;*

Masalan: *My nephew is studying Modern Art in New York.*

b) *"mahorat", "qobiliyat" ma'nosida sanaladi.*

Masalan: *Writing advertisements is quite an art.*

4. Ballet

a) *"balet" raqs turi ma'nosida sanalmaydi;*

Masalan: *His dream was to study ballet.*

b) *"tomosha" ma'nosida sanaladi.*

Masalan: *We're going to a ballet tomorrow evening.*

5. Beauty

a) *"go'zallik" ma'nosida sanalmaydi;*

Masalan: *I couldn't help looking at her beauty and grace.*

b) "go'zal ayol" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *She was considered a great beauty in her youth.*

6. Beer

a) "pivo ichimligi" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *They sell draught beer.*

b) stakandagi pivo yoki pivo turlarini ifodalaganda sanaladi.

Masalan: *Do you fancy a beer?*

7. Bread

a) "non" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *Would you like some bread with your soup?*

b) nonning turlari ifodalanganda sanaladi.

Masalan: *I have to buy three breads: a loaf of gluten-free, two loaves of sour-dough rye, and a white loaf for my new neighbour.*

8. Business

a) faoliyat turi ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *Students on the course learn about all aspects of business.*

b) "korxonalar", "firma" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *They don't know how to run a business.*

9. Cheese

a) "pishloq" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *We had some coffee and cheese for breakfast.*

b) pishloq turlari ifodalanganda sanaladi.

Masalan: *Visitors liked a selection of English cheeses.*

10. Cinema

a) "kinosanoat" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *A leading figure in Italian cinema visited Samarkand last year.*

b) "kinoteatr" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *Even though our town isn't so big, there are two cinemas in it.*

11. Coffee

a) ichimlik ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *Do you like your coffee with or without milk?*

b) "bir piyola qahva" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *Would you like a coffee?*

12. Currency

a) "muomaladagi pul" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *Since then the exchange value of the currency has fallen by 78 per cent.*

b) "pul birligi" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *The US dollar ended lower against most other currencies in London.*

13. Danger

a) "xavf-xatar" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *He drove so fast that I really felt my life was in danger.*

b) "xavfli shaxs/narsa" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *The judge described him as a danger to society.*

14. Delight

a) "zavq-shavq" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *He seems to take great delight in teasing his sister.*

b) "zavq beruvchi kishi/narsa" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *My sister's little boy is a real delight.*

15. Depression

a) "tushkunlik" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *I was overwhelmed by feelings of depression.*

b) "chuqurlik", "botiq joy" ma'nolarida sanaladi.

Masalan: *Depressions in the ground hindered the speed of the car.*

16. Dessert

a) "desert" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *For dessert there's apple pie, cheesecake and fruit.*

b) desert turlari ifodalanganda sanaladi.

Masalan: *If you make the main course, I'll make a dessert.*

17. Employment

a) "bandlik" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *How long have you been looking for employment?*

b) "xizmat" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *Pensions from previous employments are maintained by the government.*

18. Enjoyment

a) "huzur", "rohat" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *Few activities better the enjoyment of a hearty meal eaten in a good company.*

b) "huzur beruvchi narsa" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *He told us of the many enjoyments he'd found in living a simple life.*

19. Entertainment

a) "vaqtichog'lik", "ko'ngilxushlik" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *All of her films are made for entertainment, but they also teach us something important.*

b) "ko'ngilochar tadbir" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *A tourist office has a list of local entertainments in which films, performances intended to amuse people are included.*

20. Experience

a) "malaka" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *They offered me the job because I had a lot of experience.*

b) "sarguzasht" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *We had some interesting experiences while we were away.*

21. Failure

a) "omadsizlik", "muvaffaqiyatsizlik" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *Their attempt to climb the Eiger ended in failure.*

b) "omadsiz odam/narsa" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *The meeting was a complete failure.*

22. Faith

a) "ishonch", "e'tiqod" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *You'll cope - I have great faith in you.*

b) "din" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *The children are learning to understand the people of different faiths by having conversation and exchanging information about their backgrounds.*

23. Food

a) "oziq-ovqat" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *After three days without food, the men were close to starvation.*

b) oziq-ovqat turlarini ifodalaganda sanaladi.

Masalan: *Campaigners are challenging the safety of genetically-modified foods.*

24. Freedom

a) "ozodlik", "hurriyat" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *Teenagers always complain about not having enough freedom.*

b) *“huquq”* ma’nosida sanaladi.

Masalan: *Certain rights and freedoms are guaranteed by the constitution.*

25. Fruit

a) *“meva”* ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *My youngest son loves fruit, but he doesn't like vegetables much.*

b) meva turlarini ifodalaganda sanaladi.

Masalan: *He really loves tropical fruits like mangoes, pawpaws and pineapples.*

26. Fuel

a) *“yoqilg‘i”* ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *Mum thinks her car's broken down, but it's just run out of fuel.*

b) yoqilg‘i turlarini ifodalaganda sanaladi.

Masalan: *One day we'll run out of fossil fuels like oil, coal and natural gas.*

27. Gas

a) *“gaz”* ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *Did you know that a cow emits around 200 litres of gas a day by burping?*

b) gaz turlarini ifodalaganda sanaladi.

Masalan: *Cows emit methane, one of the many gases that cause global warming.*

28. Glass

a) *“shisha”* ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *Milk used to be sold in glass bottles, but now it comes in plastic containers.*

b) *“shisha idish/stakan”* ma’nosida sanaladi.

Masalan: *My daughter knocked over a glass of milk and it spilt all over the table.*

29. Gold

a) *“oltin”* ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *Is this ring made of pure gold, or is it just gold-plated?*

b) *“tillo buyum”* yoki *“tillo rang”* ma’nosida sanaladi.

Masalan: *The painting has all the golds and browns you find in autumn leaves.*

30. Gossip

a) *“g‘iybat”* ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *Websites that spread gossip about celebrities can make a huge amount of money.*

b) *“g‘iybatchi”* ma’nosida sanaladi.

Masalan: *All the gossips stood around the water cooler sharing their latest stories.*

31. Grammar

a) *“qoida”* ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *Check your spelling and grammar.*

b) *“grammatik qo‘llanma”* ma’nosida sanaladi.

Masalan: *A dictionary lists the words, a grammar states the rules.*

32. Grass

a) *“maysa”* ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *The longest grass on a golf course is in the rough, and the shortest grass is on the greens.*

b) maysa turlari ifodalanganda sanaladi.

Masalan: *A number of different grasses are used to make the surface of a tennis court at Wimbledon.*

33. Ground

a) *“yerning yuzasi”* ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *We didn't have anything to sit on, so we sat on the ground.*

b) *“hudud”*, *“maydon”* ma’nosida sanaladi.

Masalan: *The army wants this area to be used as a parade ground.*

34. Hair

a) “soch” ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *He has got dark hair.*

b) “soch tolasi” ma’nosida sanaladi.

Masalan: *I found a hair in my soup.*

35. Heat

a) “issiqlik” ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *He couldn’t stand the heat, so he got out of the sauna.*

b) “musobaqaning bosqichi” ma’nosida sanaladi.

Masalan: *If we win all our heats, we’ll get into the final match.*

36. Height

a) “balandlik” ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *My son is fourteen, and he’s already the same height as me.*

b) “baland lavozim” yoki “baland joy” ma’nosida sanaladi.

Masalan: *If I look straight down from a great height, I feel dizzy.*

37. Ice cream

a) “muzqaymoq” ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *I was bored so I ate a whole tub of ice cream, and then I felt sick as well.*

b) “muzqaymoq bo’lagi” ma’nosida sanaladi.

Masalan: *I can’t go that way because I always buy an ice cream when I go past that shop.*

38. Injustice

a) “adolatsizlik” ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *Mary says she wants to work with people who fight injustice in the world.*

b) “adolatsiz qaror/vaziyat/harakat” ma’nosida sanaladi.

Masalan: *The report describes many of the injustices that poor people face every day.*

39. Iron

a) “temir” ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *Pots and pans used to be made of iron, but now they’re made of stainless steel which can be heated faster and keep warmth longer than iron.*

b) “dazmol” ma’nosida sanaladi.

Masalan: *Let the iron get hot before you start ironing the clothes.*

40. Jam

a) “murabbo” ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *Would you like some strawberry jam with your toast, madam?*

b) “tirbandlik” ma’nosida sanaladi.

Masalan: *Brad said he was late because he was caught in a traffic jam.*

41. Joy

a) “quvonch” ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *When the band heard that their song was a hit, they all jumped for joy.*

b) “quvontiruvchi odam/narsa” ma’nosida sanaladi.

Masalan: *They described all the joys of being a parent, but they didn’t mention the sleepless nights.*

42. Juice

a) “sharbat” ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *A: Do you buy juice from the supermarket, or do you make it at home? B: Juice made at home is better than that is sold in supermarkets. So I make it at home.*

b) stakandagi sharbat yoki sharbat turlari ifodalanganda sanaladi.

Masalan: *I’ll have two beers and an orange juice, please.*

43. Kindness

a) “mehribonchilik” ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *A baby chick had fallen from its nest, and Tim’s natural kindness made him want to help it.*

b) **“yaxshilik”** ma’nosida sanaladi.

Masalan: *My mother thanked the nurses for their many small kindnesses while she was in their care.*

44. Land

a) **“yerning yuzasi”** ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *Europeans moved to Australia and forced people off the land they’d lived on for 50,000 years.*

b) **“mamlakat”** yoki **“mintaqa”** ma’nosida sanaladi.

Masalan: *When I was young, I loved reading stories about strange people in foreign lands.*

45. Love

a) **“sevgi”, “muhabbat”** ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *People say there is no stronger bond than a mother’s love for her child.*

b) **“sevikli kishi/narsa”** ma’nosida sanaladi.

Masalan: *Even though Ben’s first love was tennis, he became a professional golfer.*

46. Marble

a) **“marmar”** ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *They must have spent a small fortune on all that marble in the bathrooms and the floors.*

b) **“shisha ko‘ptokcha”** ma’nosida sanaladi.

Masalan: *Like all my friends at school, I had a bag of marbles that I played with at lunchtime.*

47. Meat

a) **“go’sht”** ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *My daughter says that eating meat is bad for our health and bad for our planet.*

b) **go’sht turlari** ifodalanganda sanaladi.

Masalan: *I like all the meats that are eaten in Britain, except for pork and ox tongue.*

48. Metal

a) **“metall”** ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *The belt’s buckle is made of metal, and the strap is made of leather.*

b) **metall turlari** ifodalanganda sanaladi.

Masalan: *Silver, gold and platinum are some of the most expensive precious metals.*

49. Nature

a) **“tabiat”** ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *It is useful for people’s health to relax in nature.*

b) **“xarakter”** ma’nosida sanaladi.

Masalan: *An animal like a deer can have a very shy nature, while animals like monkeys can have very lively natures.*

50. Noise

a) **“shovqin”** ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *The neighbours said we were making too much noise, so I told everyone at my party to be quieter.*

b) **“tovush”** ma’nosida sanaladi.

Masalan: *I heard a strange noise coming from outside the window, but I was too scared to see what it was.*

51. Oil

a) **“yog”** yoki **“neft”** ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *Many countries in the Middle East make a lot of money from exporting oil.*

b) **yog’ yoki neftning ma’lum turlari** ifodalanganda sanaladi.

Masalan: *My daughter’s a vegetarian, so we have lots of different vegetable oils in our kitchen cupboards.*

52. Paper

a) **“qog’oz”** ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *The writer had to buy some paper to write his works.*

b) **“gazeta”** ma’nosida sanaladi.

Masalan: *She went into the shop and bought a paper with latest news on it.*

53. Power

a) "kuch-qudrat" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *People should have more power over the decisions that affect their lives.*

b) "hokimiyat" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *The police have been given special powers to help them in the fight against terrorism so that they could maintain peace in some places.*

54. Pride

a) "faxr" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *Luis felt a great deal of pride when his son scored the winning goal in the World Cup.*

b) "to'da" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *During the day, most of the lions in the pride would sleep in the shade under the trees.*

55. Production

a) "ishlab chiqarish" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *If we can reduce the cost of production, we can sell our products at cheaper prices.*

b) "spektakl", "sahna asari" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *If a theatre company can take its productions overseas, it can make a lot of money.*

56. Pronunciation

a) "talaffuz" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *She's only been learning English for a year, but her pronunciation is already very good.*

b) alohida olingan so'zning talaffuzini ifodalaganda sanaladi.

Masalan: *Good dictionaries include alternative spellings and alternative pronunciations if they exist.*

57. Quality

a) "sifat" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *Products of high quality are usually more expensive than products of low quality.*

b) "xususiyat" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *Jenny's best qualities are her kindness and her willingness to help other people.*

58. Quantity

a) "miqdor" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *Economists mention both quality and quantity when they talk about the cost of production.*

b) ma'lum bir narsaning turli xil miqdorlari ifodalanganda sanaladi.

Masalan: *The police raided several homes and found various quantities of illegal drugs.*

59. Room

a) "joy" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *Is there enough room in the yard for a swimming pool?*

b) "xona" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *She opened the door and entered a room full of beautiful old furniture.*

60. Salad

a) "salat" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *I tell my son that salad is very good for him, but he still doesn't want to eat it.*

b) salatning turini yoki miqdorini ifodalaganda sanaladi.

Masalan: *The waiter asked me if I'd ordered a green salad or a Greek salad?*

61. Satire

a) "satira" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *The writer uses satire to make fun of politics and to make politicians look stupid, ignorant or crazy.*

b) "satirik asar" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *The book is a biting satire on those who believe the world would be safer if most of us carried guns.*

62. Silence

a) "jimjitlik" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *The only time I've experienced total silence was when I was alone in the desert.*

b) *“sukut”* ma’nosida sanaladi.

Masalan: *Whenever there’s a long silence, I try to think of something to say.*

63. Sleep

a) *“uyqu”* ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *Fish and reptiles also need regular periods of sleep.*

b) *“bir uxlab olish”* ma’nosida sanaladi.

Masalan: *If I wake up too early in the morning, I have a short sleep after lunch.*

64. Smoke

a) *“tutun”* ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *If the wind blew the wrong way, smoke would billow out of my grandma’s wood stove and fill the kitchen.*

b) *“sigaret”* yoki *“bir chekish”* ma’nosida sanaladi.

Masalan: *Every couple of hours, Jimmy would grab his cigarettes and step outside the office for a smoke.*

65. Soil

a) *“tuproq”* ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *If lots of leaves have decomposed in the soil, it’ll be good for growing plants.*

b) tuproqning turlari ifodalanganda sanaladi.

Masalan: *Geology includes the study of different rocks and soils.*

66. Sorrow

a) *“qayg’u”, “iztirob”* ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *One of the functions of religion is to help people deal with loss and sorrow.*

b) *“qayg’uli voqea”* ma’nosida sanaladi.

Masalan: *My sister’s already had too many sorrows this year, and now her dog’s died as well.*

67. Space

a) *“bo’sh joy”* ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *There wasn’t enough space on my computer’s hard-drive for all the movies I wanted to download.*

b) *“bo’shliq”* ma’nosida sanaladi.

Masalan: *The Thai language is difficult to read because there are no spaces between the words.*

68. Speed

a) *“tezlik”* ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *Most people hate those machines the police use on the side of the road to measure speed.*

b) turli xil tezlik o’lchovlari nazarda tutilganda sanaladi.

Masalan: *Many young men love the excitement they feel when riding a motorbike at dangerous speeds.*

69. Spelling

a) *“harflarni talaffuz qilish”* ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *When I was at school, my spelling was really terrible.*

b) harflarni talaffuz qilish turlarini ifodalaganda sanaladi.

Masalan: *My dictionary also has British and American spellings if they’re different to ours.*

70. Sport

a) *“sport”* ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *My nephew isn’t very good at maths and science, but he’s very good at sport.*

b) sportning turlari ifodalanganda sanaladi.

Masalan: *In summer we played sports like cricket and tennis, but in winter we only played football.*

71. Strength

a) *“kuch-quvvat”* ma’nosida sanalmaydi;

Masalan: *The refrigerator was really heavy, and lifting it took all our strength.*

b) *“kuchli tomon”, “xususiyat”* ma’nosida sanaladi.

Masalan: *Julia’s greatest strength is her ability to see and overcome her own weaknesses.*

72. Success

a) "muvaffaqiyat" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *Most people think success means making lots of money and achieving high social status.*

b) "muvaffaqiyatli kishi/hodisa/natija" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *Everyone said that this year's film festival was a great success.*

73. Sugar

a) "shakar" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *Soft drinks that contain a lot of sugar can contribute to obesity.*

b) shakarning turlari yoki miqdori ifodalanganda sanaladi.

Masalan: *Are plant sugars better for you than artificial sweeteners?*

74. Tea

a) "choy" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *Would you like tea or coffee with your breakfast?*

b) choyni turlari yoki miqdori ifodalanganda sanaladi.

Masalan: *We'll have two teas and a coffee, please.*

75. Time

a) "vaqt" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *How much time do we need to paint the walls?*

b) "marta", "zamon", "davr" ma'nolarida yoki turli xil vaqtlar ifodalanganda sanaladi.

Masalan: *I called him at various times yesterday.*

76. Toast

a) "non bo'lagi" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *How many pieces of toast would you like with your breakfast?*

b) "qadah" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *After we'd finished proposing toasts, I was starting to feel a bit drunk. However, I knew what I was talking about.*

77. Trust

a) "ishonch" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *People put their trust in politicians, but politicians often betray that trust.*

b) "omonat" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *The money the children inherited will be put in trusts until they're adults.*

78. Understanding

a) "tushuncha" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *Most rich people have little understanding of the problems poor people face.*

b) "kelishuv", "bitim" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *He came to an understanding that they wouldn't ask him about his family.*

79. Vision

a) "ko'rish qobiliyati" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *Grandma's vision is still perfect, but her hearing is getting weaker.*

b) "tasavvur" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *To succeed, a company needs people who share a vision of its future direction.*

80. Weight

a) "vazn" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *If you eat a lot and don't exercise enough, your weight will probably increase.*

b) "shtanga", "og'ir yuk" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *After Arnold started working out with weights, his muscles got much bigger.*

81. Whisky

a) ichimlik ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *I drink beer and wine, but I don't drink vodka or whisky.*

b) stakandagi viski yoki viski turlari ifodalanganda sanaladi.

Masalan: *Would you like to join me for a whisky after dinner?*

82. Width

a) "kenglik" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *The width of a rectangle is always shorter than its length.*

b) birov nimaning eni ifodalanganda sanaladi.

Masalan: *How much does a width of that green silk cost?*

83. Wine

a) ichimlik ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *In many Italian families, kids can have a small glass of wine with their dinner if they want to. But in some other countries giving wine to kids isn't considered to be the right idea.*

b) stakandagi vino yoki vinoning turlari ifodalanganda sanaladi.

Masalan: *Is it true that some of the best wines are being made in Australia these days?*

84. Wood

a) "yog'och" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *My wife is much stronger than me, so she chops all the wood we burn in our fires.*

b) yog'ochning turlari ifodalanganda sanaladi.

Masalan: *Many woods are great for making furniture, but my favourites are teak and English oak.*

85. Work

a) "ish" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *My uncle Bill is very lazy, and he's never done a full day's work in his life.*

b) yozuvchi yoki rassom asarlari ifodalanganda sanaladi.

Masalan: *Van Gogh was a great painter, but very few people bought his works while he was alive.*

86. Youth

a) "yoshlik" ma'nosida sanalmaydi;

Masalan: *My cousin did lots of exciting things during his youth, but then he became a tax consultant.*

b) "yosh yigir" ma'nosida sanaladi.

Masalan: *Youths in brightly-coloured shirts chased a ball on a field to impress the young females of their tribe.*

MEASURE WORDS WITH UNCOUNTABLE NOUNS
(SANALMAYDIGAN OTLARNING MIQDOR KO'RSATKICHLARI)

➤ **Qoida 1:**

Ba'zan sanalmaydigan otlarning miqdor ko'rsatkichlarini ko'rsatib, ularni sanaladigan otlarga aylantirishimiz mumkin. Quvida ma'lum bir sanalmaydigan otlarning xos miqdor ko'rsatkichlari berilgan:

MIQDOR KO'RSATKICHLAR	SANALMAYDIGAN OTLAR
<i>a bag of (bir qop)</i>	<i>flour, rice, sugar, etc.</i>
<i>a bar of (bir bo'lak)</i>	<i>chocolate, soap, gold, etc.</i>
<i>a barrel of (bir barrel)</i>	<i>oil, beer, etc.</i>
<i>a beam/shaft of (shu'la)</i>	<i>light, sunlight, moonlight, etc.</i>
<i>a bit of (biroz)</i>	<i>news, gossip, work, etc.</i>
<i>a bottle of (bir shisha)</i>	<i>water, milk, beer, perfume, etc.</i>
<i>a bowl of (bir kosa)</i>	<i>soup, rice, fruit, water, etc.</i>
<i>a box of (bir quti)</i>	<i>cereal, chocolate, etc.</i>
<i>a bucket of (bir paqir)</i>	<i>water, oil, etc.</i>
<i>a bundle of (bir bog'lam)</i>	<i>wheat, hay, paper, cotton, wool, etc.</i>
<i>a can of (bir tumuka banka)</i>	<i>cola, beer, hairspray, paint, etc.</i>
<i>a carton of (bir quti)</i>	<i>juice, milk, etc.</i>
<i>a cloud of (bir to'p)</i>	<i>dust, smoke, mist, etc.</i>
<i>a collection of (bir to'plam)</i>	<i>work, writing, poetry, etc.</i>
<i>a crumb of (bir parcha/ushoq)</i>	<i>bread, cake, etc.</i>
<i>a cup of (bir piyola)</i>	<i>coffee, tea, hot chocolate, etc.</i>
<i>a dose of (bir doza)</i>	<i>medicine, flu, radiation, etc.</i>
<i>a drop of (bir tomchi)</i>	<i>water, oil, rain, paint, sauce, etc.</i>
<i>a flake of (bir parcha)</i>	<i>snow, chocolate, etc.</i>
<i>a game of (o'yin)</i>	<i>chess, football, draught, etc.</i>
<i>a glass of (bir stakan)</i>	<i>water, wine, juice, etc.</i>
<i>a grain of (bir zarra)</i>	<i>sand, sugar, salt, etc.</i>
<i>an amount of (bir miqdor)</i>	<i>money, time, dirt, etc.</i>
<i>an item of (bir qism)</i>	<i>news, expenditure, clothing, etc.</i>
<i>a jar of (bir banka)</i>	<i>honey, jam, coffee, etc.</i>
<i>a jug of (bir grafin)</i>	<i>water, juice, wine, etc.</i>
<i>a keg of (bir bochka)</i>	<i>beer, kvass, etc.</i>
<i>a kilo of (bir kilo)</i>	<i>meat, rice, flour, etc.</i>
<i>a litre of (bir litr)</i>	<i>water, oil, milk, etc.</i>
<i>a loaf of (bir buxanka)</i>	<i>bread, etc.</i>
<i>a lump of (bir parcha)</i>	<i>mud, clay, coal, etc.</i>
<i>a pack/package of (bir qadoq)</i>	<i>sugar, biscuit, meat, etc.</i>
<i>a piece of (bir bo'lak)</i>	<i>advice, furniture, homework, cheese, etc.</i>
<i>a pile of (bir uyum)</i>	<i>rubbish, garbage, snow, etc.</i>
<i>a pane of (bir panel)</i>	<i>glass, etc.</i>
<i>a pinch of (bir chimdim)</i>	<i>salt, sugar, pepper, etc.</i>
<i>a pot of (bir idish)</i>	<i>ink, paint, coffee, etc.</i>
<i>a roll of (bir o'ram)</i>	<i>paper, scotch, tape, etc.</i>
<i>a set of (bir to'plam)</i>	<i>china, cutlery, underwear, etc.</i>
<i>a sheet of (bir varaq)</i>	<i>paper, metal, cardboard, etc.</i>
<i>a slice of (bir tilim)</i>	<i>butter, cheese, bread, meat, cake, etc.</i>
<i>a spool of (bir g'altak)</i>	<i>thread, wire, etc.</i>
<i>a spoonful of (bir qoshiq)</i>	<i>sugar, medicine, soup, etc.</i>
<i>a strand of (bir tola)</i>	<i>hair, thread, wire, etc.</i>
<i>a tablespoon of (bir osh qoshiq)</i>	<i>sugar, medicine, salt, etc.</i>
<i>a tank of (bir bak)</i>	<i>beer, petrol, oil, etc.</i>
<i>a teaspoon of (bir choy qoshiq)</i>	<i>medicine, salt, pepper, etc.</i>
<i>a tin of (bir tumuka banka)</i>	<i>tuna, fish, meat, etc.</i>
<i>a tub of (bir jom)</i>	<i>ice cream, margarine, etc.</i>
<i>a tube of (bir tuba)</i>	<i>toothpaste, gel, oil, etc.</i>

Masalan: They bought two cans of paint yesterday. Even a dose of radiation can be lethal for every living thing. In order to get over the flu completely, he has to take a teaspoon of medicine every day. She tasted the soup and added two pinches of salt. After he had found two strands of hair in his soup, he lost his appetite and stopped eating.

ABSTRACT NOUNS
(MAVHUM OTLAR)

➤ **Qoida 1:**

Barcha ko'rib, ushlab, eshitib, hidlab, tatib ko'rib bo'lmaydigan otlarga *mavhum otlar* deyiladi. Mavhum otlar sanalmaydigan otlar sirasiga kiradi va gapda ega bo'lib kelganda kesimi doim birlikda keladi. Quyidagilar mavhum otlarga misol bo'la oladi:

1. His-tuyg'ular:

Masalan: *love (sevgi), hate (nafrat), anger (g'azab), peace (tinchlik), pride (g'urur), sympathy (hamdardlik), admiration (havas), anxiety (xavotir), happiness (baxt), joy (quvonch), confidence (ishonch), despair (noumidlik), envy (hasad), etc.*

2. Holat va xususiyatni bildiruvchi otlar:

Masalan: *bravery (jasurlik), loyalty (sadoqat), honesty (halollik), integrity (viydon), compassion (achinish), charity (xayriya), success (muvaffaqiyat), courage (jasorat), skill (mahorat), beauty (chiroy), pain (og'riq), misery (qayg'u), etc.*

3. Fikrlar va tushunchalar:

Masalan: *belief (ishonch), dream (orzu), justice (adolat), truth (haqiqat), faith (e'tiqod), liberty (ozodlik), knowledge (bilim), thought (fikir), information (ma'lumot), culture (madaniyat), trust (ishonch), dedication (fidokorlik), etc.*

4. O'zgarish va hodisalar:

Masalan: *progress (taraqqiyot), education (ta'lim), hospitality (mehmondo'stlik), leisure (bo'sh vaqt), trouble (muammo), friendship (do'stlik), relaxation (dam olish), etc.*

➤ **Qoida 2:**

Quyidagi suffikslar bilan hosil qilinadigan otlar ko'pincha mavhum otlar hisoblanadi:

-tion	-ment	-ance	-ability	-sion	-ity	-ship
-ism	-ness	-ence	-acy	-ty	-age	-hood

Masalan: *information (ma'lumot), humanism (insonparvarlik), enjoyment (huzur), kindness (mehribonlik), maintenance (ta'mirlash), interference (aralashuv), profitability (foydalilik), privacy (daxlsizlik), illusion (xomhayol), loyalty (sadoqat), dignity (viqor), voltage (kuchlanish), friendship (do'stlik), childhood (bolalik), etc.*

COMPOUND NOUNS
(QO'SHMA OTLAR)

➤ **Qoida 1:**

Ikki va undan ortiq so'zning o'zaro qo'shilishidan hosil bo'lgan otlarga *qo'shma otlar* deyiladi. Ular quyidagi usullar bilan yasalishi mumkin:

SO'Z TURKUMI		SO'Z TURKUMI	MISOL
<i>adjective</i>	+	<i>noun</i>	<i>blackboard (yozuv taxtasi)</i>
<i>adjective</i>	+	<i>verb</i>	<i>highlight (asosiy belgilangan qism)</i>
<i>noun</i>	+	<i>adjective</i>	<i>snow white (qorqiz)</i>
<i>noun</i>	+	<i>noun</i>	<i>toothpaste (tish pastasi)</i>
<i>noun</i>	+	<i>preposition (adverb)</i>	<i>hanger-on (tekinxo'r)</i>
<i>noun</i>	+	<i>verb</i>	<i>haircut (soch turmagi)</i>
<i>preposition</i>	+	<i>(adverb)/noun</i>	<i>underground (metro)</i>
<i>preposition (adverb)</i>	+	<i>verb</i>	<i>outlook (dunyogarash)</i>
<i>verb</i>	+	<i>noun</i>	<i>breakwater (suv to'lqinini qaytaruvchi devor)</i>
<i>verb</i>	+	<i>preposition (adverb)</i>	<i>drawback (kamchilik, nuqson)</i>

➤ **Qoida 2:**

Qo'shma otlarning ko'plik shaklini yasashda ko'plik qo'shimchasi asosiy qismga qo'shiladi.

Masalan:

BIRLIK	KO'PLIK
<i>animal hospital (hayvonlar kasalxonasi)</i>	<i>animal hospitals (hayvonlar kasalxonalari)</i>
<i>bus driver (avtobus haydovchisi)</i>	<i>bus drivers (avtobus haydovchilari)</i>
<i>car park (avto turargoh)</i>	<i>car parks (avto turargohlar)</i>
<i>dining table (oshxona stoli)</i>	<i>dining tables (oshxona stollari)</i>
<i>language teacher (til o'qituvchisi)</i>	<i>language teachers (til o'qituvchilari)</i>
<i>washing machine (kir yuvish mashinasi)</i>	<i>washing machines (kir yuvish mashinalari)</i>

➤ Izoh:

Sanalmaydigan otlardan yasalgan qo'shma otlarning ko'plik shakli bo'lmaydi.

Masalan: *French food, etc.*

➤ Qoida 3:

Agar qo'shma otlar predlogli bo'lsa, unda ko'plik shakli birinchi otga beriladi.

Masalan:

BIRLIK	KO'PLIK
<i>hanger-on (tekinxo 'r)</i>	<i>hangers-on (tekinxo 'rlar)</i>
<i>passer-by (o 'tkinchi)</i>	<i>passers-by (o 'tkinchilar)</i>
<i>looker-on (tomoshabin)</i>	<i>lookers-on (tomoshabinlar)</i>
<i>mother-in-law (qaynona)</i>	<i>mothers-in-law (qaynonalar)</i>

➤ Qoida 4:

Qisqartmali qo'shma otlarning ko'plik shaklini yasashda ko'plik qo'shimchasi oxirgi otga qo'shiladi.

Masalan:

BIRLIK	KO'PLIK
<i>MP (Member of parliament)</i>	<i>MPs (Members of parliament)</i>
<i>VIP (Very important person)</i>	<i>VIPs (Very important persons)</i>

➤ Qoida 5:

Agar qo'shma otning birinchi so'zi "man" yoki "woman" bo'lsa, ularning ko'plik shakli yasalganda qo'shma ot tarkibidagi har ikkala so'z ham ko'plik shaklga o'tadi.

Masalan:

BIRLIK	KO'PLIK
<i>man-servant (erkak xizmatchi)</i>	<i>men-servants (erkak xizmatchilar)</i>
<i>woman-doctor (ayol shifokor)</i>	<i>women-doctors (ayol shifokorlar)</i>

➤ Qoida 6:

Qo'shib yoziladigan qo'shma otlarning ko'plik shakli qo'shma ot tarkibidagi ikkinchi so'zga ko'plik qo'shimchasi qo'shish bilan hosil qilinadi.

Masalan:

BIRLIK	KO'PLIK
<i>armchair (kreslo)</i>	<i>armchairs (kreslolar)</i>
<i>breadknife (non pichoq)</i>	<i>breadknives (non pichoqlar)</i>
<i>housewife (uy bekasi)</i>	<i>housewives (uy bekalari)</i>
<i>policeman (politsiyachi)</i>	<i>policemen (politsiyachilar)</i>
<i>postman (pochtachi)</i>	<i>postmen (pochtachilar)</i>
<i>schoolboy (maktab o'quvchisi)</i>	<i>schoolboys (maktab o'quvchilari)</i>
<i>tablecloth (dasturxon)</i>	<i>tablecloths (dasturxonlar)</i>
<i>toothbrush (tish cho'tkasi)</i>	<i>toothbrushes (tish cho'tkalari)</i>

OTLARNING ANIQLOVCHI VAZIFASIDA ISHLATILISHI

➤ Qoida 1:

Otlarning aniqlovchi vazifasida kelishining ikki xil holati mavjud:

a) agar bir necha ot va sonlar bir otdan oldin kelsa, u paytda oldingi otlar aniqlovchi vazifasini bajarib, ularga hech qanday qo'shimcha qo'shilmaydi hamda ular chiziqcha bilan yoziladi (1-ustunga qaralsin)

b) "of" qaratqich kelishigi qo'shimchasi yordamida birikma hosil qiladi (2-ustunga qaralsin)

BIRLIK	
1-ustun	2-ustun
<i>a ten-year-old girl (o'n yoshli qiz)</i>	<i>a girl of ten years old (o'n yoshli qiz)</i>
<i>a three-room flat (uch xonali uy)</i>	<i>a flat of three rooms (uch xonali uy)</i>
<i>a week holiday (bir haftalik ta'til)</i>	<i>a holiday of a week (bir haftalik ta'til)</i>
<i>a five-century castle (besh asrlik qasr)</i>	<i>a castle of five centuries (besh asrlik qasr)</i>
<i>a twenty-minute flight (yigirma daqiqalik parvoz)</i>	<i>a flight of twenty minutes (yigirma daqiqalik parvoz)</i>

KO'PLIK	
<i>two ten-year-old girls (ikkita o'n yoshli qiz)</i>	<i>two girls of ten years old (ikkita o'n yoshli qiz)</i>
<i>three three-room flats (uchta uch xonali uy)</i>	<i>three flats of three rooms (uchta uch xonali uy)</i>
<i>two three-week holidays (ikkita uch haftalik ta'til)</i>	<i>two holidays of three weeks (ikkita uch haftalik ta'til)</i>
<i>seven five-century castles (yettita besh asrlik qasr)</i>	<i>seven castles of five centuries (yettita besh asrlik qasr)</i>
<i>three ten-minute flights (uchta o'n daqiqalik parvoz)</i>	<i>three flights of ten minutes (uchta o'n daqiqalik parvoz)</i>

➤ **Qoida 2:**

Vaqt ko'rsatkichlari bilan berilgan jumlada ['s] (apostrofli "-s" qo'shimchasi) yoki ko'plikda "-s" qo'shimchasi bilan kelganda apostrof ['] dan foydalanishimiz ham mumkin.

BIRLIK	
1-ustun	2-ustun
<i>a week holiday (bir haftalik ta'til)</i>	<i>a week's holiday (bir haftalik ta'til)</i>
<i>a two-hour flight (ikki soatlik parvoz)</i>	<i>a two hours' flight (ikki soatlik parvoz)</i>
<i>a five-century castle (besh asrlik qasr)</i>	<i>a five centuries' castle (besh asrlik qasr)</i>
KO'PLIK	
<i>two one-week holidays (ikkita bir haftalik ta'til)</i>	<i>two one week's holidays (ikkita bir haftalik ta'til)</i>
<i>three two-week holidays (uchta ikki haftalik ta'til)</i>	<i>three two weeks' holidays (uchta ikki haftalik ta'til)</i>
<i>two five-century castles (ikkita besh asrlik qasr)</i>	<i>two five centuries' castles (ikkita besh asrlik qasr)</i>

COLLECTIVE NOUNS
(JAMLOVCHI OTLAR)

➤ **Qoida 1:**

Jamlovchi otlar kishilar, hayvonlar yoki narsa-predmetlarning guruhini ifodalab, asosan uch guruhga bo'linadi:

1. Kishilar guruhini ifodalovchi jamlovchi otlar:

<i>a class of students (talabalar sinfi)</i>	<i>a team of players (o'yinchilar jamoasi)</i>
<i>an army/regiment of soldiers (askarlar armiyasi/polki)</i>	<i>a gang of labourers (ishchilar jamoasi)</i>
<i>a choir of singers (qo'shiqchilar guruhi)</i>	<i>a flock of tourists (turistlar galasi)</i>
<i>a crew of sailors (dengizchilar ekipaji)</i>	<i>a troupe of artists (san'atkorlar guruhi)</i>
<i>a band of musicians (musiqachilar guruhi)</i>	<i>a staff of employees (ishchilar jamoasi)</i>
<i>an audience of listeners (tinglovchilar auditoriyasi)</i>	<i>a gang/pack of thieves (o'g'rilar to'dasi)</i>
<i>a panel/team of experts (ekspertlar hay'ati)</i>	<i>a tribe of natives (mahalliy qabila)</i>
<i>a bunch of crooks (firibgarlar to'dasi)</i>	<i>a board of directors (direktorlar kengashi)</i>
<i>a crowd of people/spectators (odamlar/tomoshabinlar ommasi)</i>	<i>a group of dancers (raqqoslar guruhi)</i>

2. Hayvonlar guruhini ifodalovchi jamlovchi otlar:

<i>a catch of fish (ovlangan baliqlar to'dasi)</i>
<i>an army/colony of ants (chumolilar galasi)</i>
<i>a flight of birds (uchayotgan qushlar to'dasi)</i>
<i>a flock of birds/geese/sheep/goats (qushlar/g'ozlar/qo'ylar/echkilar to'dasi)</i>
<i>a school/shoal of fish (baliqlar to'dasi)</i>
<i>a team of horses/oxen (otlar/buqalar podasi)</i>
<i>a herd of goats/deer/cattle/horses/elephants/camels (echkilar/bug'ular/chorvalar/otlar/fillar/tuyalar podasi)</i>
<i>a swarm of bees/ants/rats/flies (arilar/chumolilar/kalamushlar/pashshalar galasi)</i>
<i>a litter of puppies/kittens/cubs (kuchukchalar/mushukchalar/hayvon bolalari to'dasi)</i>
<i>a host of sparrows (qaldirg'ochlar oilasi)</i>
<i>a pride/troupe of lions/tigers/cheetahs (sherlar/yo'lbarslar/gepardlar galasi/to'dasi)</i>
<i>a zoo of wild animals (yovvoyi hayvonlar zooparki)</i>
<i>a pack of cats/dogs/foxes/wolves/hounds (mushuklar/itlar/tulkilar/bo'rilar/tozi itlar galasi)</i>
<i>a troop of monkeys (maymunlar to'dasi)</i>
<i>a hive of bees (asalarilar oilasi)</i>
<i>a murder of crows (qarg'alar galasi)</i>

3. Narsa-predmetlar guruhini ifodalovchi jamlovchi otlar:

<i>a group of islands</i> (orollar guruhi)	<i>a pack of cards</i> (kartalar uyumi)
<i>a galaxy of stars</i> (yulduzlar galaktikasi)	<i>a pair of shoes</i> (bir juft poyabzal)
<i>a wad of notes</i> (eslatmalar bog'lami)	<i>a bunch/bouquet of flowers</i> (gullar dastasi)
<i>a forest of trees</i> (daraxtlar to'dasi)	<i>a bunch of keys</i> (kalitlar bog'lami)
<i>a fleet of ships</i> (kemalar floti)	<i>a chest of drawers</i> (tortmalar javoni)
<i>a string of pearls</i> (marvaridlar shodasi)	<i>a range of mountains</i> (tog'lar tizmasi)
<i>an album of stamps/autographs</i> (marka/dastxatlar albomi)	<i>a library of books</i> (kitoblar kutubxonasi)
<i>a hedge of bushes</i> (butalar to'pi)	...

➤ Qoida 2:

Jamlovchi otlar gapda ega vazifasida kelganda kesimi quyidagi holatlarda kelishi mumkin:

1. Ma'nosiga ko'ra birlik va ko'plikda ishlatilishi mumkin.

Agar ushbu otlar butun guruhni umumlashtirib nazarda tutadigan bo'lsa, birlik kesim ishlatiladi. Agar ushbu otlar kishilar, hayvonlar yoki narsa-predmetlarni alohida-alohida nazarda tutsa, ko'plik kesim ishlatiladi:

<i>army</i> (armiya)	<i>electorate</i> (elektorat)	<i>population</i> (aholi)
<i>association</i> (assotsiatsiya)	<i>enemy</i> (dushman)	<i>press</i> (matbuot)
<i>audience</i> (auditoriya)	<i>family</i> (oila)	<i>public</i> (omma)
<i>college</i> (kollej)	<i>fire brigade</i> (o't o'chirish brigadasi)	<i>school</i> (maktab)
<i>committee</i> (qo'mita)	<i>generation</i> (avlod)	<i>Sony</i> (Sony)
<i>community</i> (jamiyat)	<i>government</i> (hukumat)	<i>staff</i> (jamoat)
<i>company</i> (kompaniya)	<i>group</i> (guruh)	<i>team</i> (jamoat)
<i>Congress</i> (kongress)	<i>jury</i> (hay'at)	<i>the Bank of England</i> (Angliya Banki)
<i>crowd</i> (olomon)	<i>Lenovo</i> (Lenovo)	<i>the BBC</i> (BiBiSi)
<i>class</i> (sinf)	<i>navy</i> (dengiz harbiy kuchlari)	<i>the Unicef</i> (YUNISEF)
<i>club</i> (klub)	<i>opposition</i> (muxolifat)	<i>the UNESCO</i> (YUNESKO)
<i>crew</i> (ekipaj)	<i>orchestra</i> (orkestr)	<i>the United Nations</i> (BMT)
<i>department</i> (bo'lim)	<i>organization</i> (tashkilot)	<i>university</i> (universitet)

Masalan:

BIRLIK	KO'PLIK
<i>The family is old and famous.</i>	<i>The family are happy about the gifts.</i>
<i>Our team is the best.</i>	<i>Our team are playing well today.</i>
<i>The staff is in a meeting.</i>	<i>The staff are in disagreement about finding.</i>
<i>The orchestra consists of 86 musicians.</i>	<i>The orchestra do not know what to play.</i>

2. Faqat ko'plik hisoblanib, ko'plik kesim talab qiladi.

Bu turdagi jamlovchi otlarning ko'pchiligi otlashgan sifatlardir:

<i>the police</i> (politsiya)	<i>the disabled</i> (nogironlar)	<i>the young</i> (yoshlar)
<i>the poor</i> (kambag'allar)	<i>the lame</i> (cho'loqlar)	<i>the blind</i> (ko'rlar)
<i>the injured</i> (jarohatlanganlar)	<i>the old</i> (keksalar)	<i>the unemployed</i> (ishsizlar)
<i>the wounded</i> (yaralanganlar)	<i>the rich</i> (boylar)	<i>the deaf</i> (karlar)
<i>the dead</i> (o'lganlar)	<i>the sick</i> (kasallar)	...

Masalan: *Have the police arrested the thief? The sick are being cured. The wounded are taken to hospital.*

3. Kishilar, hayvonlar yoki narsa-predmetlar guruhini ifodalovchi jamlovchi otlar gapda ega vazifasida birlikda kelsa, kesimi ham birlikda bo'ladi, jamlovchi ot ko'plikda kelsa, kesimi ham faqat ko'plikda bo'ladi.

Masalan: *A pair of shoes was lying on the floor. Two pairs of shoes were lying on the floor. A troupe of actors is performing the national comedy. Many troupes of actors are performing the national comedy.*

CASE OF NOUNS
(OTLARDA KELISHIK)

➤ Qoida 1:

Ingliz tilida otlarda faqat ikkita kelishik bor:

1. Umumiy kelishik (*Common case*)

Umumiy kelishikdagi otlarning hech qanday qo‘shimchasi bo‘lmaydi, predlog bilan kelmaganda ularning boshqa so‘zlar bilan munosabati gapdagi o‘rniga qarab belgilanadi. Umumiy kelishikdagi ot kesimdan oldin kelsa gapning egasi bo‘ladi, predlogsiz umumiy kelishikdagi ot kesimdan keyin kelsa gapda to‘ldiruvchi bo‘lib keladi.

Masalan: *The engineer gave the workers the project of the building. The director showed the accountant the progress.*

2. Qaratqich kelishigi (*Possessive case*)

Qaratqich kelishigi otga [’s] qo‘shilishi orqali hosil qilinadi.

Masalan: *the girl’s hat, Jack’s friend, the horse’s leg, etc.*

➤ Qoida 2:

Qaratqich kelishigi ko‘plikdagi otlardan keyin faqat [’] belgisini qo‘yish orqali yasaladi.

Masalan: *the boys’ books, the workers’ tools, the teachers’ room, etc.*

➤ Qoida 3:

Noto‘g‘ri ko‘plikdagi otlarning qaratqich kelishik shakli [’s] qo‘shish orqali yasaladi.

Masalan: *the children’s toys, the workmen’s tools, people’s interests, etc.*

➤ Qoida 4:

Qaratqich kelishigi qo‘shimchasi qo‘shma otlarning oxirgi so‘ziga qo‘shiladi.

Masalan:

BIRLIK	KO‘PLIK
<i>the commander-in-chief’s order</i>	<i>the commanders-in-chief’s orders</i>
<i>my sister-in-law’s library</i>	<i>my sisters-in-law’s library</i>
<i>looker’s-on applause</i>	<i>lookers’-on applause</i>
<i>my boyfriend’s car</i>	<i>my boyfriends’ cars</i>
<i>my brother-in-law’s guitar</i>	<i>my brothers-in-law’s guitars</i>

➤ Qoida 5:

Agar bir buyum bir necha kishilarga qarashli bo‘lsa, qaratqich kelishigi qo‘shimchasi [’s] oxirgi shaxs otiga qo‘shiladi.

Masalan: *Peter and Helen’s flat, Mr and Mrs Browns’ house, John and his brother’s car, etc.*

➤ Qoida 6:

Agar bir necha buyumlar bir necha kishilarga qarashli bo‘lsa, qaratqich kelishigi qo‘shimchasi [’s] har bir shaxs otiga qo‘shiladi.

Masalan: *Mukhammad’s and Madina’s computers, Tom’s and Roger’s bicycles, the teacher’s and the student’s books, etc.*

➤ Qoida 7:

Qaratqich kelishigi qo‘shimchasini olgan ot boshqa otdan oldin kelib, o‘zidan keyin kelgan otning aniqlovchisi hisoblanadi.

Masalan: *the student’s library, the children’s mother, Kate’s friends, etc.*

➤ Qoida 8:

Agar otning o‘zidan oldin boshqa aniqlovchisi bo‘lsa, qaratqich kelishigidagi ot o‘sha aniqlovchilardan oldin keladi.

Masalan: *the student’s new dictionary, Kate’s best friends, the doctor’s old tools, etc.*

➤ Qoida 9:

Qaratqich kelishigidagi otdan keyin kelgan ot artikl bilan ishlatilmaydi, chunki qaratqich kelishigidagi ot o‘zidan keyin kelgan otning ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Masalan: *Jack’s friend, children’s toys, engineer’s projects, etc. (Jack’s a friend, children’s the toys, engineer’s a project)*

➤ Izoh:

The children’s mother, the student’s dictionary, the mother’s daughter

Ushbu misollardagi artikl qaratqich kelishigidagi otlarga qarashli, ulardan keyin kelgan otlarga emas.

➤ Qoida 10:

Qaratqich kelishigi ma’nosini ifodalashda [’s] bilan bir qatorda “of” predlogi ham ishlatiladi.

Masalan: *the first meal of the day, the door of the room, the handle of the pot, etc.*

➤ Qoida 11:

Ko‘pincha ko‘plikdagi otlar qaratqich kelishigida “of” predlogi bilan ishlatiladi.

Masalan: *Where have you put the tools of the workers? The windows of the rooms are not clean.*

➤ Qoida 12:

Ikkita qaratqich kelishigi qo‘shimchasi [’s] ni olgan ot kamdan-kam holatda ketma-ket keladi, ikkinchisi ko‘pincha “of” predlogi bilan almashtiriladi.

Masalan: *He is my sister’s husband’s father o‘rnida He is the father of my sister’s husband* ishlatiladi.

➤ Qoida 13:

Murakkab aniqlovchili birikmalarda qaratqich kelishigi qo‘shimchasi asosiy ot oldidagi anqlovchiga qo‘shiladi.

Masalan: *My elder brother Peter’s son is very ill. Her close neighbour’s daughter is getting married soon.*

➤ Izoh:

Yuqoridagi vaziyatda “of” predlogini ishlatish afzalroq.

Masalan: *The son of my elder brother Peter is very ill. The daughter of her close neighbour is getting married soon.*

➤ Qoida 14:

“House”, “office”, “shop” kabi so‘zlar ko‘pincha qaratqich kelishigi qo‘shimchasi [’s] ni olgan otdan keyin tushib qoladi.

Masalan: *I dined at my friend’s (my friend’s house). She went to the baker’s (the baker’s shop).*

➤ Izoh:

Qaratqich kelishigi qo‘shimchasi [’s] kasb egalari nomiga qo‘shilib, ularning ishxonalarini nazarda tutishi mumkin.

<i>at the butcher’s (qassobxonada)</i>	<i>at the doctor’s (shifoxonada)</i>	<i>at the florist’s (gulchinikida)</i>
<i>at the dentist’s (tish shifokorida)</i>	<i>at the baker’s (novvoyxonada)</i>	<i>at the chemist’s (dorixonada)</i>
<i>at the tailor’s (tikuvchilikida)</i>	<i>at the cobbler’s (etikdo ‘znikida)</i>	<i>at the designer’s (dizaynernikida)</i>
<i>at the hairdresser’s (sartaroshxonada)</i>	<i>at the barber’s (sartaroshxonada)</i>	...

Masalan: *I am going to the doctor’s. You can buy meat at the butcher’s. I have had my shoes repaired at the cobbler’s.*

➤ Qoida 15:

Kishi yoki hayvonlarni bildiruvchi otlardan tashqari quyidagi otlar ham qaratqich kelishigi qo‘shimchasi [’s] ni oladi:

a) vaqt va masofani ifodalovchi otlar

Masalan: *He had a month’s holiday last summer. He lives at a kilometre’s distance from here.*

b) ba’zi payt ravishlari

Masalan: *today’s newspaper, yesterday’s conversation, tomorrow’s meeting, etc.*

c) ba’zi qotib qolgan (o‘zgarmas) iboralar

Masalan: *for order’s sake (tartib uchun), for old acquaintance’s sake (eski tanishlik hurmati), at a stone’s throw (bir qadamlik yo‘l), etc.*

d) “-s” bilan tugagan ismlarga [’] ning o‘zini qo‘shish yetarli bo‘ladi.

Masalan: *Pythagoras’ theorem, Sophocles’ play, Archimedes’ law, etc.*

e) kema va qayiqalar

Masalan: *The ship’s bell, the yacht’s mast, etc.*

f) transport vositalari bilan xoh “of”, xoh [’s] strukturalari ishlatilishi mumkin.

Masalan: *The plane’s wing-the wing of the plane, the train’s compartment-the compartment of the train, etc.*

g) tashkilot va korxonalar bilan xoh “of”, xoh [’s] strukturalari ishlatilishi mumkin.

Masalan: *The school’s garden-the garden of the school, the university’s library-the library of the university, etc.*

h) davlat va shaharlar bilan xoh “of”, xoh [’s] strukturalari ishlatilishi mumkin.

Masalan: *The world’s population-the population of the world, Bukhara’s monuments-the monuments of Bukhara, etc.*

➤ Qoida 16:

Qaratqich kelishigidagi birikmalarning ikki xil ko‘rinishi mavjud:

BIRINCHI KO‘RINISH				IKKINCHI KO‘RINISH		
<i>my mother’s</i>	+	<i>friend</i>	=	<i>a friend</i>	of	<i>my mother’s</i>
<i>my</i>		<i>friends</i>		<i>friends</i>		<i>mine</i>
<i>your</i>		<i>dog</i>		<i>a dog</i>		<i>yours</i>
<i>his</i>		<i>dogs</i>		<i>dogs</i>		<i>his</i>
<i>her</i>		<i>record</i>		<i>a record</i>		<i>hers</i>
<i>its</i>		<i>records</i>		<i>records</i>		<i>its</i>
<i>our</i>		<i>hat</i>		<i>a hat</i>		<i>ours</i>
<i>their</i>		<i>hats</i>		<i>hats</i>		<i>theirs</i>

Masalan: *He is my friend./He is a friend of mine. Jack’s car was stolen./The car of Jack’s was stolen.*

NOUN SUFFIXES
(OT YASOVCHI SUFFIKSLAR)

➤ Qoida 1:

Ingliz tilida yasama otlar asosan ushbu qo‘shimchalar orqali hosil qilinadi:

SUFFIKS	MISOL	SUFFIKS	MISOL
-acy (-cy)	<i>privacy, legacy, bankruptcy, etc.</i>	-ance	<i>acceptance, resistance, etc.</i>
-age	<i>garbage, courage, package, etc.</i>	-ence	<i>sentence, competence, existence, etc.</i>
-dom	<i>freedom, kingdom, wisdom, etc.</i>	-ancy	<i>vacancy, constancy, pregnancy, etc.</i>
-et, -ette, -let	<i>basket, cigarette, booklet, etc.</i>	-ency	<i>agency, urgency, tendency, etc.</i>
-hood	<i>childhood, babyhood, boyhood, etc.</i>	-ant	<i>peasant, sergeant, servant, etc.</i>
-ice, -ise	<i>justice, notice, office; promise, etc.</i>	-ary	<i>secretary, dignitary, military, etc.</i>
-ics	<i>ethics, physics, politics, etc.</i>	-ery	<i>archery, bravery, slavery, etc.</i>
-ine, -in	<i>engine, sardine, cousin, dolphin, etc.</i>	-ory	<i>memory, allegory, oratory, etc.</i>
-ing	<i>ceiling, building, dressing, etc.</i>	-er	<i>worker, lawyer, founder, etc.</i>
-ism	<i>realism, communism, feudalism, etc.</i>	-or	<i>sailor, tailor, janitor, etc.</i>
-ist	<i>dentist, typist, stylist, etc.</i>	-ar	<i>beggar, burglar, liar, etc.</i>
-ment	<i>treatment, apartment, etc.</i>	-eer (-ier)	<i>career, engineer, soldier, etc.</i>
-ness	<i>blindness, brightness, coldness, etc.</i>	-ee	<i>devotee, divorcee, employee, etc.</i>
-ship	<i>friendship, hardship, worship, etc.</i>	-ess	<i>actress, goddess, governess, etc.</i>
-ty (-ity)	<i>safety, nicety, oddity, crudity, etc.</i>	-ion, -tion	<i>cushion, fashion, corruption, etc.</i>
-th	<i>breadth, depth, filth, etc.</i>	-ition	<i>petition, partition, contrition, etc.</i>
-tude	<i>altitude, amplitude, attitude, etc.</i>	-ation	<i>information, reformation, etc.</i>
-ure	<i>failure, figure, procedure, etc.</i>	-sion, -ssion	<i>vision, lesion, discussion, etc.</i>

ADJECTIVE

(SIFAT)

➤ Qoida 1:

Narsa va buyumning belgisini bildirib, barcha *qanday?*, *qanaqa?* so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarga *sifat* deyiladi. Masalan: *expensive* (qimmat), *interesting* (qiziqarli), *modern* (zamonaviy), *tall* (baland), *young* (yosh), *beautiful* (chiroyli), etc.

➤ Qoida 2:

Sifatlar jins, son va kelishikda o'zgarmaydi. Ular faqat darajalar bo'yicha o'zgarishi mumkin. Masalan: *cheap* (arzon)- *cheaper* (arzonroq)- *the cheapest* (eng arzon), etc.

➤ Qoida 3:

Sifatlar gapda aniqlovchi vazifasida yoki ot-kesimning tarkibida kelishi mumkin. Masalan: *A beautiful girl is sitting over there. The girl who is sitting over there is beautiful.*

➤ Qoida 4:

Sifatlar tuzilishiga ko'ra *sodda va qo'shma sifatlar* guruhlariga bo'linadi. Sodda sifatlar o'z navbatida ikkiga - *tub va yasama* sifatlariga bo'linadi.

➤ Qoida 5:

Tarkibida hech qanday sifat yasovchi qo'shimchalari bo'lmagan sifatlar *tub sifatlar* deyiladi. Masalan: *good, bad, white, red, big, etc.*

➤ Qoida 6:

Sifat yasovchi qo'shimchalar yordamida yasalgan sifatlar *yasama sifatlar* deyiladi. Masalan: *useful, beneficial, dangerous, formal, etc.*

➤ Qoida 7:

Ikkita so'zdan yasali bitta ma'noni anglatuvchi sifatlar *qo'shma sifatlar* deyiladi. Masalan: *a part-time job, a middle-aged woman, a well-known author, a dark blue sweater, a snow-white shirt, etc.*

➤ Qoida 8:

Sifatlar ma'nosiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Opinion adjectives (Fikr sifatleri)

2. Fact adjectives (Dalil sifatleri)

OPINION ADJECTIVES

(FIKR SIFATLARI)

➤ Qoida 1:

Shaxs yoki narsa-predmetning moddiy belgilarini emas, ko'pincha xususiyati yoki holatini ifodalovchi sifatlar *fikr sifatleri* deyiladi. Bir shaxs tomonidan ma'lum bir obyektga berilgan fikr sifatleri boshqa bir kishi tomonidan inkor etilishi mumkin.

Masalan: *good* (yaxshi), *easy* (oson), *important* (muhim), *difficult* (qiyin), *pleasant* (yoqimli), *comfortable* (qulay), etc.

FACT ADJECTIVES

(DALIL SIFATLARI)

➤ Qoida 1:

Dalil sifatleri deb konkret hajmni, shaklni, uzunlikni, kenglikni, chuqurlikni, yoshni, haroratni, rangni, millatni, dinni, materialni ifodalovchi sifatlar *aytilib*, ular ifodalagan belgi aniq-yaqqol ko'rinib turadi va hech kim uni inkor eta olmaydi.

Masalan: *large* (katta), *black* (qora), *cotton* (paxtali), *young* (yosh), *wooden* (yog'ochli), *little* (kichik), *old* (eski), etc.

DEGREES OF ADJECTIVES
(SIFAT DARAJALARI)

➤ Qoida 1:

Sifatlar darajalanishiga ko'ra uch guruhga: *oddiy*, *qiyosiy* va *orttirma* darajalarga bo'linadi.

1. Bir va ba'zi ikki bo'g'inli sifatning darajalanish jadvali:

POSITIVE DEGREE (ODDIY DARAJA)	COMPARATIVE DEGREE (QIYOSIY DARAJA)	SUPERLATIVE DEGREE (ORTTIRMA DARAJA)
...	... -er	<i>the ... -est</i>
<i>big</i>	<i>bigger</i>	<i>the biggest</i>
<i>high</i>	<i>higher</i>	<i>the highest</i>
<i>happy</i>	<i>happier</i>	<i>the happiest</i>
<i>cheap</i>	<i>cheaper</i>	<i>the cheapest</i>
<i>cold</i>	<i>colder</i>	<i>the coldest</i>
<i>busy</i>	<i>busier</i>	<i>the busiest</i>
<i>dirty</i>	<i>dirtier</i>	<i>the dirtier</i>
...

2. Ko'pchilik ikki va undan ortiq bo'g'inli sifatning darajalanish jadvali:

POSITIVE DEGREE (ODDIY DARAJA)	COMPARATIVE DEGREE (QIYOSIY DARAJA)	SUPERLATIVE DEGREE (ORTTIRMA DARAJA)
...	<i>more/less ...</i>	<i>the most/the least ...</i>
<i>pleasant</i>	<i>more/less pleasant</i>	<i>the most/the least pleasant</i>
<i>important</i>	<i>more/less important</i>	<i>the most/the least important</i>
<i>difficult</i>	<i>more/less difficult</i>	<i>the most/the least difficult</i>
<i>beautiful</i>	<i>more/less beautiful</i>	<i>the most/the least beautiful</i>
<i>attractive</i>	<i>more/less attractive</i>	<i>the most/the least attractive</i>
<i>interesting</i>	<i>more/less interesting</i>	<i>the most/the least interesting</i>
...

3. Har ikkala usul bilan darajalanadigan sifatlar jadvali:

POSITIVE DEGREE (ODDIY DARAJA)	COMPARATIVE DEGREE (QIYOSIY DARAJA)	SUPERLATIVE DEGREE (ORTTIRMA DARAJA)
...	... -er yoki <i>more/less ...</i>	<i>the ... -est</i> yoki <i>the most/the least ...</i>
<i>clever</i>	<i>cleverer / more/less clever</i>	<i>the cleverest / the most/least clever</i>
<i>narrow</i>	<i>narrower / more/less narrow</i>	<i>the narrowest / the most/least narrow</i>
<i>quiet</i>	<i>quieter / more/less quiet</i>	<i>the quietest / the most/least quiet</i>
<i>shallow</i>	<i>shallower / more/less shallow</i>	<i>the shallowest / the most/least shallow</i>
<i>simple</i>	<i>simpler / more/less simple</i>	<i>the simplest / the most/least simple</i>
<i>gentle</i>	<i>gentler / more/less gentle</i>	<i>the gentlest / the most/least gentle</i>
<i>friendly</i>	<i>friendlier / more/less friendly</i>	<i>the friendliest / the most/least friendly</i>

4. Darajalanishda shaklan o'zgaradigan sifatlar (va olmoshlar*) jadvali:

POSITIVE DEGREE (ODDIY DARAJA)	COMPARATIVE DEGREE (QIYOSIY DARAJA)	SUPERLATIVE DEGREE (ORTTIRMA DARAJA)
<i>good</i>	<i>better</i>	<i>the best</i>
<i>bad</i>	<i>worse</i>	<i>the worst</i>
<i>much/many*</i>	<i>more</i>	<i>the most</i>
<i>little*</i>	<i>less</i>	<i>the least</i>
<i>far</i>	<i>farther / further</i>	<i>the farthest / the furthest</i>
<i>old</i>	<i>older / elder</i>	<i>the oldest / the eldest</i>
<i>well (healthy)</i>	<i>better</i>	<i>the best</i>

➤ Izoh:

Ingliz tilida ba'zi sifatning qiyosiy va orttirma darajalari mavjud emas. Quyidagi sifatlar shular jumlasidandir:

<i>blind</i> (ko'r)	<i>fatal</i> (o'ldiradigan)	<i>left</i> (chap)	<i>key</i> (asosiy)	<i>universal</i> (universal)	<i>wrong</i> (noto'g'ri)
<i>dead</i> (o'lik)	<i>final</i> (so'nggi)	<i>right</i> (o'ng)	<i>vertical</i> (vertikal)	<i>unique</i> (yagona)	...

➤ Qoida 2:

Sifatlarning qiyosiy va orttirma darajalari yasalganda quyidagi imlo qoidalariga rioya qilinadi:

1. Agar sifat o'qilmaydigan "e" harfi bilan tugagan bo'lsa, "-er" va "-est" qo'shimchalari qo'shilganda sifat oxiridagi o'qilmaydigan "e" harfi tushib qoladi.

Masalan: *large-larger-the largest, brave-braver-the bravest, ripe-riper-the ripest, etc.*

2. Agar sifat qisqa unidan keyin kelgan undosh harf bilan tugagan bo'lsa, qiyosiy va orttirma darajalarning qo'shimchasi qo'shilganda oxirgi undosh ikkilantiriladi.

Masalan: *big-bigger-the biggest, hot-hotter-the hottest, thin-thinner-the thinnest, wet-wetter-the wettest, etc.*

3. Agar sifat undoshdan keyin kelgan "y" harfi bilan tugagan bo'lsa, qiyosiy va orttirma darajalarning qo'shimchasi qo'shilganda oxirgi "y" harfi "i" harfiga o'zgaradi.

Masalan: *busy-busier-the busiest, easy-easier-the easiest, dirty-dirtier-the dirtiest, etc.*

4. Agar sifat oxiridagi "y" harfi unidan keyin kelgan bo'lsa, qo'shimcha qo'shilganda "y" harfi saqlanib qolinadi.

Masalan: *stray-strayer-the strayest, coy-coyer-the coyest, etc.*

➤ Qoida 3:

Ba'zida rang-tus sifatlariga "-ish" qo'shimchasi qo'shib, o'sha sifatning ozaytirma darajasini ifodalaydi.

Masalan: *reddish (qizg'ish), greyish (kulrangsimon), whitish (oqish), greenish (yashilsifat), etc.*

POSITIVE DEGREE
(ODDIY DARAJA)

➤ Qoida 1:

Sifatning oddiy darajasi biror-bir ot haqida shunchaki ma'lumot berish uchun ishlatiladi. Oddiy darajadagi sifatlarga hech qanday qo'shimcha qo'shilmaydi.

Masalan: *She is a beautiful girl. My brother is an interesting person. It is an easy job.*

COMPARATIVE DEGREE
(QIYOSIY DARAJA)

➤ Qoida 1:

Sifatning qiyosiy darajasi ikki ot bir-biri bilan ya'ni bir ot ikkinchi bir ot bilan qiyoslash, taqqoslash uchun ishlatiladi.

<i>Comparative degree</i>	+ <i>than</i>	- <i>dan ko'ra</i>
---------------------------	---------------	--------------------

Masalan: *My room is larger than yours. Exercise ten is more difficult than exercise eleven. Nick is taller than Tom.*

➤ Qoida 2:

"Than" so'zi ishtirok etmasdan yashirin qiyos berish mumkin.

Masalan: *This restaurant is expensive. Let's find a cheaper one. Nick is tall. Tom is taller.*

➤ Qoida 3:

"Or" bog'lovchisi bilan ikki ot haqida so'ralganda ham sifatning qiyosiy darajasi ishlatiladi.

Masalan: *Which is more expensive, Nexia or Spark? Which is better, swimming or driving?*

➤ Qoida 4:

Quyidagi so'zlarni qiyosiy darajadagi sifatlardan oldin qo'yib qiyosni kuchaytirishda ishlatamiz:

<i>much (ancha)</i>	+ <i>Comparative degree</i>
<i>far (ancha)</i>	
<i>a lot (ancha)</i>	
<i>a bit (biroz)</i>	
<i>a little (biroz)</i>	
<i>even (ancha)</i>	
<i>any (biroz)</i>	
<i>rather (ancha)</i>	
<i>no (emas)</i>	
<i>sligh. 'v (biroz)</i>	
<i>yet (ancha)</i>	
<i>still (ancha)</i>	

Masalan: *My rooms are much larger than yours. Nick is far taller than Bill. This book is much more interesting than that one.*

➤ Izoh:

Otlarning miqdoriga ishora qiluvchi "anchagina ko'p" birikmasi ingliz tilida "much more" (sanalmaydigan otlar uchun) va "many more" (sanaladigan otlar uchun) birikmalari bilan beriladi.

Masalan: *He has much more free time than I. We have many more books than they. It is a very much more expensive car.*

➤ Qoida 5:

Quyidagi ikki sifat faqat qiyosiy darajada ishlatiladigan sifatlardir:

<i>superior</i>	+ to	-sifat jihatdan yaxshiroq
<i>inferior</i>		-sifat jihatdan yomonroq

Masalan: *Your laptop is inferior to Jack's. New mobile phones should be superior to ones produced earlier.*

➤ Qoida 6:

Quyidagi ikki sifat gapda oldin aytib o'tilgan otni qayta takrorlamaslik uchun ishlatiladi:

<i>the former</i>	-oldingi, birinchisi
<i>the latter</i>	-keyingi, ikkinchisi

Masalan: *Tom and Nick are friends. The former (=Tom) knows English well. But I prefer the latter (=Nick).*

➤ Qoida 7:

"But" so'zi bilan bog'langan gaplarda sifat darajalarining ishlatilishi:

1.

<i>Positive degree</i>	, (vergul)	<i>but</i>	+ <i>Comparative degree</i>
------------------------	------------	------------	-----------------------------

Masalan: *Nick is tall, but Bill is taller. Your computer is expensive, but mine is more expensive.*

2.

<i>Positive degree</i>	, (vergul)	<i>but</i>	+ <i>Superlative degree</i>	+ <i>noun</i>
------------------------	------------	------------	-----------------------------	---------------

Masalan: *Nick is tall, but Bob is the tallest student. Tom is clever, but John is the most clever pupil at school.*

➤ Qoida 8:

<i>different</i>	+ <i>from/to</i>	...dan farqli
------------------	------------------	---------------

Masalan: *My book is different from yours. Her idea was different to mine.*

➤ Qoida 9:

1. "Older" -kattaroq, qariroq (yosh jihatdan), eskiroq ("than" bilan ishlatilishi mumkin)

Masalan: *Nick is older than Tom. My car is older than Nick's. Her grandfather is old, but mine is older.*

2. "Elder" -katta (qarindoshchilikda, ushbu holatda "than" ishlatilmaydi)

<i>elder</i>	<i>brother/sister</i>	<i>than</i>
	<i>son/daughter</i>	
	<i>uncle/aunt</i>	

Masalan: *My elder brother studies at university. His elder sister is at school. Her elder uncle works for a big company.*

3. "The oldest" -eng katta, eng qari (yosh jihatdan), eng eski

